Manfiy aeroionlar biologik jarayonlarni stimullab, tirik organizmlarga yaxshi tahsir etishlari isbotlangan. Havoni tabiiy ionizatsiyalanishi tuproq va havodagi radioaktiv moddalar hamda kosmik nurlar tahsirida sodir bo'ladi. Havoni 1 sm³-da tashqarida 700...1000, xonalarda 100-dan kam aeroionlar bo'ladi.

Tirik organizmlar turadigan xonalarda, masalan chorvachilik fermalarda, manfiy aeroionlarni oz miqdordaligi to'siqlar va turli uskunalar bilan ekranlovchi tahsiri, gaz ionlarini juda mayda suyuq yoki qattiq zarrachalari bilan birlashib, og'ir ionlarni hosil bo'lishiga olib keluvchi havoni yuqori namligi va changlanganligi bilan tushuntiriladi. Nafas oluvchi organizmlar chiqaradigan havoda ham og'ir ionlar bo'ladi, ular ichida musbat zaryadlanganlari ko'proq. Bu organizmlarni fiziologik xolatiga salbiy tahsir qiladi. SHuning uchun xonalarda havoni neytral zarrachalarini sunhiy ionlashtirib, manfiy aeroionlarni mahlum kontsentratsiyasini doim ushlab turish kerak.

CHorvachilik va parrandachilik xonalarini aeroionlashtirish uchun qo'llaniladigan uskunalar hayvonlar va parranda turadigan zonani havo muhitini kerakli miqdorda yengil manfiy ionlar bilan to'ldirib turishi kerak va ularga hamda xizmat qiluvchi personalga qandaydir manfiy tahsir qilmasligi kerak. Bu talablarga toj razryadni qo'llovchi elektr aeroionlashtirgichlar javob beradi.

Toj razryadi – kuchli bir jinsli bo'lmagan elektr maydonlar uchun xarakterli razryadlar shakllarini bittasi. Bunday razryad hosil qilish uchun razryadlanuvchi oraliqni elektrodlaridan hech bo'lmasa bittasi egrilikni katta bo'lmagan radiusiga ega bo'lishi kerak. Razryadlanuvchi oraliqqa mahlum kuchlanish berilganda egriligi kichik radiusli elektrodni yaqinida kuchlanganlik 15 kV/sm va undan ham yuqoriga yetadi. Bunda uning atrofida gaz atomlarini intensiv zarbali ionlanishi boshlanadi, mos qutbli elektrodlar tomon harakatlanuvchi musbat va manfiy zaryadlangan ionlar hosil bo'ladi. Havoni ionlanishi bilan bir yo'la musbat ionlar va elektronlarni rekombinatsiya jarayoni kechadi, ular birlashib, atomlar neytral xolatga qaytishida katta miqdorda fotonlarni ajratishadi, shu tufayli o'ziga xos yog'du hosil bo'ladi. Bu, egriligi kichik radiusli elektrodni atrofida nurlanuvchi xudud tojlanuvchi qatlam, yoki ichki zona, yoki toj g'ilofi nomini oldi, elektrod esa tojlanuvchi deyildi. Havo oralig'ini tojni tashqi zonasi deyiladigan qolgan qismida o'tkazuvchi kanal hosil bo'lmaydi va elektrodlararo oraliq izolyatsiyalovchi xususiyatlarini to'la yo'qotmaydi. Oraliq to'la teshilishi uchun elektrodlar orasidagi kuchlanish yana ko'paytirilishi kerak.

Tojlanuvchi qatlamda hosil bo'lgan manfiy ionlar va elektronlar elektr maydonni kuch chiziqlaridan harakatlanib, toj razryadni tashqi zonasida

zaryadlangan zarrachalarni oqimini hosil qilishadi. Bunda erkin elektronlar yangi manfiy aeroionlar hosil qilib gazni neytral molekulalariga qo'shilishadi, birinchi navbatda kislorodnikiga, va, ular ham zaminlangan musbat elektrod tomon harakatlanadilar.

CHorvachilik va parrandachilik xonalarini havosini aeroionlashtirish uchun qo'llaniladigan razryadlanuvchi oraliqlarda tojlanuvchilar sifatida ignali elektrodlar yoki kichik diametrli sim ishlatiladi, ularga yuqori volg'tli manbaadan 10...80 kV manfiy potentsial beriladi. Ikkinchi elektrod sifatida xonalarni to'siqlari xizmat qiladi, asosan manbaani musbat qutbi bilan yer orqali galg'vanik aloqaga ega pol.

Ignali razryadlanuvchi uskuna kvadrat yoki uchburchak katakchali metall to'rdan iborat bo'lib, uni tugunlarida uzunligi 20...40 mm va egrilik radiusini uchi 0,1...0,3 mm bo'lgan po'lat ignalar bo'ladi. Simli to'r metall trubkadan tayyerlangan ramaga tortiladi. Ramani lyustraga o'xshatib bitta yoki bir nechta yuqori volg'tli izolyatorlarga ship sirtiga osib qo'yiladi. Ignalar uchlari maydon tomon qaratilgan. Bu aeroionlashtiruvchi uskuna CHijevskiy lyustrasi nomini oldi.

Ignali razryadlanuvchi uskunalar katta bo'lmagan xonalarda aeroionlarni tekis taqsimlanishini tahminlaydilar. Ular xonalarda yoki hayvonlar turadigan zonada havoni lokal ionlashtirish uchun qo'llaniladi.

Simli tojlanuvchi elektrodlar katta hajmli xonalarda ionlarni yetarlicha tekis taqsimlanishini tahminlaydilar. Bunda tojlanuvchi elektrodni xonani shipiga yoki devorlariga mahkamlangan yuqori volg'tli izolyatorlar yordamida montaj qilinadi.

Manfiy aeroionlarni elektrod o'qiga perpendikulyar sirdagi maksimal kontsentratsiyasi sim ostida hosil bo'ladi va uning o'qidan uzoqlashgan sari kamayadi. Mexanik mustahkamlik shartlariga ko'ra simni diametrini minimal ruxsat etilganday qabul qilinadi (0,1 mm-gacha).

Elektr maydonni toj razryad hosil bo'ladigan kuchlanganligini kritik deyiladi. Uni Pikni empirik ifodasidan topiladi:

$$E_0 = 30,3\rho(1/\sqrt{\rho R r_0})^{0,298}10^5,$$

bu yerda: E_0 -toj razryadni kritik kuchlanganligi, V/m; ρ -havoni nisbiy zichligi, kg/m³, (havoni normal sharoitlardagi zichligi $\rho_0=1,29$ kg/m³-ga nisbatan); r_0 -tojlanuvchi elektrodni radiusi, m.

Sim sirt turdagi elektrodlar uchun toj razryadni boshlang'ich kuchlanishi:

$$U_0 = E_0 r_0 \ln \frac{2h}{r_0},$$

bunda h -tojlanuvchi elektroddan sirtgacha masofa, m.

Manbaa kuchlanishi kritik qiymatdan yuqoriroqgacha ko'paytirilganda toj razryadni sim elektrodni uzunligini birligiga to'g'ri keladigan toki, A/m, kvadratik bog'liqlik bo'yicha o'sadi:

$$I = \frac{\varepsilon_0 \pi^2 k U (U - U_0)}{h^2 \ln(2h/r_0)},$$

bu yerda: ϵ_0 -elektr doimiysi, F/m ($\epsilon_0=8,85 \cdot 10^{-12}$ F/m); k -manfiy aeroionlarni harakatchanligi, $\text{m}^2/(\text{V} \cdot \text{s})$ [$k \cdot 1,8 \cdot 10^4 \text{ m}^2/(\text{V} \cdot \text{s})$]; U -elektrodlar orasidagi kuchlanish, V.

Tojlanuvchi simli elektrodni uzunligini birligidan olinadigan aeroionlarni, ion/m, soni:

$$n_l = I/e = \frac{\epsilon_0 \pi^2 k (U - U_0)}{h^2 \ln(2h/r_0) e},$$

bunda ye-aeroion zaryadi, Kl ($e=1,6 \cdot 10^{19}$ Kl).

CHorvachilik va parrandachilikda, shu jumladan boshqa tirik organizmlar turadigan xonalarda, tojlanuvchi aeroionlashtirgichlar shunday rejimda ishlashlari kerakki, ozon va uni oksidlarini hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki ular katta toklarda elektr razryadlarni paydo bo'lishiga ko'maklashadilar. Razryad tokini stabillashtirish uchun tojlanuvchi elektrodlar bilan ketma-ket qarshiligi $10^8 \dots 10^{10}$ Om bo'lgan cheklovchi rezistorlar ulanadi.

Elektr tojli aeroionlashtirgichlar chorvachilik va parrandachilik xonalari nisbatan kattaligida ham oz elektr energiyasini istehmol qilishadi. Bunga sabab – aeroionlarni «hayoti»ni o'rta davomiyligi 10 s-gachaligida kerakli kontsentratsiyani hosil qilish uchun milliamperni o'ndan bir qismlariga teng razryadlanuvchi tok kerak.

Tojni kerakli razryadlanuvchi toki, A:

$$I = enV/\tau,$$

bu yerda: n -aeroionlarni kerakli kontsentratsiyasi, ion/ sm^3 ; V -xonalarni ionlashtiriluvchi hajmi, sm^3 ; τ - aeroionlarni «hayoti»ni o'rta davomiyligi, s.

Aeroionlarni biologik obyektlarga tahsiri ionlarni kontsentratsiyasi, uskunani kun davomidagi ish rejimi, tsikllar va ular orasidagi tanaffuslarni davomiyligiga bog'liq.

Har qanday xolatda ham aeroionlarni kontsentratsiyasi chegaraviy qiymat – 10^6 ion/ sm^3 -dan oshmasligi kerak. Aeroionlashtirgichlar ishini dasturlashtirilgan uskunalar boshqaradi va sutkalik meerlarni berilgan tsikl davomida o'zgartirib avtomatik tahminlaydi.

Tirik organizmlarga foydali fiziologik tahsirdan tashqari, havoni sunhiy aeroionlashtirilishi chang va mikroorganizmlarni sonini kamaytiradi va natijada kasallanish kamayadi, hayvon va parrandani maxsuldorligi oshadi.

quruq to'kiluvchi aralashmalarni ajratadigan elektrstatik qurilma. Bu jarayonni elektr separatsiyalash deyiladi. Konstruktiv shakllashdan separatsiya zonalarini panjarali, kamerali va barabanlilarga bo'lishadi.

Elektr separatsiyalash asosida quruq to'kiluvchi aralashmani elektrodlar hosil qilgan elektr maydon bilan o'zaro tahsiri yotadi. Buning uchun aralashma zarralarini elektrostatik induksiya (kontaktli zaryadlash), ionlarni toj razryad maydonida cho'ktirish (kontaktsiz zaryadlash) va bu usullarni kombinatsiyasidan foydalaniladi.

Kontaktli zaryadlashni mazmuni – mahlum elektr potentsialga ega elektrod bilan kontaktda bo'lgan zarrachani sirtida zaryadni paydo bo'lishi. Zarracha va

elektrod orasidagi o'tish qarshiligi nolga tengligida o'tkazuvchi sfera shaklidagi zarrachani maksimal (chegaraviy) zaryadi, Kl:

$$Q = \frac{2\pi^3}{3} \varepsilon_0 E r^2,$$

bu yerda: ε_0 -elektr doimiysi, F/m ($\varepsilon_0=8,85 \cdot 10^{-12}$ F/m); Ye-tashqi elektr maydonni kuchlanganligi, V/m; r -zarrachani radiusi, m.

Zarrachalarni ionli zaryadlashni mazmuni – ularni toj razryadni tashqi xududini elektr maydoniga qo'yiladi va u yerdagi hajmiy zaryad – gaz ionlari zarrachani sirtiga o'tiradi. Toj razryad elektr maydoniga qo'yilgan o'tkazuvchi sfera shaklidagi zarrachani maksimal (chegaraviy) zaryadi, Kl:

$$Q_m = 4\pi\varepsilon_0 r^2 E \left(1/2 \frac{\varepsilon_r - 1}{\varepsilon_r - 2}\right),$$

bunda ε_r -zarrachani nisbiy dielektrik sintdiruvchanligi.

O'tkazuvchi zarrachani chegaraviy zaryadi ($\varepsilon_r \rightarrow \infty$):

$$Q_m = 12\pi\varepsilon_0 r^2 E.$$

Toj razryad maydonidagi sfera shaklli zarracha kinetikasini ifodasi:

$$Q = Q_m \frac{\pi n k \tau}{4\pi\varepsilon_0 + \pi n k \tau},$$

bu yerda: ye-ion zaryadi, Kl; n -ionlarni kontsentratsiyasi, ion/m³; k -ionlarni harakatchanligi, m²/(V·s) [$k=1,8 \cdot 10^{-4}$ m²/(V·s)]; τ -zarrachani toj razryadda bo'lish vaqti, s.

Elektr maydonda zaryadlangan zarrachaga kulon, ko'zguli ko'rinish va ponderomotor kuchlari tahsir etadi.

Zarracha zaryadini va elektr maydonni u joylashgan xududidagi kuchlanganlikni o'zaro tahsiri kulon kuchi deyiladi:

$$F_k = QE,$$

bu yerda: F_k -o'zaro tahsirni kulon kuchi, N; Q -zarrachani zaryadi, Kl; E -elektr maydon kuchlanganligi, V/m.

Agar zaryadlangan zarracha elektrod yonida bo'lsa yoki unga tegib turgan bo'lsa, zarracha yaqinidagi elektr maydon yakka zaryad maydonidan farq qiladi. Zaryadlangan zarracha elektrodga yaqinlashishida elektr induktsiyasini tahsiri bilinadi – elektrod sirtida qiymat bo'yicha teng, ammo ishora bo'yicha teskari zaryad induktivlanadi. Bunda natijaviy elektr maydon ikkita, elektroddan bir xil masofada bo'lgan turlicha zaryadlangan zarrachalar maydoni bilan mos tushadi. Zarracha zaryadini va induktivlangan zaryadni o'zaro tahsirini ko'zguli ko'rinish kuchi deyiladi. Zarrachani radiusiga teng masofada u eng katta qiymatga ega bo'ladi. Xususiyati bo'yicha ko'zguli ko'rinish kuchi ham, N, elektrod tomoniga yo'nalgan kulon kuchidir va Kulon qonunidan topilishi mumkin:

$$F_{kk} = Q^2/(4\pi\varepsilon_0 l^2),$$

bunda l -zarrachani zaryadi va uni ko'zguli ko'rinishi orasidagi masofa, m.

Agar sfera shaklli zarracha elektrodda yotgan bo'lsa va uning zaryadi sirtga tekis taqsimlangan bo'lsa, ko'zguli ko'rinish kuchi, N:

$$F_{kk} = Q^2/(16\pi\varepsilon_0 r^2).$$

Zaryadlangan zarrachani elektrodga tegishi erkin zaryadlarni qayta taqsimlanishiga olib keladi, yahni zarrachani razryalanishiga. Zarrachani elektrod bilan kontaktlangandan keyin ma'lum vaqt o'tgandan keyingi zaryadi qoldiq zaryad deyiladi, uning qiymati zarrachani elektr o'tkazuvchanligiga va u va elektrod orasidagi o'tish qarshiligiga bog'liq. SHunga binoan induktivlangan zaryad va ko'zguli ko'rinish kuchi kamayishadi.

Ko'zguli ko'rinish kuchi elektrod sirtida o'tkazuvchilarga qaraganda dielektrik zarrachalarni uzoqroq muddat ushlab turishiga yordam beradi. O'tkazuvchi zarrachalar tezda zaryadlarini yo'qotishadi va elektrodni tark etishadi.

Ponderomotor kuchi bir jinsli bo'lmagan elektr maydondagi zarrachaga ta'sir qiladi.

Elektr maydonga qo'yilgan dielektrikni qutblangan molekulalarini musbat $+Q$ va manfiy $-Q$, bir birini orasida qattiq aloqaga ega va bir biridan l masofada joylashgan zaryadlar sifatida ko'rish mumkin. Bir jinsli bo'lmagan elektr maydonda dipolni $+Q$ va $-Q$ zaryadlariga qiymati bo'yicha teng bo'lmagan F_1 va F_2 kuchlar ta'sir qiladi, chunki zaryadlar joylashgan joylarda tashqi maydonni kuchlanganligi turli Y_{e1} va Y_{e2} qiymatlarga ega. Natijaviy kuch:

$$F_{nat.} = Q(E_1 - E_2) = Ql \frac{dE}{dl}.$$

Harakatlantiruvchi $F_{nat.}$ kuch bilan bir yo'la dipolga aylantiruvchi moment M ham ta'sir qiladi va dipolni tashqi elektr maydonida aylantiradi. Agar vaqtning boshida dipol o'qi maydon yo'nalishiga perpendikulyar bo'lsa, u avval aylana boshlaydi, chunki $F_{nat.}$ Kuch bunda nolga teng, aylantiruvchi moment esa maksimal qiymatga ega, keyin dipol bir yo'la aylanib turib, maydonni kuchlanganligi eng katta joyga o'tadi. Dipol maydon bo'ylab orientirlangan vaqtga kelib aylantiruvchi moment nolga teng bo'ladi, harakatlantiruvchi kuch $F_{nat.}$ esa maksimal qiymatgacha ko'payadi.

Ponderomotor kuchi, N , tashqi elektr maydonni bir jinsli emasligi bilan shartlangan bo'lib, sharsimon dielektrik zarracha uchun:

$$F_p = 4\pi\epsilon_0 r^3 \frac{\epsilon_{r1} - \epsilon_{r2}}{\epsilon_{r1} + \epsilon_{r2}} E \frac{dE}{dx},$$

bu yerda: ϵ_{r1} va ϵ_{r2} -zarracha va muhitni nisbiy dielektrik singdiruvchanligi; r -zarrachani radiusi, m; Y_e -elektr maydonni kuchlanganligi, V/m; $\frac{dE}{dx}$ -elektr maydon kuchlanganligini maksimal o'zgarish yo'nalishidagi hosilasi.

$\epsilon_{r2} > \epsilon_{r1}$ -ligida kuch F_p manfiy ishorada bo'ladi va zarracha maydonni minimal kuchlanganlikka ega xududiga itarib chiqariladi; $\epsilon_{r2} < \epsilon_{r1}$ -ligida zarracha maydonni maksimal kuchlanganlikka ega xududiga harakatlanadi. Separatsiyalovchi mashinalarda bir jinsli bo'lmagan elektr maydon havo muhitida hosil qilinadi, bu muhit uchun $\epsilon_{r2}=1$, ponderomotor kuch

$$F_p = 4\pi\epsilon_0 r^3 \frac{\epsilon_{r1} - 1}{\epsilon_{r1} + 2} E \frac{dE}{dx}.$$


Elektr o'tkazuvchi zarrachalar uchun $\epsilon_{r1} \rightarrow \infty$ va:

$$F_p = 4\pi\epsilon_0 r^3 E \frac{dE}{dx}.$$

Bir jinsli elektr maydonda $dE/dx=0$ va, demak, ponderomotor kuch nolga teng. Bir jinsli bo'lmagan elektr maydonda ponderomotor kuch elektrodlar yonida o'zini bildiradi va ulardan uzoqlashgan sari kamayadi. Bunda ponderomotor kuchlar zaryadlangan va zaryadlanmagan zarrachalarga tahsir qiladilar.

Kulon, ponderomotor va ko'zguli ko'rinish kuchlarini natijaviy tahsiri bir jinsli bo'lmagan elektr maydondagi zarrachani harakatlanishini va orientatsiyasini belgilaydi. Ko'p xollarda Kulon kuchi asosiydir.

Elektr zaryadlab, keyin ajratiladigan zarrachalarni bahzilarini shakli sferadan farq qiladi. SHuning uchun keltirilgan ifodalar bo'yicha bajarilgan hisoblar qandaydir xatolikni beradi.




Rasm 1. Quruq to'kiluvchi aralashmalarni ajratadigan elektrstatik qurilmani sxemasi:

1-Bunker, 2- Lotok, 3- Ekstsentrik, 4, 5- Elektrodlar, 6- qabul qiluvchi jihoz, 7- Saqlagich, 8- To'g'rilagich, 9-Kuchlanishni ko'paytiruvchi transformator.

To'kiluvchi aralashma bunkerdan tushib kelib, harakatlanayotganda zarrachalar zaryadlanadi va elektr maydonga tushib, maydon tahsirida miqdori va ishorasiga qarab, pastga tushish yunalishi o'zgaradi, natijada qabul qiluvchi jihozni bo'limlari fraktsiyalarga ajratilgan zar-rachalar bilan to'ladi. Elektrodlar orasidagi kuchlanish 25-30 kV. SHunga o'xshash elektr separatorlari har qanday, zarrachalari sirpanishda zaryadlanadigan, to'kiluvchini sortlash uchun ishlatiladi. Separatorni unumdorligi lotokni kengligi va oralig'iga bog'liq.

Elektr separatorlarda va boshqa uskunalarda zarrachalarni elektrlashtirish uchun elektrostatik induksiya usuli deyiladigan usul ishlatilishi mumkin, bunda zarrachalar elektrod bilan kontaktlanganda zaryadlanadi yoki elektrod yenidan o'tganda zaryadlanadi. Bu usulda o'tkazuvchi kukunlar boshqa usullarga qaraganda kattaroq zaryad oladi. Dielektrik materiallar esa uni teskarisi. Bu usul suyuq materiallarni, masalan, emulg'siya va kraska va boshqalarni elektrlantirish uchun qo'llaniladi. Bunday materiallarni aerzollar deyiladi va ularni zaryadlab, cho'ktirishni aerzol texnologiyasi deyiladi. Bunday texnologiya o'simliklarni kimyoviy himoyalashda, urug'larni dorilashda, dorivor preparatlarni changlatishda, xonalarni havosini tozalash va dezinfektsiyalashda qo'llaniladi.



Rasm 2. Kontaktlab elektrlantiruvchi qurilma: 1-

bunker, 2-qiya sirt, 3-tsilindrsimon elektrod, 4-metall to'r, 5-sirtsimon elektrod.

qattiq va suyuq zarrachalarni cho'ktiruvchi elektrostatik qurilmalar-elektrofilg'rlar.

Atmosferaga sanoat chiqarib tashlaydigan chiqindilar. Ular katta hajmdagi gazlarni yuqori effektivlik bilan tozalash uchun ishlatiladi. Ko'p sanoat korxonalari (metallurgiya, kimyo, tsement, qurilish materiallari zavodlari, qozonxonalar va boshqalar) atrof muhitni ifloslovchi manbalardir. Ular atmosferaga katta miqdorda changqurum tomchilarini chiqarib tashlaydilar. Bu zarrachalarni havodagi tarkibi (havoda muallax turishi) har xil disperslilikka ega. Katta dispersli zarrachalar (o'lchamlari 1 mikrometrdan katta) gaz oqimidan mexanik filg'rlar bilan olib tashlanishi mumkin, bu filg'rlar tsiklon deyiladi. Mayda dispersli zarrachalar aerozollar deyiladi. Aerozollar gaz harakatini kichik tezliklarida ham muallax xolatda bo'lishadi. Bunday zarrachalarni gaz oqimidan elektr filg'rlari bilan olib tashlash eng effektivdir. Elektrostatik seperatorlardagi kabi bu yerdagi jarayon ikki bosqichga ega: zarrachalarni elektrlashtirish va ularni elektrostatik maydon yordamida yunalishini o'zgartirish.


Zarrachalar gaz oqimida muallax xolatda bo'lganligi sababli ularni qaysidir sirt bilan tuqnashtirish iloji yo'q, shuning uchun bu yerda kontaktli elektrlashtirish usuli ishlatilmaydi.

Ionli elektrlashtirish. Elektr filg'rlarda ionli elektrlashtirish usuli qo'llaniladi, bu usulda chiqarib tashlanayotgan gaz oqimidagi zaryadlangan zarrachalar aerozollar bilan tuqnashib, ularga elektr zaryadlarini berishlari mumkin va ular bilan teskari qutbli elektrodlanga elektr maydon kuchi bilan tortilishlari mumkin. Ammo bu jarayonda hosil buladigan tok (zarrachalarni elektrodlar tomon oqimi) gazdagi zaryadlangan zarrachalarni ozligi sababli juda kichik.

Toj razryad. Ionlashgan zarrachalarni sonini ko'paytirish uchun toj razryad hosil qilinadi va u elektron oqimini keskin ko'paytiradi. Toj razryad hosil qilgan shu elektronlar gaz oqimidagi aerozollar bilan tuqnashib, ularga elektr zaryadlarini beradi.

Toj razryad keskin bir jinsli bo'lmagan elektr maydonda hosil bo'ladi. Buning uchun elektrodlanga biri (tojlanuvchi) ikkinchisidan ancha kichik, masalan, ikkita konsentrik tsilindrlar tizimida, ularni radiuslarini nisbati 10-dan yuqori bo'lsa yoki sim-sirt tizimida. Bu xolda kichik elektrodni yaqinidagi elektr

maydonni kuchlanganligi katta va kuchlanganlik 15 kV/sm va yuqoriroq miqdorga yetganda, kichik radiusli elektrod atrofida gazni intensiv ionlanishi boshlanadi. Bu zona nurlana boshlaydi - toj razryadning boshlanishi.



Rasm 3. Elektrofilg'trda zarrachalarni elektrlashtirish va cho'ktirish sxemasi: 1- o'zgarmas **EYuK** manbasi, 2- gazdagi changni zarrachalari, 3- toj chegaralari, 4-tojlanuvchi elektrod, 5-cho'ktiruvchi elektrod, 6-elektronlar, 7-musbat ionlar, 8-manfiy zaryadlangan


ionlar.

Odatda tojlanuvchi elektrod 4-ga manfiy potentsial keltiriladi, tashqi (cho'ktiruvchi) elektrod 5-ga - musbat potentsial. Bu xolda aerazol'g' 2-lar cho'ktiruvchi elektrodga tortiladi. Tojning zonasi nisbatan kichik bo'lgani uchun ifloslangan gazni asosiy qismi toj 3 va cho'ktiruvchi elektrod 5 orasidan o'tadi. SHuning uchun ifloslarni eng ko'p qismi tashqi elektrodga cho'kadi.

Quruq va ho'l elektrofilg'trlar. Elektr filg'trlarni konstruksiyalari har xil bo'lishi mumkin. Gazlar oqimlarini yo'nalishiga qarab vertikal va gorizontal elektr filg'trlar mavjud. CHO'ktiruvchi elektrod konstruksiyasiga qarab trubkali va plastinkalilar mavjud. Elektrodلarga cho'ktirilgan zarrachalarni olib tashlash usuliga qarab elektr filg'trlar quruq va ho'l bo'ladilar. quruq elektr filg'trlarda elektrodلarga

o'tirgan zarrachalar siljitish yo'li bilan olib tashlanadi, yahni ular og'irlik kuchi tahsirida bunkerga tushadilar va keyin apparatdan chiqaradilar. Ho'l filg'trlarda elektrodلarga o'tirgan zarrachalar suv bilan yuvib tashlanadi.

Trubkali va plastinkali elektrofilg'trlar. Rasm 4,a-da vertikal trubkali elektrofilg'tr chizilgan.



Rasm 4. Trubkali (a) va plastinkali (b) elektrofilg'trlarni tuzilishi.

Filg'trga ko'paytiruvchi transformator-2 va to'g'rilagich 3-dan kuchlanish beriladi. Transformatorni kuchlanishi va, demak, filg'trni xarakteristikalarini rostlagich-1 yordamida o'zgartirish mumkin. Rasm 4,b-da plastinkali gorizontali filg'trni tuzilish sxemasi berilgan, unda tojlanuvchi qator elektrodlar-5 ikkita cho'ktiruvchi 4-elektrodlar oralig'iga osib qo'yilgan. Plastinkali elektrofilg'trlarda elektr maydon trubkalilardagiga qaraganda quvvatsizrok, ammo ularni tayyorlash osonroq va elektrodni silkitilishini tahminlash osonroq.

Elektrofilg'trlarni kupaytiruvchi transformatorlari ko'p xollarda 380 V-ga mo'ljallangan bir fazali qilib tayyorlanadi. CHiqish kuchlanish 80 V-gacha yetish mumkin. Hozirgi zamon elektr filg'trlarda, maxsuldorligiga qarab, 0,25 dan 2,5 ampergacha tokga mo'ljallangan tiristorli kuchlanish rostlagichlari o'rnatiladi. Elektrodlar oralig'idagi toj hosil qiluvchi kuchlanish (kV)-larda, empirik formuladan taxminan topilishi mumkin:

$$U_k = \pi \rho \left(1 + \frac{0,308}{\sqrt{\rho r_0}}\right) r_0 \ln \frac{2h}{r_0}, \quad (1)$$

bunda: ρ -tozalanayotgan gazni zichligi, kg/m³;

r_0 -tojlanuvchi elektrodni radiusi, mm;

h -elektrodlar orasidagi masofa, mm.

Tozalanish darajasi (%) zarrachalarni gazdagi dreyfini tezligiga (v_r , sm/s), cho'ktiruvchi elektrodni sirtiga (S , m²) bog'liq va quyidagi ifodadan topiladi:

$$\eta = (1 - e^{-\chi v_r S / V}) \cdot 100\%, \quad (2)$$

χ -zarrachalarni elektrofilg'tr kesimida taqsimlanishini notekisligini koeffitsienti;
 S -cho'ktiruvchi elektrodni sirti, m², V -gazni hajmiy sarfi, m³/s.

Elektr filg'trlarda gazni tozalanish darajasi energiyani sarfini ozligida (0,3 kVt/soat/ming m³) va filg'trda gazni bosimini deyarli yo'qotmay 99%-gacha yetishi mumkin. Zarrachalarni cho'ktiruvchi elektrod tomon xarakatini tezligi ularni o'lchamlari va elektr maydon kuchlanganligini kvadratiga proporsionaldir.

Demak, elektr filg'trda birinchi navbatda katta zarrachalar cho'kadi. Dreyfni tezligini maydon kuchlanishiga bog'liqligini kvadratik xarakteridan kelib chiqadiki, jarayonni maksimal mumkin bo'lgan kuchlanish, yahni uchqun razryad chegarasida olib borish foydalidir.


Gazlarni elektr filg'trlarda tozalash sifatiga cho'ktirilgan changni elektrodan olib tashlanishi tahsir qiladi. Gazni oqimiga cho'ktirilgan changni juda oz qismini qaytarilishi tozalanishni sezilarli yomonlashtiradi. Elektrodni silkitilishida zarrachalarni ajratib gaz oqimi ularni qayta olib ketishida, ularni

cho'ktirilgan qatlamdan yangi zarrachalar o'rnashishida urib chiqarilishida sodir bo'ladi. qayta olib ketishga elektrodni konstruksiyasi va boshqa faktorlar tahsir qiladi.

qayta olib ketishni kamaytirish uchun gazni bir oz turbulentlik va oqimni tekis taqsimlanishi bilan mahlum tezligini tahminlash kerak, silkitishda changni katta bloklar shaklida tashlash ham tahsir qiladi.

Elektrofilg'rlarni elektrodleri. Gazni tozalash darajasi tojlanuvchi elektrodleri konstruksiyasiga bog'liq, ular silliq va belgilangan tojlanuvchi nuqtalar bilan bo'lishi mumkin.

Tipik silliq elektrodler: diametri 2-4 mm-li dumaloq, tomonlari 3-4 mm-li kvadrat va shtiksimon tomonlari 4-5 mm kvadratga sig'adigan kesimli buladilar. Uzunligi bo'ylab tojlanuvchi nuqtalari



Rasm 5. Elektrofilg'rlarni elektrodleri: a-silliq tojlanuvchi, b-razryad nuqtalari belgilangan tojlanuvchi, v-cho'ktiruvchi.

belgilangan elektrodler eng kup tarkalgan: tikanli sim, arrasimon va yignali elektrodler. Yignalar orasidagi qadamni to'g'ri tanlansa (40-80 mm) yignali elektrodler toj razryadda istehmol kilinadigan eng katta quvvatni tahminlaydilar va, demak, tozalashni ham eng katta darajasiga erishiladi.

Elektrfilg'rlashdagi

zaryad-razryad

jarayonlari.


Elektrofilg'tr ishi jarayonida chang to'plamida zaryad to'planadi, chunki chang katta solishtirma qarshilikka ega, va zaryadni chang qatlamidan cho'ktiruvchi elektrodga oqib tushishi juda sekin kechadi. Elektrofilg'tr zonasida bu xolda musbat ionlar paydo bo'ladi, ular ishora buyicha toj razryadda xosil bo'layotgan ionlarga teskari. Yuqori omli chang qatlamidagi razryad jarayonlari teskari toj deyilib, gazlarni tozalash darajasiga sezilarli tahsir kiladi. Teskari tojni kuchsizlantirish uchun tozalanayotgan gazga mayda purkalgan suv, ammiak yoki boshqa reagentlar kiritiladi, bular gaz oqimini kondensatsiyalaydi. Bu esa chang qatlamini sirtqi va solishtirma elektr qarshiligini kamaytiradi va changni qayta olib ketilishini oldini oladi. Asosiy toj razryadni tojlanuvchi elektrodleri parametrlarini to'g'ri tanlangandagi tokini zichligini pasaytirish ham musbat effektga olib keladi.

Qator xollarda elektrofilg'trdan olib tashlanayotgan chang qimmat komponentlarga ega. Xususan, metallurgiya pechlari chiqarayotgan changda kumush, tsink, surg'ma, qo'rg'oshin, magniy va boshqalar mavjud. Bu elementlarni birikmalari sog'lik uchun zarar. Elektrofilg'trlar yordamida ularni ushlab qolish esa atrof muhitni iflos qilmaslikdan tashqari iqtisodiy foyda beradi.

Masalan, katta tsement zavodida elektrofilg'ir o'rnatilsa, bir sutkada bitta filg'ir 120 tonna tsement changi qayta tiklanadi (energiya sarfi 1,9 kVt·soat/t, bu esa bir tonna tsement ishlab chiqarishga sarflanadigan energiyadan unlab marta oz).

Absorbtsiya. Kimyoviy qo'shilmalardan gazlarni tozalash uchun asosiy usullar: absorbtsiya - gazlarni suyuqliklar bilan yuvganda yutilishi; adsorbtsiya - qattiq jismlar bilan yutilishi; kimyoviy birikmalarning gaz xolatidan qattiq yoki suyuq xolatiga o'tishi va keyin hosil qilingan maxsulotlarni chiqarib tashlash. Bu usullarda elektr va magnit xodisalari ishlatilishi mumkin. Masalan, *katoddagi sorbtsiya effektlari* - qattiq jismlarni adsorbtsiya xususiyatlarini yuqori chastotali elektr razryadini elektronlar oqimini tahsirida oshirilishi - juda toza gazlarni olish uchun, tseolitlar va boshqa adsorbentlarni sig'imini ancha oshirish uchun qullaniladi. Yuqori chastotali razryadlarni elektronlar oqimi tahsirida adsorbentlarda adsorbtsiyani radiatsion markazlari faqat tashqi sirtida emas, ichida ham hosil bo'ladi. Bu esa ularni adsorbtsiya xususiyatlarini ko'paytiradi.

Elektroforez. Adsorbentlarni yutish xususiyatlarini *elektroforez* yordamida oshirish mumkin. Elektroforez - bu tozalanayotgan gazni elektr razryadi tahsiriga qo'yish. Elektr maydon tahsirida gazdagi qo'shilmalar katod tomon siljiriladi. Natijada katod zonasida qo'shilmani yuqori kontsentratsiyasi hosil bo'ladi. Agar bu zonaga qaysidir adsorbent qo'yilsa, gazdan olinayotgan qo'shilmalar miqdori ko'payadi. Elektroforez xodisasi amalga oshiriladigan qurilmani printsiptial sxemasi rasm 6-da keltirilgan.



Rasm 6. Gazni tozalaydigan qurilmani sxemasi.

Tozalanaetgan gaz idish 1-dan razryad trubkasi 2-ga uzatiladi. Trubkada razryad hosil qilingandan keyin qo'shilma komponentlarini katod tomon harakati boshlanadi. Ularni idishdagi kontsentratsiyasi

adsorbktiv va adsorbat 3 orasida muvozanat hosil bo'lguncha pasayib boradi.

Har xil ishlab chiqarishlarni gazlarini tozalash. Gaz tarkibidagi suyuq xolatdagi kimyoviy qo'shilmalar (tuman yoki kondensatsiyalangan parlar shaklida) elektrofiltrlar yordamida olib tashlanadi. Masalan, tsink zavodlarini kuydiruvchi pechlaridan chiqadigan gazlarda SO_2 , O_2 va N_2 -lardan tashqari par xolatida mishg'yakni birikmalari (As_2O_3), selen birikmalari (Se va SeO_2), oltingugurt angidridi SO_3 bo'ladi. Sulg'fat kislotasini tumanini va bu bilan bir qatorda mishg'yak va selenni qo'shoksidadan kondensatsiyalangan parlarini ushlab qolish uchun gazlarni yuviladigan minoradan ho'l elektrofilg'irlarga yuboriladi. Elektrofilg'irlarni ikkinchi pog'onasidan keyin gazlar tarkibida amalda mishg'yak qolmaydi, sulg'fat kislotani tumanini miqdori esa $0,005 \text{ g/m}^3$ gacha pasayadi.

Mis erituvchi zavodlarni kuydiruvchi pechlarini gazlari avval mexanik filg'irlarda tozalanadi, keyin esa quruq gorizonta elektr filg'irlarda ($300-400^\circ\text{S}$) da tozalanadi.

Mis-oltingugurt zavodlarini gazlari (tarkibida SO_2 , oltingugurt va uning har xil birikmalari- SOS , CS_2 , H_2S bo'ladi) yuqori haroratga ega bo'ladi ($400-500^\circ\text{S}$) va qo'pol changlardan kameralarda tozalangandan keyin quruq elektrofilg'rlarda tozalanadi. Bu elektrofilg'rlarni cho'ktiruvchi va tojlanuvchi elektrodleri yuqorixromlangan (Cr 25-26%) po'latdan tayerlanadi, ular yuqori haroratdagi elementar oltingugurtni tahsiriga dosh beradilar.

Alyumin va magniy ishlab chiqarishlarining gazlarida ko'p zararli qo'shilmalar mavjud. Masalan, alyuminiyni elektrolitik usulda olishda vannalardan chiqadigan anod gazlarida ftorli vodorod, oltingugurtli gaz, uglerod oksidi hamda chang va qatronli pogonlar mavjud. Oxirgilarida kantserogen modda bo'lgan benzopiren mavjud.

Elektrolizerlarni gazlari chang va qatronli moddalardan qo'shkamerali gorizonta elektrofilg'rlarda tozalanadi va keyin kuchsiz soda eritmasida yuviladi.

SHunday qilib, gazlarni elektr usullarida tozalash sanoatni hamma soxalarida gaz oqimlaridan muallax xolatdagi chang va qo'shilmalarni yuqori samara bilan tozalashga imkon beradi. *Elektronion texnologiya uskunalarini manbaalari va ekspluatatsiya qilish xususiyatlari*. Elektronion texnologiya uskunalarini ko'pchiligi uchun ish kuchlanishi bir necha o'n kilovolg't bo'lgan o'zgarmas tok manbaalari ishlatiladi. Faqat dielektrik separatsiya uskunalarida o'zgaruvchan tok qo'llaniladi. Yuqori kuchlanish manbaalari stabillikni va chiqish kuchlanishni tekis rostlanishini, yuqori **FIK**-ni, ishonchlilikni, ixchamlilikni, tejamlilik va ishlatishda havfsizlikni tahminlashlari kerak.

Statsionar uskunalarda birlamchi manbaa sifatida sanoat chastotasidagi 380/220 V-li tarmoqdan, mobillarda esa – akkumulyator batareyalari yoki o'zgarmas tokni past kuchlanishli generatorlaridan foydalaniladi.

Ikkilamchi manbaa elektr energiyasini o'zgarmas va o'zgaruvchan kuchlanishini talab etilgan qiymatini, zanjirlarni birlamchi manbaadan elektr izolyatsiyasini va chiqish kuchlanishni stabilligini tahminlab, o'zgartiradi (ko'pincha ko'p marta).

Ko'paytiruvchi transformator – yuqori volg'tli to'g'rilagichlarni eng katta elementi. Kuchlanish qancha yuqori bo'lsa, uni o'lchamlari shuncha katta va chulg'amlarni izolyatsiyasini bajarish murakkab. SHu tufayli to'g'rilagichlarda kuchlanishni ko'paytirish sxemalari qo'llaniladi, ular chiqishda transformatorni ikkilamchi chulg'amidagi kuchlanishdan ancha katta kuchlanish olishga imkon beradilar. Bunday sxema kuchlanishni ikki marta ko'paytirish sxemasi,

ko'paytiruvchi kaskadlarni soni hisobiga chiqishda ancha yuqoriroq kuchlanish olish mumkin.

Elektron-ion texnologiya uskunalari to'g'rilagichlarini sxemalari qisqa tutashuvlar va yuqori kuchlanishni yo'qolishidan himoyaga hamda kuchlanishni va yuklama tokini nazorat qiluvchi o'lchov asboblari ega bo'lishlari kerak. Bu apparatlarni manbaalari kuchlanishi 1 kV-dan yuqori jihozlarga qaraydi. Ular bilan ishlashga maxsus tayyergarlikdan o'tib, havfsizlik texnikasidan uchinchidan kam bo'lmagan tasnifiy guruhiga ega xodimlar qo'yiladi. Odamlarni elektr tokidan shikastlanishidan himoyalash uchun yuqori volg'tli manbaalar himoyaviy qobiqqa joylashtiriladi va zaminlanadi, to'siqlarni xolatini, tuynuk va eshiklarni yopilishini nazorat qilib, blokirovkalaydigan o'chirgichlar ko'zda tutiladi. Uskunalarini yuqori kuchlanish ostidagi elementlari kuchlanish olingandan keyin ularni yerga ulaydigan avtomatik jihozga ega bo'lishlari kerak.

Nazorat savollari:

1. Elektrotexnologiya nima? Tahriqlang.
2. Elektrotexnologiyani rivojlanishiga nima sabab bo'lgan?
3. Elektr energiyasini energiyani boshqa turlariga o'zgartirish usullarini ayting.
4. Elektrostatik maydon qanday ishlovlarda qo'llaniladi?
5. O'zgarmas magnit maydon qanday ishlovlarda qo'llaniladi?
6. O'zgarmas va sanoat chastotasidagi o'zgaruvchan tok qanday ishlovlarda qo'llaniladi?
7. Elektrostatik qurilma nima?
8. Elektron-ion yoki aerosol texnologiya nima?

2-Mavzu:Suspenziya

Reja

1. Suspenziya tushunchasi. Suspenziya va kolloidlarni bo'lish. Magnit qurilmalar va ularni qo'llash tushunchasi.
2. Elektromagnit se'aratorlar haqida tushuncha. Suvga magnit ishlov berish qurilmalari.
3. Magnitli im'uls qurilmalari. Qurilmani 'rintsi'ial sxemasi va ish 'rintsi'i. Magnitli ishlov berish turlari.

Suspenziya va kolloid eritmalarini suvsizlantirish. Elektroforez va elektroosmos. Suvni elektroosmos bilan tozalash. Kaolinni elektroosmos bilan tozalaydigan mashina. Kauchukni cho'ktiradigan apparat. Elektrostatik bo'yash usuli. Oziq ovqatlarni elektr dudlash va baliqni panirovkalash uchun elektrostatik qurilmalar.

Suspenziya va kolloid eritmalarini komponentlarga bo'ladigan elektrostatik qurilmalar.


Suspenziya va kolloid eritmalarini suvsizlantirish.

Yaxshi titrlanmaydigan kolloid eritma va suspenziyalarni suvsizlantirish uchun qo'llaniladi: suvni va meva sharbatlarini tozalash, moyli suvli emulg'siyalarni ajratish, kauchukni lateksdan cho'ktirish, terini mustahkamlash, gazmollarga har xil eritmalar shimdirish, kaolinni suvsizlantirish va boshqalar.

Elektroforez va elektroosmos. Elektrostatik maydonga qo'yilgan kolloid eritmalarida kolloid zarrachalarni elektrodlarni biri tomon va suyuqlikni oqimiga teskari tomon harakati kuzatiladi. Kolloid zarrachalarni elektrostatik maydonda siljitish va ajratish jarayoni elektroforez deyiladi. Kolloid eritmani hajmini zarrachalarni o'tishiga xalaqit bo'ladigan, ammo suyuqlikni o'tkazadigan to'siq bilan bo'linsa, elektroosmos xodisasi kuzatiladi. Bu xolda suyuqlik elektrostatik maydonga quyilgan eritmani bir qismidan ikkinchi qismiga o'tadi.

Elektroosmos va elektroforezni elektrostatik xodisalari quyidagicha tushuntiriladi. Ikki xil faza - qattqlik va suyuqlik chegarasida, yoki aralashmaydigan suyuqliklar, yoki suyuqlik va gaz chegarasida qo'sh elektr qatlam hosil bo'ladi. qattiq suyuq yoki gazsimon fazani sirtida molekulalar yoki ionlar adsorbtsiyalanadi va elektrolitda kationlar yoki ikki qutbli molekulalar qatlamini hosil qiladi. Zaryadlangan zarrachalar elektr maydonda teskari qutbli elektrodlar tomon harakatlana boshlaydilar.

Suvni elektroosmos bilan tozalash. Elektroosmotik tozalash suvdan erigan tuzlar, kolloid zarrachalar va suspenziyalarni chiqarish uchun qo'llaniladi. Bu usul bilan bir litrda bir necha yuz milligramm quruq qoldiqga ega suvni tozalash va juda oz aralashmali toza suvni olish mumkin.



Rasm 7. Suvni elektroosmos usuli bilan tozalaydigan qurilmani alohida katakchasini sxemasi.

Suvni elektroosmotik usulda tozalaydigan qurilma o'nta va undan ko'proq ketma-ket ulangan alohida yacheykalardan iborat.

Har bir yacheykani anod 1, katod 2 va o'rta 3 bo'limlarga ajratadigan ikkita diafragma 8-ga ega. Tozalash uchun mo'ljallangan suv 4 quvurlardan birinchi yacheykani uch bo'limining pastki qismiga keladi. O'rta bo'limdan suv 5 chi quvurdan qurilmaning ikkinchi yacheykasiga uzatiladi va xokazo. qurilmaning oxirgi yacheykasidan suv tozalanib chiqadi. Eritma tarkibidagi Na_2SO_4 , CaSO_4 , CaHSO_3 va boshqa tuzlar N^+ , Sa^+ , Na^+ kationlarga va ON^- , SO_4^- , HSO_3^- anionlarga dissotsiyatsiyalanadi. Kationlar katod tomon harakatlanadi, anionlar – anod tomon. Katod bo'limlarida suv ishqorlanadi, anod bo'limlarida esa sho'rlanadi. Katod va anod bo'limlaridan suv 6 va 7-chi quvurlardan chiqariladi. qurilma uchun diafragmalar keramikadan, pergamentdan, zamshadan va shunga o'xshash narsalardan tayyorlanadi.


Suvni elektroosmotik tozalaydigan qurilmalar soatiga 20, 80 va 200 litr suvni tozalashga mo'ljallangan bo'ladi. Yacheykalarga kuchlanishi 110 va 220 volg't bo'lgan elektr toki keltiriladi. O'nta yacheykadan iborat qurilmada kuchlanish quyidagicha taqsimlanadi: to'rt yacheykadan iborat birinchi guruhda 55 V kuchlanish pasayadi, uch yacheykali ikkinchi guruhda – 70 V, ikki yacheykali uchinchi guruhda – 110 V va bir yacheykadan iborat to'rtinchi guruhda – 220 V. Har guruhda yacheykalar ketma-ket ulanadilar, guruhlar esa – parallel. Elektr energiyasini sarfini (kVt·s) empirik formula bilan taxminan hisoblash mumkin:

$$W = 2,5qU \cdot 10^{-3}, \quad (3)$$

bunda: q -quruq qoldiqni miqdori, tozalanayotgan suvni 1 litriga mg miqdorida; U -bitta yacheykadagi kuchlanish, V.

Bir kubometr suvni tozalash uchun suvni qattiqligiga qarab 15 kVt·soatgacha energiya sarflanadi. 200 l/s quvvatga ega suvni elektroosmotik tozalash qurilmasining o'lchamlari $2,5 \times 2,0 \times 1,5$ m.

Kaolinni elektroosmos bilan tozalaydigan mashina. Sanoatda kaolinni tozalab, suvsizlantirish uchun elektroforez keng qo'llaniladi. Kaolinni kvarts, slyuda, pirat va boshqa qo'shilmalardan tozalash uchun suyuq shisha yoki kuchsiz ishqor qo'shiladi, tindirilgandan keyin qo'pol zarrachalarni olib tashlanadi. Hosil qilingan suspenziyani osmos mashina elektrodleri orasidan o'tkaziladi.




Rasm 8. Kaolinni tozalaydigan osmos-mashina sxemasi.

Kaolinni zarrachalari mashinada manfiy zaryad olishadi va anodga o'tishadi. Kvarts va boshqa qo'shilmalar musbat zaryad olib, katodga o'tishadi.

O'zgarmas tok ta'sirida kaolinni kolloid zarrachalari anod sirti qoplangan filg'trlovchi tasmaga o'tiradi. Suv esa qo'shilmalar bilan katod havzasidan chiqarib yuboriladi. Anodga qoplangan tasmada namligi 35%-gacha bo'lgan toza kaolin yig'iladi. Bir tonna kaolinni tozalash uchun 15-dan 40-gacha kVt-soat elektr energiya sarflanadi.

Kauchukni cho'ktiradigan apparat. Kauchukni emulg'siyalaridan (lateksidan) elektroforetik yo'l bilan cho'ktirish usuli keng qo'llaniladi. Elektr maydonda kauchuk manfiy zaryad oladi va elektroforez jarayonida anod tomon harakatlanadi. Kauchukni elektroforetik cho'ktirish maxsus konstruksiyali apparatlarda yoki osmos mashinada bajariladi.

Lateks to'ldirilgan birinchi vannada roliklarda chek




Rasm 9. Kauchukni cho'ktiradigan apparatni sxemasi. siz metall to'r (setka) harakatlanadi. U anoddir. Katod 2 vanna quyi qismida joylashtiriladi. To'rga cho'ktirilgan kauchuk suv oqimlari 3 bilan yuviladi va qurituvchi stol 4-da qo'ritiladi va quritilgan kauchuk 5 to'rdan pichoq 6 bilan olinadi.

Elektroforez yordamida suvga bardosh gazmollar tayyorlanadi, metall buyumlarni kauchuk bilan qoplanadi va hokazo.

Metall buyumlarni bo'yaydigan elektrostatik qurilmalar.

Elektrostatik bo'yash usuli. Buyashni yoki emallashni elektrostatik usuli quyidagidan iborat. Buyashga mo'ljallangan metall buyumlar yerga ulangan konveyerga osib qo'yiladi (rasm 10).



Rasm 10. Metall buyumlarni toj razryad elektr maydonida avtomatik bo'yaydigan qurilmani sxemasi:

1-yuqori volg'tli transformator; 2-moyg'li avtomatik uzgich; 3-to'g'rilagich; 4-tojlanuvchi elektrodlar; 5-izolyatorlar; 6-bo'yoqni pnevmatik changlatkichini uchi; 7-konveyerdagi buyalayotgan buyum; 8-konveyer; 9-havo so'rish jihozili changlatkich kamera.

Konveyer changlatuvchi kameradan o'tadi, unda tojlanuvchi elektrod-rama 4-lar joylashtirilgan bo'ladi. Bu elektrodlar yuqori kuchlanish manbasini (150 kV-gacha) manfiy qutbga ulanadi, musbat qutb esa yerga ulanadi. Elektrodlarda yuqori kuchlanganlik gradienti hosil qilinadi va, demak, simlar atrofida nurlanuvchi toj hosil bo'ladi, bu ionlar intensiv hosil bo'lishini ko'rsatadi. Musbat ionlar manfiy elektrod tomon siljiydi, manfiy ionlar esa buyalayotgan buyumlar tomon

harakatlanadi, chunki ular elektr maydonida musbat zaryad qabul qilishadi. Elektrodlar va kichik tezlikda harakatlanayotgan buyumlar orasiga mayda changlatilgan material (buyoq, emal, glazur va boshqalar) oqimi yo'naltiriladi. Bu materialni mayda zarrachalari ionlar bilan to'qnashib, ularni adsorbtsiyalantiradi va ion zaryadini ishorasiga mos zaryad qabul qilishadi. Buyovchini zaryadlangan zarrachalari elektrostatik maydon kuchlari tahsirida buyumlarni sirti tomon harakatlanadi, chunki ular yerga ulangan konveyerga osilgan. Bu zarrachalar olingan zaryadni topshirib, buyumlarga yopishadilar va ularni zich qatlam bilan qoplaydilar.


Oziq ovqatlarni elektr dudlish va baliqni panirovkalash uchun elektrostatik qurilmalar. Ish printsipli va tuzilishi bo'yicha buyumlarni bo'yaydigan elektrostatik qurilmalarga o'xshash. Ammo oziq-ovqatlarga ishlov berish texnologik jarayonlari murakkabroq va o'z ichiga boshqa elektrotexnologik operatsiyalarni oladi, xususan maxsulotni infraqizil nurlar bilan isitish, quritish va dimlash. Bunga qaramay, anhanaviy jarayonlarga qaraganda ishlab chiqarish jarayoni 10-lab marta tezlashadi, maxsulotni sifati yaxshilanadi va qayta ishlashda sarflar kamayadi.

Elektr impulg'slar texnikasi

Elektr impulg's jarayonlarni umumiy sxemasi va elektr impulg'slarni parametrlari. Elektr to'siqlar. Elektrgidravlik effekt.

Elektr impulg's jarayonlarni umumiy sxemasi va elektr impulg'slarni parametrlari. Elektr impulg's texnologiyasi energiyani obhektga kiritishni yuqori tezligi bilan xarakterlanadi va manbaani nominal quvvatidan ancha yuqori quvvatdagi qisqi tahsir qilishga imkon beradi.

Elektr impulg's texnologiya jarayonlarini umumiy sxemasi (rasm 14.1) o'z ichiga ishlov oluvchi obhekt IO va manbaadan energiya istehmoli hamda uni obhekt tomonidan qo'llanilishini meyorlaydigan elektr impulg'slar generatori GI-ni oladi.



Rasm 14.1. Elektr impulg's texnologiya jarayonlarini umumiy sxemasi: GI-impulg'slar generatori; EM-energiya manbaasi; IO-ishchi organ; IO-texnologik obhekt (ishlov oluvchi).

Kuchlanish yoki tok kuchini davomiyligi va maksimal qiymati – elektr impulg'slarni asosiy parametrlari. Elektr impulg's texnologiyasida odatda

qaytarilish chastotasi va siyrakligi bilan xarakterlanadigan impulsg'nlarni davriy ketma-ketligidan foydalaniladi. Impulsg'nlarni siyrakligi

$$q = T_i/\tau_i,$$

bunda T_i -impulsg'nlarni qaytarilish davri, s; τ_i -impulsg'ni davomiyligi, s.

qaytarilish chastotasi

$$f = 1/T_i = 1/q\tau_i.$$

Agar $T_i \gg \tau_i$ bo'lsa, ishlov obhektiga davriy emas, yakka impulsg'nlar tahsir qiladi deb hisoblanadi.

Elektr impulsg's texnologiyasini ishlov obhektlari – har qanday fazoviy xolatda (suyuq, gazsimon, qattiq) bo'lishi mumkin bo'lgan ishchi muhit hamda biologik obhektlar (hayvon va o'simliklar).

Elektr to'siqlar. qishloq xo'jalik hayvonlarini o'tlatib boqish, yozgi lagerlarni to'sish, hayvonlar o'tadigan yo'l tayyorlash, o'tlarni, silosli va texnikaviy ekinlarni urug'lik qismlarini poyxon qilinishini oldini olish uchun elektr to'siqlardan foydalaniladi. Ularni jihozlarini komplektiga diametri 1...1,5 mm bo'lgan yog'och yoki metall tayanchlardagi izolyatorlarga mahkamlangan po'lat sim; sim va yer o'rtasida yuqori kuchlanish impulsg'nlarni hosil qiluvchi generator; manbaa - quruq elementlar yoki akkumulyatorlar batareyalari. Agar to'siq o'rnatiladigan joyda chastotasi 50 Gts bo'lgan tarmoq mavjud bo'lsa, uni birlamchi manbaa sifatida qo'llaniladi.

Hayvon simga tekkanida elektr impulsg'nlar generatori uchun yuklama zanjiri hosil bo'ladi. Bunda tanadan qisqa elektr toki oqib o'tadi – bu hayvonlarni to'siqdan qo'rqitib haydaydigan elektr zarba xissiyoti. Kuchlanishni impulsg'li berilishini sababi shuki, impulsg'nlar oralig'idagi vaqtda hayvon simga tegib turishdan ozod bo'lib olishi kerak. O'zgarmas va o'zgaruvchan tokni yuqori kuchlanishini uzluksiz berilishi hayvonlarni to'siqqa tekkanda halok bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Elektr to'siq ishini effektivligi katta meyorda impulsg'nlarni parametrlari bilan aniqlanadi. Generatorni salt yurishidagi kuchlanish impulsg'nlarni amplituda qiymati 10...15 kV bo'ladi. Hayvonlar simga tekkandi kuchlanish keskin 40...160 V-gacha pasayadi va tanadan o'tayotgan tok ko'payadi. Impulsg'nlarni hosil bo'lish chastotasi yaqin 1 Gts-ga teng, 500 Om-lik yuklamadagi tok kuchini maksimal qiymati 0,15...10 A, impulsg'nlarni davomiyligi – bir necha o'n millisekund. Impulsg'dagi elektrni miqdori 2,5...3 mKl-dan oshmasligi kerak.

Elektr to'siqlar uchun impul'g'slar generatorlarini ish printsipli kondensatorda energiyani to'plab, keyin uni ko'paytiruvchi transformator **TV**-ni birlamchi chulg'amiga yoki to'g'ridan-to'g'ri to'siqni simiga razryadlantirishga asoslangan.

Transformator chiqishli generatorlarda to'plovchi kondensator **S** o'zgaruvchan tok to'g'rilagichi **VD** yoki galg'vanik elemenlar **GB**-dan tokni cheklovchi rezistor **R** orqali zaryadlanadi. Kondensator mahlum kuchlanishgacha zaryadlanganda kommutatsiyalovchi uskuna **KI** ishlaydi. Bunda transformator **TV**-ni birlamchi chulg'ami ω_1 -dan razryad tokini impul'g'si oqadi. Ikkilamchi chulg'am ω_2 -da yuqori kuchlanish impul'g'si paydo bo'ladi va u to'siq simiga beriladi. Zaryadlovchi va razryadlovchi zanjirlarni galg'vanik yechish uchun kommutatsiyalovchi uskuna kontaktli (elektromagnit) va kontaktsiz (elektron, ion, yarim o'tkazgichli) elementlarda bajariladi.

To'g'ridan-to'g'ri chiqishli generatorlarda zaryadlovchi uskuna **VD2** to'g'rilagich orqali to'plovchi kondensator **S2**-ni zaryadlaydigan yuqori kuchlanishli impul'g'slar generatoridir (**R**, **C1**, **KI**, **TV** elementlari). Undagi kuchlanish kommutatorni ishlaydigan miqdoriga yetganda razryadnik **F1** to'siq simini to'plovchi kondensatorga ulab qo'yadi.

Impul'g'slar generatorlari avtotebranish yoki kutuvchi rejimlarda ishlaydilar. Avtotebranish rejimida yuqori volg'tli impul'g'slar to'siq simiga uzluksiz keladilar, kutuvchida – faqat hayvonlar simga tekkanda. Kutuvchi rejim hosil qilish uchun impul'g'slar generatorlari sxemalarida boshqariluvchi elektron va yarim o'tkazgichli (tiratronli, tranzistorli, tiristorli va b.) kalitlar ishlatiladi.

Impul'g'slar generatorlariga texnik xizmat ko'rsatish ularni ishga ulash, tanaffuslarda o'chirish va impul'g'slarni chastotasini nazorat qilishdan iborat. Uskunalarni joriy tahmirini texnik havfsizligi bo'yicha tasniflash guruhi uchinchidan kam bo'lmagan elektrik bajaradi.

Elektrgidravlik effekt. Elektr energiyani mexanik energiyaga suyuq muhitda yuqori volg'tli razryad yordamida o'zgartirishga, elektrogidravlik effektga asoslangan usullar guruhi - texnologik obhektga elektr impul'g'slar bilan tahsir etishni bir turidir.

Elektrogidravlik uskuna sxemasi o'z ichiga ko'paytiruvchi transformator **TV**, ventilig' **VD1**, tokni cheklovchi rezistor **R**, to'plovchi kondensator **C1**, havoli razryadnik **F1** va suyuqlikdagi ishchi elektrodlararo oraliq **F2**-ni oladi. Kuchlanish ulansa kondensator zaryadlanadi. Undagi kuchlanish havo oralig'ini teshadigan qiymatga yetganda, teshilish sodir bo'ladi va yuqori kuchlanish ishchi oraliqqa keladi. Natijada razryadni tok o'tkazuvchi plazmali kanali hosil bo'ladi. Razryad

kanalidagi yuqori harorat (40000°S-gacha) gazbug' bo'shliqni paydo bo'lishiga ko'maklashadi. Plazmani qizishi bosimni oshishi va razryad kanalini kengayishiga olib keladi. Suyuqlikni suyuqlanishi kichikligi tufayli gazbug' bo'shliq ichidagi bosim $(1...1,5)10^3$ MPa-ga yetadi. Yuqori bosimni hosil bo'lishi va razryad kanalini tezda ko'payishi atrofdagi suyuqlikda zarba to'liqini hosil qiladi. Zarba to'liqini frontidagi bosim impulsg'sini quvvati minglab marta manbaa quvvatidan oshiq. Tok kuchini maksimal qiymati 250 kA-gachaligida 200 MVt-gacha oniy quvvat hosil bo'ladi va impulsg's energiyasi 10^6 Dj-gacha yetadi. Kondensatorda to'plangan energiya razryad oralig'ida mexanik, issiqlik, nurlanish va boshqalarga o'zgartiriladi.

Tokni oqish xarakteri bo'yicha razryadlar nodavriy, agar tokni yo'nalishi razryad jarayonida o'zgarmasa, va davriy, agar tebranish kuzatilsa, bo'lishi mumkin. Razryad konturini qarshiligini kamaytirishni davom ettirilsa davriyga o'tadigan chegaraviy nodavriy razryadni kritik deyiladi. Kritik razryad uchun:

$$R = 2\sqrt{L/C},$$

bunda R , L , va C -razryad konturini qarshiligi, Om; induktivligi, Gn va sig'imi, F.

Uzunligi l , m, bo'lgan razryad oralig'ini qarshiligi, Om, razryad jarayonida keskin kamayadi va tok kuchini maksimal qiymatiga to'g'ri keladigan vaqt uchun:

$$R = 4,4 \cdot 10^7 l I_{\max}^{-1,5}.$$

Maksimal tok:

$$I = 1/2 U_z \sqrt{C/L},$$

bunda U_z -kondensatorni razryad boshlanishidagi kuchlanishi, V.

Razryad kanalidagi maksimal quvvat, Vt:

$$P_{\max} = I_{\max} R_{\max}.$$

Razryad kanalida hosil bo'ladigan maksimal bosim, kPa:

$$P = 82 U_z / \sqrt{LI}.$$

Elektrogidravlik uskunani kondensatorlari to'plagan energiya, Dj:

$$W = CU_z^2/2.$$

Zaryadlovchi zanjirni o'rta quvvati:

$$\epsilon = \frac{CU_3^2}{2} f \frac{1}{\eta_3},$$

bu yerda: f -impulsg'aslarni kelish chastotasi, Gts; η_z -zaryadlovchi zanjirni **FIK**-i.

Aktiv qarshilikli zaryadlovchi zanjirni **FIK**-i 50%-dan oshmaydi, induktiv va sig'imiyl qarshiliklilarniki esa 65%-dan.

Elektrogidravlik effekt asosiy tahsir etuvchi omil - bosimni keskin oshishi bo'lgan texnologik jarayonlarda qo'llaniladi.

Elektrogidravlik maydalagichda ohakli va fosforit o'g'itlar maydalanadi, elektroimpulsg's nasoslar esa aylanuvchi qismlarga ega emas, oddiylilik va ishini yuqori ishonchliligi bilan ajralib turadi.

Elektrogidravlik effektini bakteritsid tahsiri borligi tufayli uni suvga, sutga, fermalarni chiqindii suvlari va boshqa suyuqliklarga ishlov berish uchun ishlatiladi. Yuqori volg'tli razryadlar bilan ishlov berilgan suv bilan o'simliklarni sug'orilsa, hosildorlik oshadi. Junni yuvishga mo'ljallangan elektrogidravlik uskunalar yuvish sifatini oshirib, mehnat sarfini bir necha martaga kamaytiradi. Suvdagi yuqori volg'tli razryad artezian quduqlarni filg'trlarini tozalash uchun ishlatiladi, bu ularni debitini oshiradi.

Tahsir mexanizmi elektrogidravlik effektga o'xshash bo'lgan tuproq va o'simliklarga ishlov berishni elektr impulsg'sli texnologik jarayonlari ishlab chiqilgan.

Magnit va magnitli impulsg'slar bilan ishlov berish qurilmalari **Magnit qurilmalar va ularni qo'llash.**

Magnit qurilmalar va ularni qo'llash. Elektromagnit separatorlar. Suvga magnit ishlov berish qurilmalari.

Magnit qurilmalar va ularni qo'llash. Magnit qurilmalari oziq-ovqat va boshqa materiallarni ferromagnit qo'shilmalardan tozalash, suvga magnit bilan ishlov berish, magnitoabraziv silliqdash va tekisdash, issiqlik almashadigan apparatlarni cho'kmalardan tozalash va boshqa ishlar uchun keng qo'llaniladi. Materiallarga magnitli impulsg'slar bilan ishlov berish intensiv kiritilmoqda: detallarga shakl berish, ularni qisish, yig'ish, teshiklarni chopish, elektr payvandlash va boshqalar.

Materiallarni ferromagnit qo'shilmalardan tozalash yuqori sifatli maxsulot olish uchun va texnika havfsizligi talablarini bajarish uchun, metall qismlarni ishlov berish mashinalarini ishchi organlariga tushishini oldini olish, portlash xavfi bor muxitlarda uchqun bo'lishini oldini olish va boshqalarga imkon beradi. Bu

maqsadlarda oziq-ovqat, kimyo, to'qimachilik, tog' va sanoatni boshqa soxalaridagi xomashhyo va maxsulotlarni uzatadigan transport va oqim liniyalarida magnit ushlovchilar o'rnatiladi, ular doimiy magnitlar yoki doim ishlaydigan magnit separatorlardir. Konstruktsiya bo'yicha doimiy taqasimon magnitli magnit ushlovchilar eng oddiydir Ushlovchi qism qator taqasimon magnitlar shaklida bo'lib material uzatuvchilarga, mustaqil oqizadigan trubalar, dozatorlar tagidagi konuslar va boshqalarda o'rnatiladi.

Magnit ushlagichlar qator kamchiliklarga ega, masalan, magnitlarga yopishgan ferromagnit qo'shilmalarni qo'lda tozalashga to'g'ri keladi. Doimiy magnitlarni tortish kuchi yetarli emas, bu kuch ishlagan sari kamayib boradi. SHuning uchun magnitlarni davriy tekshirish va yuk ko'tarish imkonini tiklash uchun magnitlash zarur bo'ladi.

Elektromagnit separatorlar. Magnit maydonda separatsiyalash ajratilayotgan fraktsiyalarni turli magnit xususiyatlariga asoslangan. Ular magnit maydonda massasi 1 kg bo'lgan zarrachaga tahsir qilaetgan magnit kuch F_{mag} , N/kg, bilan aniqlanadi:

$$F_{mag} = \mu_0 \chi \gamma H \frac{dH}{dx},$$


bunda: μ_0 -magnit doimiysi, Gn/m ($\mu_0=4\pi 10^{-7}$); χ -moddani magnit qabul qiluvchanligi; γ -maddani solishtirma hajmi, m³/kg; H -magnit maydonni kuchlanganligi, A/m; $\frac{dH}{dx}$ -magnit maydonni x yo'nalishida davomiyligi dx qismdagi kuchlanganligini gradienti, A/m².

Separatsiyalanishda ferromagnit zarracha magnitli va boshqa kuchlarni (og'irlik, ishqalanish, makazdan qochuvchi va sh.o'.) tahsiriga tushadi, ularni natijaviy tahsiri zarrachani ishchi zonadagi siljishini belgilaydi:

$$F_{nat.} = ma = F_{mag.} + \Sigma F,$$

bu yerda: $F_{nat.}$ -zarrachaga tahsir etuvchi hamma kuchlarni natijaviysi, N; m -zarrachani massasi, kg; a -zarrachani tezlanishi, m/s²; $F_{mag.}$ -magnit kuchi, N/kg; ΣF -boshqa kuchlarni natijaviysi, N.

Magnit separatorlarda maydon elektromagnitlar tizimi tomonidan yaratiladi, ular o'zgaras yoki pulg'slanuvchi tok bilan tahminlanadi. Elektromagnit separatorlar anchagina katta unumdorlikka ega, ferromagnit qo'shilmalarni olib tashlash jarayonini mexanizatsiyalashga imkon beradi va ishda ishonchliroq. Elektromagnit separatorlarni konstruktsiyasi turli (shkivli, barabanli va osma) bo'lishi mumkin. Masalan, 11 rasmda elektromagnit separatorlarni mumkin bo'lgan sxemalaridan bittasi



Rasm 11. Lentali elektromagnit separatorni printsiipial sxemasi.

ko'rsatilgan. U lentali transporter bilan birga tayerlangan. Berilgan maxsulot bunker 1-dan transportyor 2-ni lentasiga beriladi. Transporter

asinxron elektrodvigateldan aylanadigan ichi bo'sh yupqa diamagnit materialdan tayyorlangan baraban 3 tomonidan yurgiziladi. Baraban ichida xarakatlanmaydigan elektromagnit 4 joylashgan. Elektromagnit g'altagi o'zgaruvchan tarmog'iga ulangan yarim o'tkazgichli to'g'rilagichdan o'zgarmas tok energiyasini oladi. Elektromagnitni mahlum xolatda to'xtatib turish uchun chervyakli mexanizm ko'zda tutilgan.

Maxsulot lenta bilan harakatanganda elektromagnit tahsiridagi xududda ferromagnit qo'shilmalar barabanga tortiladi va transporter lentasida magnit tahsir xududidan chiqquncha ushlanib turadi, keyin esa chiqarib tashlash uchun 6-chi o'zi tashlovchiga tushadi. Lentaga yopishgan mayda metall zarrachalar cho'tka 7 bilan olib tashlanadi, tozalangan maxsulot esa bunker 5-ga tushadi.


Urug'larni sirtini tarkibi bo'yicha magnitli separatsiyalashda urug'lar oldin tayyerlanadi va keyin magnitli baraban ustidan o'tkaziladi. Oldindan tayyerlash urug'larni namlash, mayda temir kukun qo'shish va aralashmani yaxshilab aralashtirishdan iborat. Begona o'tlarni urug'larini sirti g'adir-budur bo'lganligi tufayli kukunni o'zlariga olishadi, sirti silliq komponentlar esa olmaydi. Magnit baraban ustidan o'tkazilganda kukun bilan qoplangan zarrachalar barabanga yopishadi va temir kukuni bilan qoplanmagan, silliq urug'lar ichidan olib tashlanadi.

Magnit bilan tozalash usullari moylovchi-sovituvchi suyuqliklarni tozalash uchun ham keng qo'llaniladi.

Suvga magnit ishlov berish qurilmalari. Suvga magnit ishlov berish suvni fizik xususiyatlarini o'zgartirib, bu bilan issiqlik almashish apparatlarini qotishmalarini kamaytirish uchun ishlatiladi. Magnit ishlovdan keyin suv kimyoviy tarkibini saqlab, sirtqi tortilish, qovushqoqlik, zichlik, elektr o'tkazuvchanlik kabi fizik xususiyatlarini o'zgartiradi. Natijada suvdagi kaltsiy, magniy va boshqa tuzlari keyingi isitilishda kamroq miqdorlarda issiqlik almashuvi apparatlarini devorlarga yopishadi va oqim bilan muallax zarrachalar - shlam tarkibida chiqib ketadilar. Apparatlarda hosil bo'lgan cho'kmalar esa kuchsiz kristall strukturada bo'lib, idish va truba devorlardan oson ko'chadi.

Magnitli ishlovdan keyin suvni xususiyatlarini o'zgarishi asosan suv molekulasidagi vodorod aloqalari va tarkibni buzilishi bilan tushuntiriladi. Uzilgan vodorod aloqalari 3...4 minutda yana tiklanadilar.

Elektromagnit induktsiyasi qonuniga binoan suvni magnit maydonda harakatlanishida tashqi elektr maydon paydo bo'ladi, uning tahsirida ionlan yo'nalgan harakatga tushishadi, bu esa gidratlanishga tahsir qiladi. Demak, suvga ishlov berish jarayonidagi asosiy tahsirlar – magnit va elektr maydonlar, tahsir obyektlari esa – eritilgan moddalarni ionlari va erituvchining molekulalari.



Rasm 12. Suvga ishlov beradigan ko'p qutbli elektromagnit apparatning sxemasi: 1- po'lat korpus, 2- elektromagnitlar, 3-latun gilg'za, 4-elektromagnit chulg'amlarini qisqichlari.

Suvga magnit ishlov berish apparatlari murakkab bo'lmay, ko'p xollarda trubalar oralig'iga montaj qilinadi. Ular ko'p qutbli o'zgarmas yoki o'zgaruvchan tok elektromagnit tizimlari 2 bo'lib, latun gilg'za 3 bilan germetik berkiladi. Suv, apparatdan 0,2-0,5 (boshqa mahlumotlarga qaraganda 0,5...1,5) m/s tezlik bilan oqib, teskari yo'nalishdagi magnit maydonlarni kesib o'tadi. Kesib o'tish martasi qutblarni juft soniga mos bo'ladi va besh-etti qabul qilinadi. Apparatni unumdorligi soatiga 100 m³/soatiga bo'lib, energiyani solishtirma sarfi 0,03 kVt·soat/m³. Magnit ishlovdan keyin suv cho'kma qotishma hosil qilishga qarshi xususiyatlarini bir sutkagacha saqlaydi, keyin bu xususiyatlar yo'qoladi. SHuning uchun suvga magnit maydonda ishlov berish davriyligi 6-8 soat bo'lishi kerak. Sanoatni ko'p soxalarida suvga magnit ishlov berish issiq almashuv apparatlarini davriy tozalash muddatlarini 2 marta uzaytirishga imkon beradi. Suv kam ishlaydigan korxonalarda suvga magnit maydonda ishlov berish qiymat turadigan ion-almashuv moddalar bilan kimyoviy ishlovni o'rnini bosadi. Bu muximdir, chunki kimyoviy ishlovda murakkab qurilmalar va yuqori malakali xodimlar kerak bo'ladi.


Magnitli ishlovdan keyingi suv bilan ekinlar sug'orilganda, urug'larga ekishdan oldin ishlov berilganda, hosildorligini tiklash maqsadida sho'rlangan tuproqlar yuvilganda musbat effekt olinganligi to'g'risida mahlumotlar mavjud.

Mavzu: Magnitli impulg's qurilmalari. qurilmani printsiptial sxemasi va ish printsipti. Magnitli ishlov berish turlari.

Magnitli impulg's qurilmalari. Tok o'tkazuvchi materiallardan tayyorlangan buyum va zagotovkalarida kuchli davriy magnit maydonlarni impulg'slari tahsirida plastik deformatsiyalar hosil qilish uchun ishlatiladi. Magnitli impulg's shtampovka, trubalarni qisish va kengaytirish, yig'ish ishlari, teshiklar hosil qilish, impulg'sli payvandlash va boshqalar uchun ishlatiladi.

qurilmani printsiptial sxemasi va ish printsipti. Magnitli impulg'sli qurilmalarni ish printsipti magnit maydonlarini quvvatli impulg'slari va zagotovkalarida hosil bo'ladigan uyurma toklarni o'zaro tahsiriga asoslangan.

Tok o'tkazuvchi zagotovkani induktorga qo'yilsa (rasm 13) va undan katta amplitudali tok impulg'si



Rasm 13. Mag-nitli impulg'slar bilan ishlov beruvchi qurilmani printsipl sxemasi: 1-induktor, 2-zagotovka, 3-sig'imli yig'uvchi (kondensatorlar batareyasi), 4-ko'paytiruvchi

transformator, 5-to'g'rilagich, 6-avtotransformator, 7-razryadnik.

o'tkazilsa, induktor atrofida magnet maydon kuchlanganligini quvvatli impulg'sli hosil bo'ladi. Uning energiyasi g'altakning induktivligi va undagi tokni kvadratiga proporsional:

$$W_m = \frac{LI^2}{2}. \quad (4)$$

Bu magnet maydon zagotovkada uyurma tokni impulg'sini induktsiyalantiradi, bu tokni magnet maydoni induktorni tashqi magnet maydoniga qarshi harakat qiladi. Magnet maydonlarni bunday o'zaro tahsiri natijasida elektromagnet kuchlar hosil bo'ladi, ularni yo'nalishlari «chap qo'l» qoidasidan topiladi - magnet induksiya V va tok I vektorlariga perpendikulyar, yahni zagotovka sirtiga bosim hosil qilinadi (strelkalar bilan ko'rsatilgan). Kuchli magnet maydonlarida bu bosim zagotovkani sirtini 1 kvadrat santimetrigaga o'nlab tonna bo'lishi mumkin. Ichi bo'sh zagotovkani ichida muvozanatlovchi bosim yo'q va maydon energiyasi mexanik ishga (zagotovkani deformatsiyalashga) va uni qizitishga sarflanadi. Zagotovkani sirtiga tahsir etuvchi bosim (MPa):

$$r = \frac{B_1^2 - B_2^2}{2\mu_0} \cdot 10^{-6} \quad (5)$$

Bu ifodada V_1 va V_2 zagotovkani induktor tomonidagi sirti va zagotovkani orqasidagi magnet maydon induktsiyasi, Tl; $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-6} \cdot \text{Gn/m}$ magnet doimiysi.

Zagotovkada sirtini haroratini oshishini topish mumkin:

$$\Delta\tau = V^2/8S_v \quad (6)$$

Bu yerda S_v -zagotovkani solishtirma issiqlik sig'imi.

Zagotovkani deformatsiyalanish tezligi:

$$V = 10V/4\sqrt{\rho\pi} \quad (7)$$

ρ -ishlov olayotgan materialni zichligi, kg/m³.

Razryad impulg'sini davomiyligi shunday tanlanadiki, magnit maydonni deformatsiyalanuvchi detalga kirish chuqurligi uni devorini qilinligidan kichikroq bo'lishi kerak. Ko'rilayotgan sxema uchun impulg's davomiyligi 10-20 mks.

Impulg'sni qisqa muddatli bo'lgani uchun katta kuchlarni hosil qilish maqsadida katta zichlikdagi toklarni o'tkazish mumkin (10^{10} A/m² gacha), chunki juda qisqa muddatda o'tkazgichlar ularni mustahkamlik xususiyatlari yo'qoladigan darajagacha qizishga ulgurishmaydi. SHuning uchun induktsiya 80 teslaga yetadi, bir marta ishlaydigan induktorlar uchun esa - 200 teslagacha. Bu qiymatlar ferromagnit materiallarni to'yinish induktsiyasidan bir necha marta oshadi, shuning uchun ular kuchli maydonlar texnikasida ishlatilmaydi. Tokning bunday yuqori zichliklarini (magnit induktsiyani ham) nisbatan oson va sodda kondensatorlarni razryadlab olinadi.

Manba quvvatini quyidagi ifodadan topish mumkin:

$$W_{mb} = W_{c\eta} = \frac{U^2 C}{2t} \cdot \eta, \quad (8)$$


W_s -zaryad konturida to'planadigan quvvat; t -razryadlar oraliqlaridagi vaqt, s; η -zaryad konturini **FIK**-i (odatda **FIK** taxminan 0,5 bo'ladi); U -kondensatorlarni zaryadlash kuchlanishi, 5÷20 kV.

Razryadniklar sifatida havoli razryadniklar, elektrodlar yaqinlashtirilganda ishlaydigan mexanik kommutatorlar yoki ignitronlar (razryadni boshqarilishi mavjud) ishlatiladi. Zaryadlovchi konturlari (yig'uvchi) yuqori doimiy kuchlanish manbasidan zaryadlanadi, bu manba ko'paytiruvchi transformator, to'g'rilagich, zaryadlovchi kuchlanishni rostlovchi jihoz, yerga ulash va boshqalardan iborat.

Magnitli ishlov berish turlari. Ishlov berishni magnitli impulg's usuli ancha progressivdir. Inertsiali muhitni yo'qligi (muhit orqali detalga bosim o'zatiladi) hamda elektrodinamik kuchlarni zagotovka xajmiga taqsimlanishi va aniq rostanish bunday qurilmalarni qo'llashga keng imkoniyat yaratadi.

Rasm 14-da magnitli impulg'slar bilan ishlov berishni oddiy misollari ko'rsatilgan. Zagotovka 1 to'g'ridan-to'g'ri razryad zanjiriga kiritilishi mumkin (rasm 14,a). Bu xolda elektrodinamik kuchlar (strelkalar bilan ko'rsatilgan) zagotovkalardagi tok va zagotovka yonidagi qaytgan simda hosil bo'lgan magnit maydon bilan o'zaro tahsir natijasida hosil bo'ladi. Induktor 2 detal 1 ichiga kiritilganda (rasm 14,b)

Rasm 14. Magnitli impulg'slar bilan ishlov berishni turlari: 1-ishlov olayotgan detalg', 2-induktor, 3-magnit maydonni mujassamlantiruvchisi.



trubani kengayish effekti hosil bo'ladi. Murakkab shaklli detallarga ishlov berish uchun matritsalar qo'llaniladi. Agar mahalliy deformatsiya hosil qilish kerak bo'lsa, induktor va zagotovka oralig'iga metall kontsentratorlar 3 (maydon o'zgartirgichi) kiritilib, magnit

maydon qayta taqsimlanadi va detal 1-ni qismlarida yuqori bosimlar hosil qilinadi (rasm 14,v-dagi strelkalar).

Nazorat savollari:

1. Elektr impulsg'si nima? Uni asosiy parametrlarini ayting.
2. Texnologik obektlarga elektr impulsg'slar tahsirini xususiyatlari nimadan iborat?
3. Elektr to'siqlarni impulsg'slar generatorlariga qo'yiladigan asosiy talablarni ayting.
4. Elektr impulsg'slar generatorlarini ishini asosiy printsiplari nimada?
5. Elektr gidravlik effektni fizik mazmunini tushuntiring.

3-Mavzu:Infra qizil nurlar Reja

1. Infraqizil nurlar. Infraqizil nurlanish manbalari va ularni qo'llash soxalari. Ultrabinafsha nurlar. Ultrabinafsha nurlanish manbalari va ularni qo'llash. Mehnat muhofazasi.
2. Elektr uckunlar bilan yoki elektr eroziya ishlov berish usuli. Elektr eroziya qurilmalarini elektr jihozlari.
3. Ishlovni ultratovush usullari. Ultratovush qurilmasini asosiy vazifasi.Ultratovush chastotasini manbalari. Magnitostriktsiya. 'ezoelektrik o'zgartirgichlar. Ultratovushni texnologik jaraenlarda ishlatishni uch asosiy soxalari. Ultratovush yerdamida texnologik jaraenlarni tezlashtirich. Sanoat qurilmalari. Ultratovushni oziq-ovqat va boshqa sanoatlarda qo'llash. Ultratovush yerdamida texnologik jaraenlarni nazorat qilish.

Optik nurlanishni umumiy xarakteristikasi. Optik nurlanishni o'zgartirish. Fotobiologik tahsir turlari. Effektiv kattaliklar tizimlari va ularni o'lchov birliklari.

Optik nurlanish tabiati bo'yicha elektromagnit tebranishlarga qaraydi va to'liq uzunligi 1 nm-dan 1 mm-gacha bo'lgan diapazonni egallaydi.

Spektrni turli qismlarida optik nurlanish obyektlarga turlicha tahsir qiladi, ayniqsa biologik. SHuning uchun optik nurlanishni spektrini yana uchta diapazonga bo'lishadi: 1...380 nm – ultrabinafsha nurlanish (UBN); 380...760 nm – ko'rinadigan (KN); 760 nm...1 mm – infraqizil nurlanish (IqN).

Er yuzidagi hayot uchun ko'rinadigan nurlanish eng katta ahamiyatga ega.

Ultrabinafsha nurlanish o'zini biologik faolligi bo'yicha uch xududga bo'lingan: UF-A (380...315 nm) nisbatan katta bo'lmagan biologik faollikka ega; UF-V (315...280 nm) biologik obyektlarga eng kuchli tahsir qiladi; UF-S (280...100 nm) odamga, o'simliklarga zararli tahsir qiladi, bakteriyalarni yo'q qilish qobiliyatiga ega.

Iq nurlanish spektrida quyidagi bo'lish qabul qilingan: Iq-A (780...1400 nm); Iq-V (1400...3000 nm); Iq-S (3000 nm...1 mm).

Optik nurlanishni miqdoriy energetik baholash uchun ma'lum kattaliklar belgilangan, ularni majmuasi energetik kattaliklar tizimini tuzadi.

Optik nurlanishni energiyasi Q_e djoul (Dj) o'lchanadi. Harfli indeks optik nurlanishni to'la, spektral tarkibini hisobga olmay xarakterlashini bildiradi. Bunday kattaliklarni energetik deyiladi.

Nurlanishni oqimi F , Vt (Dj/s), optik nurlanishni quvvatini xarakterlaydi

$$F_e = dQ_e/(d\tau).$$

Nurlanish oqimini spektral zichligi $F(\lambda)$, Vt/nm , nurlanish energiyasini spektr bo'yicha taqsimlanishini ko'rsatadi:

$$F(\lambda) = dF_e(\lambda)/(d\lambda).$$

Bu ifodadan kelib chiqadiki, nurlanish oqimi nurlanishni spektral zichligi bilan quyidagi integral orqali bog'langan

$$F_e = \int_0^{\infty} \Phi(\lambda) d\lambda.$$

Grafik ko'rinishda nurlanish oqimi nurlanishni spektral zichligi funksiyasini egri chizig'i va to'lqin uzunliklarini λ o'qi bilan chegaralangan maydondir.

Nurlantirilish maydoni S_n bo'lgan sirtning birligidan nurlanaetgan quvvat, Vt/m^2 -ni xarakterlaydi:

$$M_e = dF_e/(dS_n).$$

Nurlanish kuchi I_e , Vt/sr, fazoviy burchak ω -ni birligiga to'g'ri keladigan nurlanish quvvatini belgilaydi:

$$I_e = dF_e/(d\omega).$$

Nurlanish kuchi son va yo'nalish bilan xarakterlanadi. Grafik ko'rinishda u qutbli koordinatalarda nurlanishni nazariy markazi O -dan manbaani optik o'qiga nisbatan α burchakda o'tkazilgan vektor bilan ko'rsatiladi. Markaz O -dan o'tgan sirtida nurlanish kuchi vektorlari chekkalarini birlashtiruvchi chiziq nurlanish kuchini egri chizig'i deyiladi.

Nurlantirilganlik Y_{e_e} , Vt/m², - maydoni S_s bo'lgan nurlantirilayotgan sirtga tushayotgan nurlanishni solishtirma quvvati:

$$E_e = dF_e/(dS_s).$$

Energetik ekspozitsiya N_e , Dj/m² (Vt·soat/m²), nurlantirilayotgan sirtning birligiga to'g'ri keladigan nurlanishni solishtirma energiyasini belgilaydi:

$$N_e = \int_0^{\tau} E_e d\tau$$

Optik nurlanishni o'zgartirilishi. qaysidir obhektga tushib, optik nurlanishni energiyasi qaytarilishi, yutilishi va o'tkazilishi mumkin. Tushgan birlamchi oqimga qismlar bo'lib kiradigan oqimlarni nisbiy qiymatlari koeffitsientlar bilan belgilanadi: ρ -qaytarilish; α -yutilish; γ -o'tkazish.

Bu koeffitsientlar – jismlarni muhim optik xarakteristikalaridir.

Tushayotgan oqimni qaysi qismi kattaroq qiymatga egaligiga qarab, jismlar qaytargichlar, yutuvchilar va filg'rlarga bo'linadi.

Real jismlar optik nurlanishga nisbatan selektivdirlar, ya'ni to'lqin uzunligi turlicha bo'lgan monoxromatik oqimlar turlicha qaytariladi, o'tkaziladi va yutiladi. Faqat mutlaq qora jism noselektivdir.

Spektral koeffitsientlar uzunlik indeksi bilan belgilanadi: $\rho_\lambda, \alpha_\lambda, \gamma_\lambda$

Jismni ichki tarkibi va uni sirtiga bog'liq xolda qaytarilish va o'tkazilish yo'naltirilgan, tarqoq (diffuzli) va aralash (diffuzli yo'naltirilgan) bo'lishlari mumkin. Yo'naltirilgan qaytarilishni ko'zguli sirtlar, diffuzlilarni - g'adir-budurli sirtlar (oqlangan, magniy yoki tsinkni oksidini changlatilgan) hosil qiladi. Sutsimon oynalar, zich mayda dispersli aerzollar (zich tuman, bulutlar), bahzi bir tirik to'qimalar tarkibini (o'simlik bargi) o'tkazishi diffuzligiga yaqin.

Moda tomonidan fotonlarni yutilishi – optik nurlanishni o'zgartirilishini zaruriy sharti. Eng oddiy ko'rinishda optik nurlanish energiyasini biologik jismlarda o'zgartirilishi fotokimyo reaksiya ko'rinishida ikki etapda amalga oshiriladi: fotonni molekula yutadi va energiyani boshqa molekulaga beradi. Bu jarayonlarni har biri bir biriga bog'lanmagan xolda kechishi mumkin.

Optik nurlanishni yutilgan energiyasini o'zgartirilishini quyidagi shakllari ajratiladi.

Fotoeffekt – yutuvchi jismni elektr xolatini o'zgarishi.

Fotoluminestsentsiya – nurlanish bilan uyg'otilgan molekulalar tomonidan energiyani nurlantirilishi.

Fotokimyo tahsir – optik nurlanishni yutayotgan jismni kimyoviy xolatini o'zgarishi.

Fotobiologik tahsir – optik nurlantirilgan tirik organizmni biologik xolatini o'zgarishi.

Fotokimyoni asosiy qonunlaridan birini A. Eynshteyn ifodalagan edi: har bir elementar fotokimyo jarayoni uchun har bir reaksiyaga kirgan molekula bitta fotonni yutishi kerak. Eynshteyn qonunini reaksiyaga kirgan molekulalarni miqdori n_{fk} -ni yutilgan kvantlar miqdori n_{kv} -ni nisbati sifatida yoziladi (bu kattalik kvantli chiqish deyiladi):

$$\eta_{kv} = n_{fk}/n_{kv}.$$

Eynshteynni kvant ekvivalentligi qonuniga binoan η_{kv} kattalik birdan oshishi mumkin emas.

Fotokimyoni jarayonlarini asosiy qonunlaridan ikkinchisini o'zaro almashtirilish qonuni deyiladi. Uni mazmuni shundaki, fotokimyo reaksiyalari maxsullarini massasi m_{fk} yutish koeffitsienti α , reaksiya tezligi a va maydoni S_s bo'lgan nurlantirilaetgan sirtga τ vaqtda tushgan nurlanish energiyasi Q_e -ga proporsional:

$$m_{fk} = \alpha a Q_e .$$

Ketma-ket o'zgartirishlardan keyin yozish mumkin:

$$m_{fk} = \alpha a S_s N_e.$$

Bu tenglama o'zaro almashtirilish qonunini ifodalaydi: fotokimyo reaksiya maxsullarini massasi ekspozitsiyaga proporsional.

O'zaro almashtirilish qonuni faqat ideal fotokimyo jarayonlar uchun to'la xaqiqiydir. Real fotokimyo reaksiyalarni yurishi faqat nurlanish energiyani kelishi va spektral tarkibga emas, balki atrof muhitni ko'p sonli faktorlari va nurlantirish jarayonida paydo bo'ladigan o'zgarishlarga ham bog'liq.

Fotokimyo jarayonni yurishini nurlantirishni davomiyligini doimiylikida biologik obhektga nisbatan ko'rib chiqamiz. Ideal jarayon to'g'ri chiziq 1, reali – egri chiziq 2 bilan xarakterlanadi.

Nurlantirish yo'qligida ($E_e = 0$) biologik obhektida moddalar almashuvi hisobiga oldingi fotokimyo reaksiyalar natijasida to'plangan maxsullar ($-m_r$) sarflanadi. Nurlantirish energiyasini kelishini ko'payishi nurlantirilganlikni $Y_{e.k.}$ qiymatiga mos kelishiga yetganda, fotokimyo reaksiyani maxsullarini qo'shilishi sarfni to'la qoplaydi. $Y_{e.k.}$ kattalikni kompensatsiyalovchi nurlantirilganlik deyiladi.

Nurlantirish energiyasini ko'paytirilishini davom ettirilishi fotokimyo jarayonini musbat o'sib boruvchi effektini m_{max} miqdorgacha olib boradi, bu to'yintirib nurlantirilish $Y_{e.t.}$ -ga to'g'ri keladi.

To'yinish kimyoviy o'zaro tahsiri etapida uyg'otilgan molekullarni energetik darajasi chegaraviy qiymatga yetib, oshirilishi mumkin emasligi bilan shartlangan. Fotonlarni yutgan molekullardan energiyani kimyoviy reaksiyalarda qatnashayotgan molekullarga uzatilishi to'xtaydi. Yutilgan nurlanish energiyasini ortiqchasi issiqlik energiyasiga o'zgartirila boshlaydi. Bunda, agar nurlanish energiyasini kelishini ko'payishi davom etaversa ($E_e > E_{e.t.}$), issiqlikni oshiqqligidan nurlantirilatgan biologik obhektni harorati oshadi, moddalar almashuvi buziladi va fotokimyo reaksiyani tezligi pasayadi. Optik nurlantirishni musbat effekti pasaya boshlaydi ($m_{fk} < m_{max}$).

Fotokimyo jarayon **FIK**-ini nurlantirilganlikka $\eta_{fk}(E_e)$ bog'liq o'zgarishini analiz qilamiz. Oldingi ifodani o'zgartirgandan keyin yozib qo'yamiz:

$$\eta_{fk} = m_{fk}/(s\alpha E_e),$$

bunda $s-\alpha S_c \tau$ ko'paytmaga teng doimiy.

Ideal fotokimyo jarayonni **FIK**-i nurlantirilganlikka bog'liq emas $\eta_{fk} = const$. Real jarayonda **FIK** – $m_{fk}(E_e)$ egri chiziqni koordinatalar boshlanishidan o'tkazilgan to'g'ri chiziqqa tekkan joyida maksimal qiymatga ega bo'ladigan

o'zgaruvchan kattalik $\eta_{fk}=var$. Bu nuqtaga nurlantirilganlikni optimal qiymati $Y_{e,opt}$ va maksimal **FIK** to'g'ri keladi.

Fotobiologik tahsir turlari. Fotobiologik tahsir – odamni, hayvonlarni, parrandani, o'simliklarni va boshqa biologik obyektlarni optik nurlantirilgandagi energiyani o'zgartirilishini asosiy shakli. Fotobiologik tahsirni oltita asosiy turini ajratiladi.

Fotosintetik tahsir ko'k o'simliklarda to'lqin uzunligi 300...800 nm bo'lgan nurlanishni yutilishida namoyon bo'ladi. Natijada organik birikmalar sintezlanadi. Fotosintezni nazariy **FIK**-i 25...27%-ga yetishi mumkin, amalda o'simliklarni sun'iy sharoitlarda o'stirishda **FIK** 7...8%-ni tashkil qiladi. Tabiiy sharoitlarda **FIK** 1...2%-dan oshmaydi, bu atrof muhitni hamma faktorlarini nooptimalligi bilan tushuntiriladi.

Yorug'lik tahsiri odamni ko'rish ahzolarida to'lqin uzunligi 380...760 nm bo'lgan nurlanishni yutishda namoyon bo'ladi, uning natijasida ko'rish xissiyoti paydo bo'ladi.

Fotodavriy tahsir biologik obyektlarda nurlantirishni davriyligini o'zgartirilganda namoyon bo'ladi, natijada effekt ham boshqacha bo'lib qoladi.

Terapevtik tahsir odam, hayvonlar va o'simliklarda spektrni optik qismini har qanday diapazonida meyorlangan nurlantirishda namoyon bo'ladi. Bunda moddalar almashuvi yaxshilanadi va organizmni kasalliklarga bardoshligi ko'payadi.

Bakteritsid tahsir organizmlarda xujayralarni yoki organizmni to'la halok bo'lishiga olib keladigan miqdorlarda nurlanishni yutilishida namoyon bo'ladi. Eng katta bakteritsid tahsir **S** xududini ultrabinafsha nurlanishida kuzatiladi.

Mutagen tahsir tirik organizmlarda asosan spektrni ultrabinafsha nurlari bilan uzoq davomiy va tartibiy nurlantirishdan keyin namoyon bo'ladi, unda nasliy o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Effektiv kattaliklar tizimlari va ularni o'lchov birliklari. qandaydir fotobiologik tahsirni miqdoriy baholash uchun nurlantirilayotgan obyektni (nurlanishni qabul qiluvchisini) konkret nurlanishga aks tahsir miqdorini bilish kerak.

Nurlanishni qabul qiluvchisini sezgirliги - qabul qiluvchini aks tahsirini unga tushayotgan nurlanish quvvatiga nisbatini meri:

$$g = F_{ef}/F_e = s\alpha F_e \eta_e / F_e = s\alpha \eta_e,$$

bu yerda: F_{ef} -qabul qilgichni nurlantirishga aks tahsirini meyor; F_e -qabul qilgichga tushayotgan nurlanish oqimi; s -proportsionallik koeffitsienti; α -nurlanishni yutilish koeffitsienti; η_e -qabul qilgichni nurlanishni o'zgartirishini energetik FIK-i.

Agar qabul qilgichni aks tahsiri monoxromatik nurlanishga nisbatan baholansa, kattalik spektral sezgirlik deyiladi va $g(\lambda)$ belgilanadi. Oxirgi tenglamaga o'xshatilsa:

$$g(\lambda) = F_{ef}(\lambda)/F_e(\lambda).$$

Spektral sezgirlik – nurlanish qabul qilgichini asosiy fotometrik xarakteristikasi. Kremniyli fotodiodni spektral sezgirligiga mos nisbiy spektral sezgirlikni funktsiyasi:

$$k(\lambda) = g(\lambda)/g_{max},$$

bunda g_{max} -maksimal spektral sezgirlik.

qabul qilgichni konkret nurlantirilishga aks tahsirini meyorini topish uchun oxirgi ikkita tenglamalardan foydalanamiz:

$$F_{ef}(\lambda) = g(\lambda)F_e(\lambda) = g_{max}k(\lambda)F_e(\lambda).$$

Nurlanishni $\lambda_1... \lambda_n$ spektral diapazonidagi hamma monoxromatik tashkil etuvchilarini yig'indi tahsirini bu tenglamani integrallab olamiz:

$$F_{ef}(\lambda) = g_{max} \int_{\lambda_1}^{\lambda_n} k(\lambda)\Phi(\lambda)d\lambda.$$

SHunday qilib, qabul qilgichni nurlantirilishga aks tahsirini vaqt birligidagi meyor nurlanishni to'la quvvati F_e -ni qismini tashkil qiladigan va nurlanishni effektiv oqimi deyiladigan effektiv quvvat F_{ef} -dir. Yuqoridagi integralni grafik ko'rinishda S_{ef} maydon sifatida ko'rsatish mumkin. Maydon S_e – (16.3) integralga mos ravishda nurlanishni to'la oqimi F_e -ni grafik ifodasi.

Yuqoridagi oxirgi integralni analitik yechish qiyin, ko'pincha mumkin emas, shuning uchun uni grafik yechiladi. Buning uchun bu integralni boshqacha yozamiz:

$$F_{ef}(\lambda) = g_{max}S_{ef}m_s,$$

bunda $m_s=F_e/S_e$ -integrallarni grafik ko'rsatuvchi shakllar maydonlarini masshtabi, Vt/mm².

Effektiv oqim tushunchasi faqat nurlanish oqimini qabul qilgichga tushib, o'zgartirilib, nurlantirilishga aks tahsir sifatida namoyon bo'lgan qismiga qo'llanilmaydi. Nurlanishni har qanday oqimi effektiv qismga ega bo'lishi mumkin. Bu nurlanish manbaasini potentsial effektivligiga baho berishga imkon beradi.

Optik nurlanishni effektiv shaklda keltirilgan hamma kattaliklari effektiv deyiladi. Effektiv kattaliklarni to'rtta tizimlari mavjud: fotosintezlilar, yorug'lilar, vitallilar va bakteritsidlar. Har bir tizimni asosida ma'lum turni fotobiologik tahsiri yotadi.

Effektiv kattaliklar tizimini aniqlashda etalon sifatida qandaydir o'rta qabul qilgich olingan va uni spektral xarakteristikasi standartlangan. Spektral effektivlikni standartlangan funktsiyasi ikki shartga javob berishi kerak: fotobiologik tahsiri konkret turi bo'yicha birlashtirilgan qabul qilgichlarni spektral xususiyatlarini ko'rsatishi kerak; tashqi tahsirlar, qabul qilgichga tushayotgan nurlanishni miqdori va spektral tarkibidan o'zgarmasligi kerak.

Effektiv kattaliklarni mavjud tizimlarida standartlashtirilgan spektral xarakteristikalar sifatida nisbiy spektral effektivlik funktsiyalari qabul qilingan. Effektiv kattaliklar tizimlari va o'lchov birliklarini o'rnatish uchun quyidagilarni qabul qilamiz. Birinchidan, hamma nurlanishni qabul qilgichlari selektiv. Ikkinchidan, turli guruhlardagi nurlanishni qabul qilgichlari spektral xarakteristikalar bilan farq qiladilar. Masalan, odam ko'zi va o'simlikni ko'k bargi nurlanishni deyarli bir xil intervalda qabul qiladilar, ammo ko'z eng yaxshi qabul qiladigan monoxromatik nurlanishlar (550...560 nm)-ni ko'k o'simlik uchun effektivligi eng kam. Demak, bir tizimni birlik va kattaliklarini boshqa tizimnikini o'rniga ishlatilishi mumkin emas, agar ular orasidagi nisbatlar ma'lum bo'lmasa. Bu nisbatlar nurlanishni spektral tarkibiga bog'liq.

Nur kattaliklarni tizimida odam ko'ziga tahsir etuvchi effektiv oqim birligi sifatida lyumen (lm) qabul qilingan. Lyumenlarda nur oqimi F_v o'lchanadi.

Nur oqimi – nur kuchini hosilasi, kandela (kd)-da o'lchanadi:

$$dF_v = I_v d\omega,$$

bu yerda: dF_v -nurni elementar oqimi, lm; I_v -nur kuchi, kd; $d\omega$ -fazoviy elementar burchak, sr.

Kandela plastinani qotish harorati $T=2045^\circ\text{K}$ va bosim 101325 Pa -ligida $1/600000\text{ m}^2$ maydondan ko'ndalang yo'nalishda qora jism chiqarayotgan nur

kuchi. Nur oqimini birligi – lyumen – nur kuchi bir kandela bo'lganda bir steradian fazoviy burchak ichida tashkil bo'ladi. 1 lm to'lqin uzunligi 555 nm-ligida nurlanishni vattini 1/683 qismiga tengdir. Bundan nurlanishni maksimal spektral nur effektivligini topish mumkin, lm/Vt:

$$g_{v,max} = F_v(\lambda=555)/F_e(\lambda=555) = 683/1 = 683,$$

bunda $\lambda=555$ - $g_{v,max}$ -ga mos keluvchi va 555 nm-ga teng to'lqin uzunligi.

Sirtga tushayotgan nurlanish oqimi lyuks (lk)-larda o'lchanadigan yoritilganlik $Y_{e,v}$ -ni hosil qiladi. Bir lyuksga teng yoritilganlik bu bir lyumenga teng va bir kvadrat metrda tekis taqsimlangan nurlanish oqimi ($1 \text{ lk}=1 \text{ lm/m}^2$). Odamni ko'rishi faqat to'g'ri nurlanish bilan emas, ko'rish maydonidagi qaysidir sirtan qaytarilgan nurlanish oqimi bilan ham sodir bo'ladi. Ko'z qorachig'iga tushayotgan nurlanish oqimi uning maydoni $S_{ko'r}$ -da yoritilganlik $Y_{e,v,ko'r}$ -ni hosil qiladi:

$$dF_{v,ko'r} = Y_{e,v,ko'r} S_{ko'r} = \frac{dI_v}{l_{kyp}^2} S_{ko'r}.$$

Muhiti tiniqligida ko'z to'rini yoritilganligi:

$$E_{v,to'r} = dF_{v,ko'r}/(dS_{to'r}).$$

Xaqiqiy tasvir uchun geometrik optika qoidasini qo'llab, olamiz:

$$E_{v,to'r} = \frac{S_{kyp}}{l_{myp}^2} \frac{dI_v}{dS \cos \alpha}.$$

qaydlangan nigohda birinchi kasrni qiymati doimiy va ko'rish xissiyoti ikkinchi kasrni qiymati bilan belgilanadi:

$$L_v = dI_v/(dS \cos \alpha).$$

Bu kattalik yorug'lik deyiladi va elementar sirtan nurlantirilayotgan nur kuchini bu sirtga nurlanish yo'nalishiga perpendikulyar sirtga proektsiyasini maydoniga nisbati bilan belgilanadi. Yorug'lik kandelani kvadrat metrga nisbati bilan o'lchanadi (kd/m^2). Oxirgi ikki tenglamalardan kelib chiqadiki, odamni ko'zi kuzatilayotgan obyektni, qanday masofadiligidan qat'iy nazar, yorug'ligiga aks ta'sir qiladi.

Fotosintez kattaliklar tizimida asosiysi sifatida fotosintez oqim F_f [indeks (fito) ko'k o'simlikni nurlantirishga aks ta'siriga baho berish bo'yicha topilgan

kattalikni xarakterlaydi] qabul qilingan. Fotosintez oqimi fit (ft)-larda o'lchanadi. Fit – bu to'lqin uzunligi 680 nm-ligidagi bir vatt nurlanish.

Maksimal spektral fotosintez effektivlikni qiymati son bo'yicha birga teng.

Vital kattaliklar tizimida vitalli deyiladigan effektiv oqimni birligiga bir vit (vit) - to'lqin uzunligi 297 nm-ligidagi bir vatt nurlanishni oqimi qabul qilingan.

Bakteritsid kattaliklar tizimida effektiv (bakteritsid) oqim birligiga bir bakt (bk) - to'lqin uzunligi 254 nm-ligidagi bir vatt nurlanish oqimi qabul qilingan.

Optik nurlanishni o'lchash. Fotometriya – bu fizikaviy optikani optik nurlanishni o'lchash nazariyasi va metodlariga bag'ishlangan bo'limi.

Nazariy fotometriya nuqtai nazaridan hamma real jismlarni chiziqli o'lchamlari va ulargacha masofaga bog'liq xolda nuqta, chiziq yoki sirt deb qabul qilish mumkin.

Optik nurlanishni real qabul qilgichlari murakkab geometrik shaklga ega. Fotometriyada masalani soddalashtirish uchun qabul qilgichlarni modellaridan foydalaniladi: yassi plastina, sfera (shar), yarim sfera, tsilindar.

qabul qilgichni unga fazoni turli yo'nalishlaridan tushayotgan nurlanishni sezish qobiliyatini nurlantirilganlikni indikatrasi $[f(\beta)]$ bilan belgilanadi, u burchakli xarakteristikadir va qabul qilgichni o'rtacha nurlantirilganligini normalga nisbatan nurlanishni tushish burchagi β -ga bog'liq xoldagi funktsiyasidir:

$$f(\beta) = Ye_{\beta}/E_{\perp}.$$

qabul qilgichni nurlantirilganligi qabul qiluvchi maydonni tushayotgan nurlanish F_t -ni yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan proektsiyani maydoni S_{β} -ga va qabul qilgichni to'la maydoni S_0 -ga bog'liq:

$$E_{\beta} = F_t/S_0 = Ye_{\perp}S_{\beta}/S_0.$$

qabul qilgichni nurlantirilganligini indikatrasi:

$$f(\beta) = S(\beta)/S_0.$$

Fotometrik o'lchov asboblari asosiy elementlaridan biri – o'lchov o'zgartirgichi (optik nurlanishni fizikaviy qabul qilgichi). Ular ish printsipi va spektral xarakteristikalariga bog'liq xolda guruhlariga bo'linadilar.

Spektral xususiyatlar bo'yicha selektiv (tanlovchi) va noselektiv, ish printsipi bo'yicha fotoelektrik, fotoelektron va issiqlik bo'ladi.

Energetik yoki effektiv birliklarda nurlantrilganlikni o'lchashga mo'ljallangan fotometrlar eng ko'p tarqalgan asboblardir. Ular bolometr (optik nurlanish energiyasini elektr signalga o'zgartiradi), piranometr (optik nurlanishni yutilgan energiyasini termoelement yordamida elektr signal-termoelektr yurituvchi kuchga o'zgartiradi). Selenli fotoelement spektrni ko'rinadigan qismida qo'shimcha manbaasiz fotometrlashni o'tkazishga imkon beradi. Lyuksmetr – yorug'likni o'lchashga mo'ljallangan asbob. Ultrabinafsha nurlanishni ufimetr, baktmetr, dozimetr va b. bilan o'lchanadi. Fotometr ROI-82 va avtomatik dozimetr DAU-81 spektrni ultrabinafsha va fotosintetik aktiv qismlarida nurlanishni energetik kattaliklarini o'lchashga mo'ljallangan.

Infraqizil va ultrabinafsha nurlanish qurilmalari

Infraqizil nurlar. Infraqizil nurlanish manbalari va ularni qo'llash soxalari.

Ultrabinafsha nurlar. Ultrabinafsha nurlanish manbalari va ularni qo'llash. Mehnat muhofazasi.

Infraqizil nurlar. Infraqizil nurlar to'lqin uzunligi $10^{-4} \div 10^{-2}$ sm bo'lgan elektromagnit tebranishlardir. Ular spektrning ko'rinadigan qizil qismi yonida bo'lib, odam ko'ziga ko'rinmaydilaor. Infraqizil nurlar amalda fazoda tarqamaydilar va, jinslar ichiga kirib, ularni qizdiradilar. Ichiga kirish chuqurligi qizdirilayotgan material xususiyatlari, uning tarkibi, sirtni xarakteriga bog'liq va mm-ni bo'laklaridan bir necha mm-largacha bo'lishi mumkin.


Har qanday modda uchun infraqizil nurlanishni eng effektiv qizdiradigan to'lqin uzunligi mavjud. Havo infraqizil nurlar uchun deyarli tiniq, shuning uchun infraqizil nurlanish manbasidan qizdirilayotgan obhektga issiqlik deyarli sarfsiz uzatiladi.

Infraqizil nurlanish manbalari va ularni qo'llash soxalari. Infraqizil nurlanishni eng oddiy manbalari – bu qizdiriluvchi lampalaridir. Buning uchun ularga kuchlanishni pasaytirib beriladi. U xolda ular asosan ko'rinmaydigan infraqizil nur chiqarishadi va bir oz ko'rinadigan yorug'lik nurlari bo'ladi.

Sanoat har xil turdagi nurlanuvchilarni ishlab chiqadi. Har bir turning eng effektiv ishlatish soxasini tayinlaydigan belgilar - bu ishchi harorat, maksimal nurlanishni to'lqin uzunligi va nurlanishni tekis zichlik zonasidir. Infraqizil nurlarni asosiy manbalari - bu oynali qaytargichga ega **ZS** turdagi lampali nurlanuvchilar (maksimal nurlanishni to'lqin uzunligi 1,05 mkm), kvartslar

trubkasimon (2-3 mkm), reflektorli nometall sterjensimon qizdirgichlar (6-8 mkm) va trubkali elektr qizdirgichlar.

Maxsulotlarga ishlov beruvchi qurilmalarni loyixalashda ishlov beriladigan materiallarni ishlovdan oldingi va ishlov jarayonidagi optik xususiyatlarini, texnologik jarayonni xossalarini bilish kerak va buni asosida energiya sarflar bo'yicha ratsional bo'lgan nurlanuvchini turini tanlash kerak.



Infraqizil nurlanish qurilmalari bo'yalgan buyumlarni quritish, nometall materiallarni payvandlash, qizdirish (mustahkamlash, pishirish va qizdirib sovutish pechlarida) uchun ishlatiladi. Oziq-ovqat sanoatida qizdirishni bu turi go'sht va baliq maxsulotlarini qovurish, dudlash, qaynatish va quritish uchun hamda konservalarga ishlov berish, bug'doy, un va don maxsulotlarini quritish, sut, pivo, meva sharbatlarini pasterizatsiyalash uchun keng qo'llaniladi.

Rasm 15-da kichik

qalinlikdagi tekis maxsulotlarni pishiradigan,

termoradiatsiya lampali pechni ko'ndalang kesimi berilgan. Pecheng'e pishirish uchun ishlatilganda maxsuldorlik bir smenada 5 tonnagacha, pishirish muddati esa 2,5-3,5 minutgacha. Pechni issiqlik rejimi boshqaruv pultidan termoradiatsiya lampalarini alohida sektsiyalarini yoqish o'chirish bilan sozlanadi. Elektr energiyani solishtirma sarfi 0,5-2 kVt·soat/kg tayyor maxsulotga.

Rasm 15. Kichik qalinlikdagi yassi maxsulotlarni pishirishga mo'ljallangan pechni ko'ndalang kesimi: 1-termoradiatsion lampalar; 2-konveyer; 3-qizdiriladigan maxsulotlar.

Infraqizil nurlanishni quvvatliroq qurilmalarida kvartsli nurlanuvchilar ishlatiladi. Ular oson almashtiriladigan nixrom yoki volg'fram spiralli trubka shaklida bo'ladi. Kvarts lampalarni, masalan, yod parlari yoki boshqa gazlar bilan to'ldirilganda, istehmol qiliniyatgan energiyani 85%-dan yuqoriroq'ini o'zgartirilishiga erishiladi. Bunday nurlanuvchilarni quvvati 4,5 kVt-ga yetadi, ish muddati esa – 1,5 yilga.

Infraqizil nurlar manbalari sifatida trubkali elektr qizdiruvchilar, keramik nurlanuvchilar va boshqalar ham ishlatiladi. Nurlanish quvvati bo'yicha ular termoradiatsiya va kvarts lampalardan kichikroq, ammo lampali nurlanuvchilardan ishonchliroq. Nur oqimini kontsentratsiyalash uchun nurlanuvchilarni ko'pi reflektorlar bilan tag'minlanadi yoki kolbani bir qismi oynali aralashma bilan qoplanadi.

Ultrabinafsha nurlar. Ultrabinafsha nurlari (10^{15} -dan 10^{17} -gacha Gts bo'lgan elektromagnit tebranuvchilar) spektrning ko'rinadigan qismini binafsha qismi yonida bo'ladi va havoni kuchli ionlashtiradi, shiddatli fotoelektrik va

kimyoviy hodisalarni hosil qiladi, bakteriyalarni o'ldiruvchi va hilma-hil biologik tahsirlarga ega.

Ultrabinafsha nurlanish manbalari va ularni qo'llash.

Ultrabinafsha nurlarni manbahlari – bu simobli-kvarts va gazrazryadlovchi lampalardir.

Simobli-kvarts lampalar yuqori bosimli bo'lib, 1 kv-tgacha nominal quvvatga, 220 yoki 127 V kuchlanishga va 50 Gts chastotaga tayyorlanadi. Ular kvarts oynasidan tayyorlangan trubka bo'lib, spektrining maksimal nurlanish to'liqini 0.365 mikrometr bo'ladi. Ko'rinadigan nurlarni to'xtatib qolish uchun bahzi xollarda qora uviol oynadan filg'rlar qo'yiladi, bu oyna ultrabinafsha nurlarni yaxshi o'tqazadi.

Gaz razryadli bakteritsid lampalar 15-30-60 Vt nominal quvvatga, 220 va 127 V nominal kuchlanishga va

50 Gts chastotaga chiqariladi. Ular uviol oynadan tayyorlanadi va tuzilishi, ish printsiplari va ulash sxemalari bo'yicha past bosimdagi lyuminescent lampalardan farq qilmaydi, faqat oyna ichki sirti lyuminofofor bilan qoplanmaydi. Eng ko'p tarqalgan **BUV** turdagi lampalar eng kuchli bakteritsid tahsirga ega, nur oqimini yaqin 80%-i to'liqini 0.254 mikrometr uzunligida nurlanadi. Bu lampalarni ish muddati 1500 soat, bundan keyin bakteritsid tahsiri ikki marta kamayadi. Bakteritsid tahsirini ko'tarish uchun ular polirovka qilingan nur qaytaruvchi sirt (alyumiindan) bilan tahminlanadi. Bu ultrabinafsha nurlanishni yarim sferani tepa yoki past qismiga taqsimlanishini tahminlaydi.

Ultrabinafsha nurlanish lampalari sterillashtirish, biologik jarayonlar va kimyoviy reaksiyalarni rag'batlantirish va qiyinlashtirish uchun, xonalarni, havoni, suvni, ish stollarini, idishlarni, asboblarni, kiyimlarni va hokazolarni dezinfektsiyalash uchun ishlatiladi. Bu maqsadlar uchun qisqa to'liqli diapazondagi (to'liqli uzunligi 0.20-0,28 mikrometrgacha) ultrabinafsha nurlar eng effektivdir. Ularni gaz razryadli bakteritsid lampalar nurlantiradi. Bunda nurlanish dozasi biologik jarayonga salmoqli tahsir qiladi. Masalan, kichik dozalar po'panakni rivojlanishini rag'batlantiradi. Uzoqroq nurlantirilish oziq-ovqat, meva va sabzavotlarda po'panak bo'lish ehtimolini kamaytiradi. Go'shtni davriy nurlantirib turilsa, uni muzlamagan xolda, oddiy haroratda saqlashga imkon bo'ladi va go'sht yangidek turadi. qisqa to'liqli diapazondagi ultrabinafsha nurlar omborxona xonalarini dezinfektsiyalash uchun, ombor zararkunandalarini o'ldirish uchun va boshqalarga ishlatiladi. Havoni bakteriyalardan va po'panakdan tozalash effektivligi 99%-ga yetadi.

To'liqli uzunligi 0.28-0.32 mkm-gacha bo'lgan ultrabinafsha nurlanish meditsinada va veterinariyada keng qo'llaniladi. U teri qoplamalarini kuydiradi, inson va hayvon organizmida **D** vitaminini hosil bo'lishiga va sut, xamirturush, un kabi oziq-ovqatlarda uni saqlanishiga yordam beradi.

Uzun to'liqli diapazondagi ultrabinafsha nurlar (0,32-dan 0,40 mkm-gacha) signal qurilmalaridagi nurlanuvchi va flyuorestsirlanuvchi moddalarni uyg'otish uchun ishlatiladi, masalan, robototexnikada va lyuminescent analiz qurilmalarida. SHunday qilib yangi oq tuxumlar qizil rang bilan flyuorestsirlanadi, eskilari esa havorang bilan tovlanadi.

Mehnat muhofazasi. Ultrabinafsha nurlantiruvchilar bilan ishlaganda ehtiyotlik choralari ko'rilishi kerak: teri qoplamalari kuyishidan, ko'zni atrofida manjetasi mavjud qora oynali ko'zoynak bilan himoya qilish kerak. Buyumlarni va xonalarni bakteritsid ultrabinafsha lampalar bilan nurlantirish faqat odamlar yo'qligida bajariladi.

Optik nurlanishni elektr manbaalari, nurlanish asboblari va nurlantirgichlar

Nurlanishni elektr manbaalarini asosiy xarakteristikalarini. Issiqlikdan nurlanishni asosiy qonunlari. qizdiriluvchi lampalar va ularni asosiy xarakteristikalarini. Razryadlanuvchi lampalarni tasniflanishi va umumiy ish printsiplari. Lampalarda yoy razryadini yoqish va stabillashtirish. Razryadlanuvchi lampalarni o'zgaruvchan tokda ishlashi. Past bosimlm razryadlanuvchi lampalarni tuzilishi va ish printsipti. Lyuminestsent lampalarni asosiy xarakteristikalarini. Lyuminestsent lampalar uchun yondirish-rostlash apparatlari (**YoRA**). Yuqori bosimli razryadlanuvchi lampalarni tuzilishi va ish printsipti. Yorituvchi yuqori bosimlm razryadlanuvchi lampalarni asosiy xarakteristikalarini.

Nurlanishni elektr manbaalarini asosiy xarakteristikalarini. Optik nurlanishni sunhiy manbaasi – bu energiyani qandaydir turini optik nurlanishga o'zgartiradigan uskuna.

Optik nurlanishni elektr manbaalarida elektr energiyasi asosan ikki yo'lda o'zgartiriladi: jismni elektr toki bilan qizdirish va gazlar hamda metall bug'larida elektr razryad orqali. Bunga binoan manbaalar issiqlik va razryadlilarga bo'linadi.

Optik nurlanishni elektr manbaalarini xarakterlash uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

1. Energetik: lampani energetik **FIK-i**

$$\eta_{e.l.} = F_{e.l.}/R_l,$$

bunda: $F_{e.l.}$ -lampani nurlanishini to'la oqimi, V_t ; R_l -lampani quvvati, V_t ; lampani effektiv **FIK-i**

$$\eta_{ef.l.} = F_{ef.l.}/R_l = \int_0^{\infty} F(\lambda)k(\lambda)d(\lambda)/\epsilon_l,$$

lampa nurlanish oqimini effektiv **FIK-i**

$$\eta_{ef.o.} = F_{ef.o.}/F_{e.l.}$$

Nurlanish manbaasini hamma energetik ko'rsatkichlari o'zaro bog'langan:

$$\eta_{ef.l.} = \eta_{e.l.}\eta_{ef.o.}$$

2. Nurtexnik: lampa nurlanishini spektral tarkibi $F(\lambda)$, V_t/nm ; lampa nurlanishini effektiv oqimi $F_{ef.l.}$ (nurli-lm, fotosintezli-ft, vital-vit, bakteritsid-bk); lampani effektiv uzatishi (lm/ V_t , ft/ V_t , vit/ V_t , bk/ V_t)

$$g_{max}\eta_{ef.l.} = g_{max} \int_0^{\infty} F(\lambda)k(\lambda)d(\lambda)/\epsilon_l.$$

3. Elektrotexnik: lampani nominal quvvati R_l , V_t ; lampani nominal kuchlanishi $U_{l.n.}$, V ; lampaga mo'ljallangan tarmoqni nominal kuchlanishi $U_{t.n.}$

4. Ekspluatatsion: soatlarda o'lchanadigan lampani foydali ish muddati τ_l – parametrlardan birini standartda belgilangan chegaradan o'zgarish vaqtigacha

bo'lgan ishni o'rta davomiyligi (foydali ish muddati lampani yonishini texnikaviy va iqtisodiy nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq yig'inda vaqti, to'la ish muddati lampani ishdan chiqqungacha bo'lgan ish muddati).

Ekspluatatsion ko'rsatkichlarga lampani asosiy parametrlarini tarmoq kuchlanishini og'ishlariga bog'liqliklarini qaratiladi: $F_{ef.l}(U_l)$, $R_l(U_l)$, $\tau_l(U_l)$ va boshqalar (nisbiy birliklarda).

Issiqlikdan nurlanishni asosiy qonunlari. Issiqlikdan nurlanishni qonunlari ideal nurlantirgich – unga tushayotgan hamma nurlanishni spektral tarkibi, tushish yo'nalishi va qutblanish darajasidan qathiy nazar yutadigan qora jism uchun o'rnatilgan. Kirxgof qonuni jismni nurlanish va uni yutish qobiliyatini belgiladi. Jism nurlanishni qanchalik yaxshi yutsa, shunchalik ko'proq nurlanish oqimini qiziganda berishi mumkin. Bir xil haroratgacha qizdirilgan ikkita jism uchun ularni nurlantirilishi va yutish koeffitsientlari orasidagi bog'lanish to'g'ri proporsional:

$$\alpha_{e1}/\alpha_{e2} = M_{e1}/M_{e2}.$$

Boshqa sharoitlar tengligida eng katta oqimni qora jism nurlantirishini hisobga olganda Kirxgof qonuni:

$$M_{e1}/\alpha_{e1} = M_{e2}/\alpha_{e2} = \dots = M_{ej},$$

bunda M_{ej} -qora jismni nurlantirilishi, Wt/m^2 .

Bir xil haroratgacha qizdirilgan jismlar uchun nurlantirilishni yutishni mos koeffitsientlariga nisbati doimiy va qora jismni shu haroratdagi nurlantirilishiga teng kattalik. SHu munosabatga doir qora jism to'la nurlantirgich deyiladi.

Stefan-Bolg'tsman qonuni qora jismni nurlanish qobiliyatini uni qizdirish harorati bilan bog'laydi:

$$M_{ej} = \sigma T^4,$$

bunda $\sigma=5,67 \cdot 10^{-8}$ -Bolg'tsman doimiysi, $Wt/(m^2 \cdot K^4)$; T -absolyut harorat, K.

qora jismni nurlantirilishi faqat uning haroratiga bog'liq bo'lib, uni proporsional. Bu to'la nurlanishni oqimi haroratni to'rtinchi darajadagi absolyut qiymatiga bog'liq degani.

Vinni siljish qonuni qora jismni nurlanishini spektridagi maksimum xolati va qizdirish harorati o'rtasidagi aloqani o'rnatadi:

$$\lambda_{max} T = C,$$

bu yerda: λ_{max} -qora jismni nurlanish spektridagi maksimumga mos to'lqin uzunligi, nm; C -Vin doimiysi, nm·K ($S=2898 \cdot 10^3$).

Oxirgi tenglamadan kelib chiqadiki, qora jismni harorati oshgan sari nurlanish maksimumi spektrni qisqa to'lqinliroq qismiga siljiydi.

Ko'rib chiqilgan qonunlarni tahsiri turli haroratlarga qizdirilgan jismni nurlanishini spektral zichligini funktsiyasini o'zgarishida namoyon bo'ladi. Ammo, spektrni odam ko'zi ko'radigan xududga to'g'ri keladigan qismi juda kichik.

1000°K-gacha qizdirilganda ko'rinadigan nurlanish yo'q. Harorat oshirilgan sari qora jismni nurlanishini nurli **FIK**-i tez ko'payadi va taxminan 6500°K-da maksimum – 14,5%-ga yetadi. Bunda nurlanish maksimumi spektrni ko'rinadigan xududida bo'ladi. Haroratni oshirilishini davom ettirilsa nurlanish maksimumi Vin qonuniga binoan spektrni ultrabinafsha xududiga siljiydi. Natijada nurli **FIK** pasayadi.

Issiqlik nurlantirgichlar rolini bajaruvchi real jismlar mexanik mustahkamligini buzilishi sababli 6500°K-cha qizdirilishi mumkin emas. Masalan, qattiq volg'framni nurlanishi uchun nurli **FIK** 8,1%-dan osha olmaydi, volg'framli qizdiriluvchi lampalarni real **FIK**-i 3,5%-dan oshmaydi.

SHu bilan birga issiqlik nurlantirgich - infraqizil nurlanishni yuqori effektiv manbaasi. SH.q., qizdiriluvchi lampalarni ham yoritish uchun, ham texnologik jarayonlarda infraqizil nurlantirish uchun qo'llash mumkin.

qizdiriluvchi lampalar va ularni asosiy xarakteristikalari. qizdiriluvchi lampalar hamma soxalarda qo'llaniladi. Bahzilarida tiniq kolbalardan tashqari, qizdiruvchi jismni ko'rishni qiyinlashtiradigan yoritilganligini kamaytirish uchun sutli, opalli yoki xiralantirilgan kolbalardan foydalaniladi. Ammo bunday kolbalarda nur oqimini 20%-gacha yo'qotiladi. Bahzi lampalarda kolbani ichki sirtiga ko'zguli yoki diffuzli changlatish ko'rinishida tayyerlangan qaytargich ko'zda tutilgan.

DRL turdagi lyuminoforli, AAl simobli lampalar ikki kolbaga ega (rasm 21.11, b). Tashqi kolba 7 ichkarisidan lyuminofor 8 bilan qoplangan, uning vazifasi – ultrabinafsha nurlanishni to'lqin uzunligi 570 nm-dan uzunroq, ko'rinadigan, yahni qizil nurlanishga o'zgartirish. Lyuminoformi tarkibiga bog'liq xolda lampani umumiy oqimida uni nurlanish ulushi 6...10%. Lyuminoformi xususiyatlarini stabillashtirish uchun tashqi kolba SO₂ bilan to'ldirilgan.

DRL lampasini yondirish uchun kvartslı razryad trubkani ichiga qo'shimcha elektrod 5-lar kiritilgan, ular cheklovchi rezistorlar 6 orqali qarama-qarshi elektrod 2-larga ulangan. Lampa tarmoqqa drossel bilan ketma-ket ulanganda razryad avval yonma-yon asosiy va qo'shimcha elektrodlar orasida paydo bo'ladi. Bu bilan hosil qilingan razryad oralig'ini ionlanishi asosiy elektrodlar orasida razryad paydo bo'lishiga olib keladi, undan keyin qo'shimcha elektrodlar ishlamay qolishadi (rasm 21.13).

DRL lampalarda lyuminoforli tashqi shisha kolba tufayli energiya balansi **DRT** lampalarnikiga qaraganda boshqacha: ultrabinafsha nurlanish yo'q, ko'rinadigan nurlanish 17%, infraqizil nurlanish – 14, issiqlik isroflari – 69%. Energiyani anchagina yo'qolishlari tashqi kolbani 220...280°S-gacha qizishiga olib keladi.

DRL lampasidagi lyuminofor simobli razryadni ko'rinadigan nurlanishini spektral tarkibini yaxshilaydi. Ammo rang uzatish sifati nomaqbul bo'lib qoladi va lyuminescent lampalarnikiga qaraganda ancha yomon.

Metallgalogen lampalar (rasm 21.11, v) **DRL** lampalardan lyuminofor qoplamasi yo'q tashqi kolbani shakli va razryad trubkada qo'shimcha yondiruvchi elektrodلarni yo'qligi bilan farq qiladi. SHuning uchun lampalar tarmoqqa maxsus impulsg'sli yondiruvchi uskuna-**IYoU**-lar mavjud sxema bo'yicha ulanadi (rasm 21.13, b), ular yuqori 2...6 kV kuchlanishli impulsg'slar generatsiyalaydi.


Yorituvchi yuqori bosimli razryadlanuvchi lampalarni asosiy xarakteristikalari.

Tok o'tkazuvchi materiallarga elektr uchqunlar bilan ishlov berish

Elektr uchqunlar bilan yoki elektr eroziya ishlov berish usuli. Elektr eroziya qurilmalarini elektr jihozlari.

Elektr uchqunlar bilan yoki elektr eroziya ishlov berish usuli. Tok o'tkazuvchi materiallarga elektr uchqunlik yoki elektreroziya ishlov berish usuli – bu elektr uchqunlar tahsirida elektrodlar materiallarida eroziya (buzilish) sodir bo'ladi. Bunda ishlov zonasida zagotovka materiali eriydi yoki bug'lanib, suyuq yoki gaz xolatida chiqarib tashlanadi.

Elektrodlarni eroziyasi mustaqil razryadni hamma turlarida sodir bo'ladi, ammo uchqunli elektr razryadda eng katta effektga erishiladi. Suyuq yoki gaz muhit bilan ajratilgan elektrodlar orasidagi kuchlanish teshilish kuchlanishi deyiladigan kritik qiymatga yetganda uchqun razryad hosil bo'ladi. Natijada elektrodlar orasida ionlashish sodir bo'ladi, keskin (10^{-7} s vaqt mobaynida) razryad oralig'ini qarshiligi o'zgaradi (megaomni birlaridan o'nlar va birlar omgacha) va tokni quvvatli impulsg'si paydo bo'ladi. Uchqunli razryadni davomiyligi kichik ($10^{-2} \div 10^{-7}$ s), shuning uchun metallni erigan tomchilarini ajrab, chiqib ketishi portlovchi (impulsg'sli) xarakterga ega. Bunda razryad zonasida metall va suyuqlik bug'laridan gazli pufak paydo bo'ladi va metall tomchisiga bug'lar va dinamik kuchlar tahsiri



Rasm 16. Elektr eroziya razryadini rivojlanishini sxemasi: 1-elektrod-asbob; 2-elektrod-buyum; 3-ishchi suyuqlik; 4-gazli pufakcha; 5-erigan metall; 6-erigan metallni sharchalari.


natijasida u chiqarib tashlanadi va ishchi suyuqlikda sharchalar ko'rinishida qotib qoladi (rasm 16).

Erigan tomchi ajragandan keyin anod sirtida (zagotovka, buyum) piyolasimon chuqurlik qoladi; pielani o'ta qizib turgan tagi razryad kanalini plazmasi bilan o'zaro tahsirga kirishadi va yangi kimeviy birikmalarni hosil qiladi, ular esa anod ichiga diffuziyalanadi. Ishlov olaetgan materialni sirtiy xususiyatlarini o'zgartirish usuli shu xodisasini ishlatishga asoslangan (detallarni elektr uchqunlar bilan mustahkamlash).

Elektr eroziya qurilmalarini elektr jihozlari

Elektr eroziya qurilmalarini elektr jihozlari tarkibiga manba - impulsg'slar generatori, ishchi ahzolarini siljitish elektr yuritmalari (elektrod-asbob, elektrod-buyum, ishchi stol), ishchi ahzolarini uzatishlarini sozlovchilari, ishchi suyuqlik bilan tahminlash sistemasi, boshqarish va himoyalash sxemalari kiradi.

Impulsg's generatori elektr eroziya qurilmasini eng muhim zvenosidir, ishlov berishni sifati uning xarakteristikasiga bog'liq. Eng oddiy va keng tarqalgan generator - bu **RS**-generatoridir (rasm 17).



Rasm 17. RC-generator sxemasi (a), razryaddagi kuchlanish (b) va tok (v) impulsg'slari.


Generator tokni chegaralovchi qarshilik orqali energiya to'plovchi kondensatorlar batareyasi C-ni tahminlaydigan o'zgarmas tok manbasi 1-dan iborat. Elektrod 2-lar batareyaga parallel ulanadi. Batareya

kondensatorlaridagi kuchlanish elektrodlararo masofa teshilguncha eksponenta qonuni bilan o'sadi (rasm 17, b). Bu onda kuchlanish keskin pasayadi va elektrodlararo masofadan tok impul'g'si o'tadi (rasm 17, v). Kuchlanish yey kuchlanishidan pasayganda razryad to'xtaydi. Keyin tsikl qaytariladi.

Bu turdagi impul'g'slar generatorini (**RC**-sxemani) kamchiligi - tok chegaralovchi qarshilikda energiyani katta sarflari va ikki qutbli impul'g'slar olish mumkin emasligi. Rasmdan (17, v) ko'rinib turibdiki, bahzi vaqtlarda kichik bo'lsa ham teskari qutbli tok bo'ladi. Ammo teskari qutbli bu toklar to'g'rilagichlar ulab yo'qotilishi mumkin.

Generatorlarni mukammalroq sxemalarida kommu-tatsiyalovchi jihozlar va boshqa sxema yechimlari ko'zda tutilgan. Xususan, lampali va tiratronli impul'g'slar generatorlari yuqori kuchlanish tarmog'iga kondensator batareyasi va elektrodlar orasiga pastlatuvchi impul'g's transformatorlarini o'rnatib, ulanishlari mumkin. Kommutatsiyalovchi jihozlar sifatida tiristorlar va tranzistorlar ishlatiladi. Davomiyligi uzunroq impul'g'slar olish uchun (masalan, detallarga xomaki ishlov berish uchun) maxsus o'zgaruvchan tok generatorlari ishlatiladi. Ikki qutbli impul'g'slar beradigan **MGI-3** turdagi generatorlar ishlab chiqilgan. Ular **PN-290** turdagi o'zgarmas tok mashinasi asosida yaratilgan va katta toklarga (100-lar va 1000-lar A) va chastotasi 1000 Gts-gacha past kuchlanishlarga mo'ljallangan. Bundan tashqari, **OPI-8/100** turdagi tashqi to'g'rilagichli elektr mashina induktorli generator ishlab chiqilgan va hokazo.


Elektr eroziya ishlovni ishlatilishini asosiy turlari rasm 18 va 19-larda



keltirilgan.

Rasm 18. Elektr eroziya ishlovda bajariladigan texnologik operatsiyalar: a-v-teshiklar hosil qilish; v-bo'shliqlarni hajmiy shakllash: 1-elektrod-asbob; 2-zagotovka.

Mexanik ishlov berish mumkin bo'lmagan qattiq aralashmalar va mustahkamlangan po'latdan tayerlangan buyumlarni shaklini o'zgartirishda elektr eroziya usuli juda effektivdir. Bunda asbobga kuchli tahsir yo'q, bu esa usulni asosiy afzalligidir.



Rasm 19. Profillanmagan (sim) asbob bilan elektr eroziya ishlovni sxemasi: 1-impul'g'slar generatori; 2-zagotovka; 3-ingichka mis yeki volg'fram sim (elektrod-asbob); 4-tepadagi qaltak; 5-kesilayotgan

detalni (profil) shakli; 6,7-z va y o'qlar bo'yicha siljitish yuritmalari.

Ultratovush qurilmalari

Ishlovni ultratovush usullari. Ultratovush qurilmasini asosiy vazifasi. Ultratovush chastotasini manbalari. Magnitostriksiya. Pg'ezoelektrik o'zgartirgichlar. Ultratovushni texnologik jarayonlarda ishlatishni uch asosiy soxalari. Ultratovush yordamida texnologik jarayonlarni tezlashtirish. Sanoat qurilmalari. Ultratovushni oziq-ovqat va boshqa sanoatlarda qo'llash. Ultratovush yordamida texnologik jarayonlarni nazorat qilish.

Ultratovush va uning tahsiri. Ultratovush – bu odam qulog'i eshitadigan chegaradan yuqori chastotali muhitni davriy mexanik tebranishlari. Elastik mexanik tebranishlarni chastotaga bog'liq xolda infratovush (16 Gts-gacha), eshitiladigan tovush (16-dan $20 \cdot 10^3$ Gts-gacha), ultratovush ($20 \cdot 10^3$ -dan 10^{10} Gts-gacha), gipertovush (10^{10} Gts-dan yuqori).

Tebranishlar elastik muhitda bosim to'liqlari ko'rinishida tarqaladilar. Muhitda tarqalayotgan garmonik ultratovush to'liqin tenglamasi:

$$\alpha = A_m \sin \omega \tau,$$

bu yerda: α -muhit zarrachasini muvozanat xolatiga nisbatansiljishi, m; A_m -siljish amplitudasi, m; $\omega = 2\pi f$ -aylanish chastotasi, s^{-1} ; τ -vaqt, s.

Tebranayotgan material zarrachani tezligi

$$\mathcal{G} = d\alpha/dt = A_m \omega \cos \omega \tau,$$

tezlanish esa

$$b = d\mathcal{G}/d\tau = -\omega^2 A_m \sin \omega \tau.$$

Ultratovush to'liqinni tarqalishini tezligi s to'liqin uzunligi λ bilan quyidagi nisbatda bog'langan:

$$s = f\lambda.$$

Zichligi ρ muhitda s tezlik bilan tarqalayotgan ultratovush to'liqlarni bosimini amplitudasi:

$$\epsilon'_m = \rho c \omega A_m = \mathcal{G}_m \rho c = \mathcal{G}_m z_0,$$

bu yerda: $\mathcal{G}_m$ -zarrachalarni tebranish tezligini amplitudasi ($\mathcal{G}_m = A_m \omega$); $z_0 = \rho c$ -muhitni solishtirma akustik qarshiligi.

Elastik tebranishlarni tarqalishida energiya uzatilishi materiyani ko'chirilishi bilan bog'liq emas. Energiya davriy ravishda potentsialidan kinetikka o'tadi va buning aksi.

Ultratovush to'liqinni hajm birligidagi energiya yoki energiyani zichligi

$$E = 0,5 \rho \omega^2 A_m^2.$$

Ultratovush tebranishlarni intensivligi, yoki ultratovushni kuchi I , Vt/sm^2 , deb vaqt birligida ultratovush to'liqinni tarqalish yo'nalishiga perpendikulyar maydoni birlik maydonchadan o'tayotgan energiyani aytiladi:

$$I = Ec.$$

Ultratovush tebranishlarda texnologik obyektlarga tahsir etish uchun ishlatiladigan bahzi bir effektlar ham bo'ladi.

Suyuqlikni kavitatsiyasi, yoki uni yaxlitligini buzilishi, o'zgaruvchan ultratovush bosim bilan bog'liq. Cho'zilish yarim davrida suyuqlikda bo'shliqlar hosil bo'ladi, ular siqilish yarim davrida yopilib, yuqori zarba bosimlarni vujudga keltiradi.

Modda tomonidan ultratovush tebranishlarni yutilishi - qaytmas jarayon (energiya moddani isitish va tuzilish tarkibini o'zgartirishga sarflanadi).


Bundan tashqari, ultratovush maydonlarda zarrachalarni koagulyatsiyalanishi va maydalanishi, suyuqliklarni gazsizlanishi va boshqa xodisalar bilinadi.

Biologik obyektlarda hamma faktorlarni kompleks tahsiri kuzatiladi, ularni yig'indisi membranalar yaqinidagi ultratovushni hujayra membranalari va muhitni zarrachalariga tahsir o'tkazadi.

Ultratovushni membranalar singdiruvchanligini o'zgartiradigan minimal intensivligi $0,01 \text{ Vt/sm}^2$ -ga yaqin. Yuqoriroq qiymatlarda ($0,1 \text{ Vt/sm}^2$ -gacha) hujayra membranalarini singdiruvchanligini o'zgarishlari hujayralarni tuzilish tarkibida va haet faoliyatida ko'rinadigan buzilishlarga olib kelmaydi. Bu qiymatdan yuqori intensivlikda hujayralar shikastlanadi va bu xolat tahsir tugagandan keyin ham bir necha soat saqlanib turadi. 1 Vt/sm^2 -ga yaqin intensivlikda biologik obyektlarda qaytmas o'zgarishlar kuzatiladi va ular buziladi ham.

Ishlovni ultratovush usullari boshqa usullarga qaraganda qator afzalliklarga ega: boshqa usullarda bajarib bo'lmaydigan ishlov va texnologik operatsiyalarni bajarish, unumdorlikni sezilarli oshirish va to'la avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash imkoniyat tug'ilishi. SHuning uchun ular keng qo'llanilib kelmoqda.

Ultratovush qurilmani asosiy vazifasi - sanoat chastotasidagi elektr energiyani ultratovush energiyasiga aylantirish. qurilma (rasm 23) quyidagi asosiy qismlardan iborat: sanoat chastotasidagi energiyani ultratovush ($2 \cdot 10^4 \div 10^8 \text{ Gts}$)



energiyasiga aylantiruvchi generator 1; elektromagnit energiyasini elastik ultratovush tebranishlarga aylantiruvchi vibrator 2; vibratorni kichik

Rasm 23. Detallarga elektrotovush bilan o'lchamli ishlov beradigan qurilmani sxemasi.

ishlov berilayotgan detal 6-ni ish zonasiga suyuqlik amplitudadagi tebranishlarini asbob 4-ni tebranishlarini ancha katta amplitudasiga aylantiruvchi konsentrator 3; keltiruvchi egiluvchan shlang va to'g'rilagich 7-dan iborat.

Ulg'trovush chastotalar manbalari sifatida o'z-o'zini uyg'otuvchi generatorlar (yuqori chastotalilarga o'xshash), uzluksiz ishlaydigan tiristorli va tranzistorli o'zgartirgichlar, mashina generatorlari xizmat qiladi.

UZG-10 (quvvati 10 kVt va ish chastotasi 18-24 kGts) turdagi lampa generatori eng ko'p tarqalgan.

Magnitostriktsion (ilgarilab qaytib tebranuvchi) va pg'ezelektrik (radial tebranuvchi xalqali) elektrik tebranishni o'zgartirgichlari eng ko'p qo'llanilib kelmoqda.

Magnitostriktsiya. Bahzi bir metallar (temir, nikel, kobalg't va boshqalari) sterjenlar shaklida bajarilib, magnit maydon tahsirida o'z uzunligini (hajmini o'zgartirmay) o'zgartiradi. Bu hodisa magnitostriktsiya deyiladi va 80 kGts-gacha chastotalarda 20...30 Vt/sm² intensivlikka ega ultratovush olish uchun qo'llaniladi. Magnitostriktsiya musbat bo'lishi mumkin (sterjen uzayadi) va manfiy bo'lishi mumkin (sterjen kaltalanadi). Yuqori chastotali manbadan energiya oluvchi induktiv g'altakni ichiga nikel sterjen qo'yilsa, u magnit oqimnm o'zgarishini (g'altakdagi tokni) chastotasiga proportsional chastota bilan uzunligini o'zgartira boshlaydi. Bunday ultratovush mexanik tebranishlar manbasi vibrator-tebranishlarni kichik amplitudasiga ega. Tebranishlar amplitudasini kattalashtirish uchun vibratorga o'zgarmas tok oladigan qo'shimcha chulg'am kiritib, magnitlanadi.

Pg'ezelektrik o'zgartirgichlarni ish printsipli bahzi bir kristallarni elektr maydon tahsirida o'z o'lchamlarini (qalinlik va hajmni) o'zgartirish xususiyatiga asoslangan. Bu teskari pg'ezelektrik effekt deyiladi va bir necha kGts-dan yuzlab MGts-gacha bo'lgan chastotalardagi intensivligi 10 Vt/sm²-gacha bo'lgan ultratovush tebranishlarni olishga imkon beradi. Ultratovush chastotali yuqori chastota maydon tahsirida kristall deformatsiyalanadi va bu bilan atrof muhitda shu chastota tebranishlar hosil qiladi. Bunday xususiyatga kvarts, segnet tuzi, titan, bariyni titanatidan tayerlangan keramika, qo'rg'oshinni tsirkonat titanatlarini birikmalari ega. **FIK** va tebranishlar amplitudasini ko'tarish uchun o'zgartirgichlar ko'p qatlamli qilib tayerlanadi. O'zgartirgichlarni tebranishlarini maksimal amplitudasi 10 mkmdan oshmaydi, texnologik maqsadlar uchun esa ancha katta amplituda kerak. O'zgartirgichlarni parametrlarini yuk bilan kelishtirish va ultratovush tebranishlarni ish zonasiga uzatish uchun kontsentratorlar yoki tezlikni akustik transformatorlari xizmat qiladi.

Manba ishlab chiqayotgan tebranishlarni quvvati $P = \Delta W S$, bu yerda ΔW -tovush energiyasini zichligi energiya oqimini uni yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan sirtning birligiga nisbati; S -tebranishlar manbasini o'rab olgan berk sirt.

Kontsentratorni hamma kesimlarida tebranishlar quvvati bir xil bo'lgani uchun tovush intensivligining katta kesimdagi qiymati ΔW_1 (vibrator yenida) kichik kesimdagi (ish asbobida) ΔW_2 qiymatiga nisbati kontsentratorni boshlanishi va oxirini kesimlariga teskari proportsionaldir $\Delta W_1 / \Delta W_2 = S_2 / S_1$. Kontsentratorni kesimlarini vibrator yenida katta va asbob yenida kichik deb, tovushning katta intensivliklarini (energiyani mujassamlashganini) olish mumkin.

Ultratovushni oziq-ovqat va boshqa sanoatlarda qo'llash. Ultratovush oziq-ovqat sanoatida ham istiqbolga ega. Uni tahsirida mikroorganizm va bakteriyalar halok bo'ladi. Buni sut, meva sharbatlari va boshqa oziq-ovqatlarni pasterlash uchun ishlatiladi. Jarayonlarni tezlashishini vino tayyorlash misolida ko'rish mumkin. Undan vino toshi, bo'evchi va azotli oqsil moddalarini chiqarib tashlash kerak. Odatda bu jarayon ikki oycha davom etadi. Ultratovush ishlovda esa vino toshini olib tashlash va uni rangini ochish jarayoni vino hidini va tahmini buzmay 80 marta tezroq kechadi. Kimyo va yengil sanoatida ultratovush, masalan kauchuk va tsellyuloza ishlab chiqarishda yuqori molekulali birikmalarni maydalash jarayonlarini, matolarni bo'yash va teriga ishlov jarayonlarini tezlashtirish uchun ishlatiladi.

To'qimachilik sanoatida jun yog'ini sovunlash uchun spirt muxitida 15 soat qaynatiladi. Ultratovushlarda esa 40-50 minutda bajariladi.

qishloq xo'jaligida ultratovushni ekin urug'lariga ekishdan oldin ishlov berish; suyuq oziq-ovqatlarni sterillashtirish; sabzavotlarni saqlash muddatini uzaytirish; hayvonlarni davolash, ularni semirganligini aniqlash; turli materiallarni quritilishini tezlashtirish uchun ishlatiladi.

Ultratovush yordamida texnologik jarayonlarni nazorat qilish. Ultratovush yordamida namuna olmasdan texnologik jarayonni uzluksiz nazorat qilish mumkin. Ultratovushni tarqalish tezligi muhitni fizik-kimyo karakteristikalariga bog'liqligi tufayli tezlikni o'lchab muhitni tarkibi va xususiyatlarini o'zgarishini bilish mumkin, uning kontsentratsiyasini nazorat qilish, qo'shilmalar mavjudligini aniqlash va texnologik jarayonni ketishini kuzatish mumkin.

SHunday qilib, ultratovush qurilmalarni ishlatish imkoniyatlari keng va xilma-xil. Bunga qaramay bu qurilmalar qator kamchiliklarga ham egadirlar: ko'p jarayonlarni katta energiya talabligi va qurilmalarni maxsus tayyorgarlikdan o'tgan xodimlar tomonidan ishlatilishi. SHuning uchun, qaysidir ultratovush usulni ishlatilishini maqsadga muvofiqligi texnik-iqtisodiy hisob-kitoblardan kelib chiqishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Ko'rinadigan optik, ultrabinafsha, infraqizil nurlarni to'lqin uzunlik diapazonini ayting.
2. Optik nurlanishni asosiy energetik kattaliklarini ayting.
3. Nurlanish kuchi nima va uni grafikda qanday ifodalanadi?
4. Nima uchun kvant chiqishi birdan osha olmaydi?
5. Real fotokimyo jarayonni kechishini xususiyatlari nimada?
6. Fotobiologik tahsiri turlarini ayting.

4-Mavzu:Elektrotermik qurilmalar.

Reja

- 1.Elektrotermik qurilmalarni tasniflanishi. Ishlatilish soxalari.

2.Elektrik xarakteristikalar. Metall zagotovkani to'g'ridan-to'g'ri qizdiruvchi qurilma. 3.Oziq-ovqat sanoatida qo'llanilishi.

Elektrotermik qurilmalar. Elektr qizdirish uskunalaridan foydalanish xususiyatlari va afzalliklari. Elektrotermik uskunalarni qo'llashni texnik-iqtisodiy asoslash. O'tkazgichlar, dielektriklar va yarim o'tkazgichlarni elektr qizdirish. Elektr qizdirish dinamikasini asoslari. Issiqlik balansini tenglamasi. Elektr qizdirish usullari va elektr qizdiruvchi uskunalarni tasniflanishi. Elektr qizdirish uskunalarni quvvati va asosiy o'lchamlarini topish. Issiqlik **FIK** va elektr energiyani solishtirma sarfini aniqlash.

Issiqlik tahminotini usullari. Umumiy energobalansni kattagina qismi issiqlik energiyasiga to'g'ri keladi. Issiqlik istehmolchilarini ishlab chiqarish va kommunal-maishiy-larga bo'lish mumkin. Birinchilari issiqlikni xonalarni isitish, ishlab chiqarish xonalarini qaynoq suv bilan tahminlash, maxsulotga issiqlik bilan ishlov berish va boshqa texnologik maqsadlar uchun ishlatadilar, ikkinchilari – turar-joy va jamoa binolarini isitish va qaynoq suv bilan tahminlash, ovqat tayyorlash va va boshqa maishiy maqsadlar uchun ishlatadilar.

Elektrotermik qurilma - elektr bilan qizdirish jihozlari, ular energiya manbaalari va qizdirish jarayonini boshqaradigan apparatlardan iborat kompleksdir.

Elektrotermik qurilmalarda elektr energiyasi issiqlik energiyasiga aylanadi. Oddiy konstruktsiya va yuqori **FIK**-ga ega bo'lganligi tufayli (elektr ener-giya to'la issiqlikka aylantirilsa **FIK** = 1 bo'ladi), ular sanoatni hamma soxalarida, transportda, qurilishda, qishloq ho'jaligida, maishiy haetda keng qo'llaniladi.

Elektr qizdirish uskunalaridan foydalanish xususiyatlari va afzalliklari. Elektr qizdirishda kerakli aniqlik bilan harorat rejimini tahminlash va ishlovchilarni mehnat unumdorligini sezilarli oshirish mumkin. Elektr energiyani issiqlik energiyasiga aylantirishni *elektrotermiya* deyiladigan amaliy fan o'rganadi. Bu termin mahnosida xalq xo'jaligini turli soxalarida elektr energiyani issiqlik tahsiridan foydalanadigan texnologik (elektrotermik) jarayonlarni majmuasi tushuniladi. Elektrotermik qurilmalar elektrlashtirilgan mashinalar kompleksiga yaxshi kiradi, ishga doim tayyer va deyarli xizmat ko'rsatishni talab etmaydi; oson avtomatlashtiriladi, texnologik jarayonlarni yuqori sifatini tahminlaydi. Yong'in havfi kamayadi, gigiena va sanitariya sharoitlari yaxshilanadi, atrof muhitga tahsir bo'lmaydi. qurilmalar sodda, gabaritlari kichik va kam metall talab, qurilish konstruktsiyalariga talablari katta emas. quvvat chegaralari va ishchi harorat nuqtai

nazaridan universal, chunki quvvati bir necha vattidan o'nlab ming kilovattlargacha va haroratlar 15...20°S-dan 20 000°S-gacha.

Elektrotermik qurilmalarni **FIK**-i boshqa issiqlik manbaalaridan foydalaniladiganlarga qaraganda yuqoriroq (70...90%, bahzida undan ham yuqori). Ammo, yoddan chiqarmaslik kerakki, elektr energiyasini eng katta qismi issiqlik elektr stantsiyalarida ishlab chiqariladi. Elektr energiyasini yonilg'idan olish va yana qayta issiqlikka o'zgartirish 30%-ga yaqin umumiy **FIK** bilan bajariladi.

Istehmolchilarni issiqlik bilan tahminlashni turli variantlarini taqqoslashda elektr stantsiya va tarmroqlarni qurilishiga ketadigan sarflarni hisobga olish kerak. Bundan tashqari, yonilg'ini yondirib isitish anchagina sarflarni talab etadi, ular nisbatan kichik va xududiy ajratilgan obyektlarni tahminlashda yana ko'payadi, chunki ularga xizmat ko'rsatish qiyinlashadi, issiqlik tarmoqlarida isroflar ko'payadi, issiqlik berishni rostlash murakkablashadi.

Elektrotermik qurilmalardan foydalanishni texnik-iqtisodiy asoslash. Asoslashda energetik faktorlarni hisobga olish uchun konkret sharoitlardan kelib chiqib, energiyani mahalliy manbaalaridan foydalanadigan issiqlik tahminotini mumkin bo'lgan variantlarini ko'rib chiqish kerak. Bunda ko'rilyatgan xolda qo'llash mumkin bo'lgan issiqlik tashuvchini har bir turi uchun optimal tizimni topiladi. Texnologik faktorlarni ko'rib chiqishda turli energiya tashuvchilardan foydalanuvchi variantlarni texnologik jarayonni talablariga faqat miqdor bo'yicha emas, balki ishlab chiqilayotgan maxsulotni sifat ko'rsatkichlari bo'yicha tahminlaydiganlari taqqoslanadi. Energetik va texnologik faktorlarni hisobga olgandan keyin ko'rib chiqish uchun raqobatbardosh variantlar qoldiriladi va ular kapital va ishlatish sarflar bo'yicha taqqoslanadi. Bunda yagona narxlovchi meer bo'yicha variantlarni taqqoslashga imkon beradigan keltirilgan (hisobiy) sarflar usulidan foydalaniladi. Issiqlikni birligiga to'g'ri keladigan solishtirma keltirilgan sarflar, so'm/kDj:

$$Z = Ye_n K + I,$$

bu yerda: Ye_n —investor uchun mahqul bo'lgan kapital qo'yilmalarni effektivligini koeffitsienti, 0,15 1/yil qabul qilinadi; K —issiqlik tahminoti tizimiga kiritiladigan solishtirma kapital qo'yilmalar, so'm.yil/kDj; I —foydalanish uchun solishtirma sarflar, so'm/kDj.

Solishtirma kapital sarflar, so'm.yil/kDj:

$$K = (K_{us.} + M)/Q_{itt} = K_{us.}(1 + r_m)/Q_{itt},$$

bu yerda: K_{us} —uskuna va materiallarni narxi, so'm; M —montaj narxi, so'm; Q_{it} —issiqlik tahminoti tizimini yillik issiqlik ishlab chiqaruvchanligi, kDj/yil; r_m —montaj ishlariga ajratish koeffitsienti, nisb.birl.

Foydalanish uchun solishtirma sarflar, so'm/kDj:

$$I = (I_a + I_j + I_{mx} + I_{yoe})/Q_{it},$$

bu yerda: I_a —amortizatsiyaga ajratmalar, so'm/yil; I_j —joriy tahmir uchun ajratmalar, so'm/yil [$I_a = r_a K$, $I_{mx} = r_j (r_a$ va r_j —amortizatsiya va joriy tahmir uchun ajratmalar koeffitsienti, nisb.birl.)]; I_{mx} —xizmat ko'rsatuvchilarni mehnatga xaqi, so'm/yil [$I_{mx} = P_{mx} r_{mx} (T_{mx}$ —issiqlik tahminoti tizimiga xizmat qiluvchi personalni yildagi ishini umumiy soatlari, soat/yil; r_{mx} —bir soatga mexnat xaqi, so'm/soat)]; I_{yoe} —issiqlik tahminoti tizimi istehmol qiladigan yonilg'i yoki elektr energiyani narxi, so'm/yil.

Energiya tashuvchi sifatida elektr energiyadan foydalanuvchi variant uchun uni xaqini to'lash bilan bog'liq sarflar, so'm/yil:

$$I_e = W r_e,$$

bunda: W —elektr energiyani yillik istehmoli, kVt·soat/yil; r_e —elektr energiya tarifi (narxi), so'm/ kVt·soat.

Bir yildagi elektr energiya istehmoli, kVt·soat/yil:

$$W = Q_{it}/3600 \eta_{eit},$$

Bunda η_{eit} —elektr va issiqlik tahminoti tizimini umumiy FIK-i.

qattiq yoki suyuq yonilg'idan foydalanishda unga to'lanadigan mablag':

$$I_{yoe} = V(r_{yon.} + r_p l),$$

bu yerda: V —yonilg'ini yillik istehmoli, t/yil; $r_{yon.}$ —yonilg'ini narxi, so'm/t; r_p —yonilg'ini tashish tarifi, so'm/t·km; l —tashish marshrutini uzunligi, km.

Bir yilda istehmol qilinadigan yonilg'i miqdori, t:

$$V = 10^{-3} Q_{it}/Q_{yo} \eta_{it},$$

bu yerda: η_{it} —issiqlik tahminot tizimini issiqlik FIK-i; Q_{yo} —yonilg'i yonishini solishtirma issiqligi, kDj/kg.

Bulardan tashqari, yonilg'ini tashish va saqlash bilan bog'liq boshqa sarflarni ham hisobga olish kerak.

Ko'rilayotgan variantlarni optimalligini meyori – keltirilgan sarflarni minimalligi.

Bahzi xollarda tahminotni variantlarini iqtisodiy effektivligini xo'jalik nuqtai nazaridan baholash uchun sarflarni amaldagi oqlanish muddatini meyoriy muddat bilan taqqoslash usuli ishlatiladi.

Sarflarni amaldagi oqlanish muddati:

$$T_{oq.} = K_e - K_{yo} / (I_{yo} - I_e),$$

bu yerda: K_e, I_e —elektr energiyadan foydalanilganda kapital qo'yilmalar, so'm, va foydalanish sarflari, so'm/yil; K_{yo}, I_{yo} —yonilg'idan foydalanilganda kapital qo'yilmalar, so'm, va foydalanish sarflari, so'm/yil.

Sarflarni oqlanishini meyoriy muddati:

$$T_m = 1/E_m.$$

Elektr energiyasidan foydalanuvchi variant iqtisodiy effektiv bo'ladi, agar:

$$T_{oq.} < T_m.$$

Bunday xolat narxi qiymat maxsus elektrotermik uskunalardan foydalanilganda, $K_e > K_{yo}$ va $I_e < I_{yo}$ bo'lganda, vujudga keladi. Ko'proq $K_e < K_{yo}$ va $I_e > I_{yo}$ bo'ladi. Bunda ko'p bo'lgan foydalanish sarflari kapital qo'yilmalarda tejalgan miqdor bilan kompensatsiyalanadigan muddat T_k topiladi:

$$T_k = K_{yo} - K_e / (I_e - I_{yo}).$$

Elektr energiyadan foydalanadigan variant iqtisodiy oqlanadi, agar

$$T_k > T_m.$$

Issiqlik bilan tahminlash variantlarini iqtisodiy taqqoslashda hisobga olish kerakki, birlamchi energiya tashuvchi sifatida elektr energiyadan foydalanishda bahzi xollarda istehmolchilarni issiqlik bilan eng to'la va aniq tahminlash tufayli bo'ladigan texnologik effekt hisobiga qo'shimcha iqtisodiy samara olinadi.

Bahzida elektr qizitishni faqat iqtisodiy faktorlar tufayli emas, balki sotsial faktorlar, masalan, ishlab chiqarishni havfsizligini oshirish, atrof muhitni ifloslanishini kamaytirish va boshqalar tufayli qo'llaniladi.

O'tkazgichlar, dielektriklar va yarim o'tkazgichlarni elektr qizdirish.
O'tkazgichdan (solishtirma qarshiligi γ) I tok oqqanda ajraydigan energiyani
aniqlaymiz (rasm 2.1,a). Buning uchun o'tkazgichda cheksiz kichik tsilindrsimon
 $dV=dl dS$ asoslari dS bo'lgan hajmni olamiz, asoslan potentsialli bo'lib, bir biridan
 dl masofada bo'lishadi.

Hajm elementini asosidan o'tayatgan tok $dI=j dS$ va ko'rilayotgan hajmni asoslari orasidagi potentsiallar ayirmasi $dU=E dl$ bo'lsa, vaqt birligida yutiliyotgan energiya:

$$d' = dI dU = j dS E dl = j E dV.$$


Hajm birligida vaqt birligida ajrayotgan energiya:

$$' = d'/dV = j E = \gamma E^2 = E^2/\rho = j^2/\gamma = \rho j^2,$$

bunda ρ —o'tkazgichni solishtirma elektr qarshiligi.

Hajm birligida vaqt birligida ajrayotgan energiyani solishtirma quvvat deyiladi.

Oxirgi tenglama eng umumiy differentsial shaklda Lents-Djoulg' qonunidir va shaklidan qathiy nazar



Rasm 2.1.

O'tkazgichlar (a) va dielektriklar (b) elektr maydonida, elektronli (v) va dipolli (g) qutblanadigan dielektriklar uchun vektor diagrammalar.

har qanday o'tkazgichlar uchun qo'llanilishi mumkin.

Bu tenglamadan foydalanib, hajmi V o'tkazuvchi muhit yutayotgan quvvatni topish mumkin:

$$\epsilon' = \int_V E^2 dV = \int_V \rho j^2 dV.$$

Agar ko'rilayotgan hajmda $\rho = \text{const}$ $j = \text{const}$,

$$\epsilon' = \rho j^2 \int_V dV = \rho j^2 V = \rho j^2 S l = \rho I^2 l / S = R I^2.$$

Olingan tenglama integral shakldagi Lents-Djoulg' qonuni bo'lib, elektr tok oqqanda o'tkazgichda ajrayotgan issiqlik miqdorini belgilaydi.

Dielektriklar. O'zgaruvchan tok generatorini qisqichlariga ulangan yassi kondensatordagi elektromagnit jarayonlarni ko'rib chiqamiz. Potentsiallar ayirmasi (kondensatordagi kuchlanish) τ vaqt bo'yicha garmonik qonunga binoan ω

burchak chastota bilan o'zgaradi va plastinalar orasidagi bo'shliq dielektrik singdiruvchanligi ϵ bo'lgan modda bilan to'ldirilgan (rasm 2.1,b).

Dielektrikda o'zgaruvchan magnit maydon tahsirida go bir yo'nalishda, go teskarisida qutblanish sodir bo'ladi. Bu zaryadlangan zarrachalarni uzluksiz siljishi – elektr tokidir, uni siljish toki deyiladi, u kondensatordagi kuchlanish bilan faza bo'yicha to'g'ri kelmaydi. qutblanishni bahzi turlarida, masalan, elektronli, dielektrikni zaryadlangan zarralari elektr maydon tahsirida hech qanday kechikmasdan siljishadi. Eng katta siljish kuchlanish noldan o'taetganda sodir bo'ladi, chunki bu onda qutblanish intensivroq bo'layatgan bo'ladi. SH.q., dielektrikdagi siljish toki kuchlanishdan davrni choragiga oldinda bo'ladi, yoki 90° -ga (rasm 2.1,v), va qutblanish energiya sarfismz sodir bo'ladi, yahni:

$$\dot{Q} = UI \cos \varphi = 0.$$

Dipolli qutblanishni boshqa turlarida dielektrikni zarralari kuchlanishga nisbatan kechikish bilan siljiydilar, siljish toki kuchlanish vektoridan $\varphi < 90^\circ$ burchakka oldinlab ketadi (rasm 2.1,g). To'la tok tarkibida faza bo'yicha kuchlanish bilan to'g'ri keladigan I_a tashkil etuvchisi paydo bo'ladi. Bu xodisa zarralar orasida tahsir etuvchi ichki kuchlar ularni elektr maydon yo'nalishida yo'naltirilishiga qarshilik qilishlari bilan bog'liq. Bu kuchlarni yengish uchun dielektrikda issiqlik ko'rinishida ajraluvchi elektr energiyani sarflash kerak, yahni:

$$\dot{Q} = UI \cos \varphi.$$

Dielektriklarni isroflar burchagi deyiladigan δ burchak φ burchakni 90° -gacha to'ldiradi va issiqlikka aylantirilgan yutilgan elektr energiyasini xarakterlaydi. Bunda yuqoridagi tenglamani yozish mumkin:

$$\dot{Q} = UI \sin \delta. \quad (2.8)$$

Siljish toki $I_{sil.}$ va to'la tok I quyidagi nisbat bilan bog'langan

$$I = I_{sil.}/\cos \delta, \quad (2.9)$$

siljish toki

$$I_{sil.} = U\omega C, \quad (2.10)$$

bu yerda: ω —burchak chastota, s^{-1} ; C —kondensator sig'imi, F.

Ishchi kondensatorni sig'imi, F:

$$S = S\varepsilon/d.$$

Bu yerda: S –plastinalar maydoni, m^2 ; ε –materialni dielektrik singdiruvchanligi, F/m ; d –plastinalar orasidagi masofa, m .

Issiqlik balansini tenglamasi. Ko'rib chiqilgan qizdirish va sovitish jarayonlari statsionar emas, chunki materialni issiq bo'lishi va uning harorati bilan bog'liq. Kelayatgan issiqlik energiyasi uning sarfiga tengligida issiqlik balansi sodir bo'ladi.

Umumiy xolda issiqlik energiyasi elektrotermik uskunalarda materialni qizdirish va fazoviy o'zgartirish (bug'lanish, erish)-ga foydali sarflanadi. Bahzi turdagi elektrotermik uskunalarni ishlashida fazoviy o'zgartirish yo'q bo'lishi mumkin. Issiqlik energiyasini mahlum qismi yordamchi uskunalar (saqlaydigan idish, ishlov joyiga yuklash maslamalari)-ni qizdirishga sarflanadi. Issiqlik isroflari hamma elektrotermik uskunalarda albatta mavjud.

Elektrotermik uskunalarga issiqlik energiyasi elektr qizdirgichdan keladi, unda elektr energiyasi issiqlik energiyasiga o'zgartiriladi. Bundan tashqari, issiqlik qizdirishga mo'ljallangan obhektni komplektiga kiruvchi turli elektr uskunalardan ham kelishi mumkin. Issiqlik manbaalari – bu elektr dvigatellar va yoritish uskunalari, ular elektr energiyasini 20%-dan 90%-gacha qismini issiqlikka aylantirishadi.

Issiqlik energiyasi hayvon yoki o'simlik bo'lgan biologik obyektlardan ham kelishi mumkin.

Issiqlik balansi tenglamasi:

$$\Sigma Q_{kel.} = \Sigma Q_{sarf.}, \quad (2.32)$$

bunda: $\Sigma Q_{kel.}$ –kelayatgan issiqlik energiyani yig'indisi; $\Sigma Q_{sarf.}$ –sarflanayotgan issiqlik energiyani yig'indisi.

Aytilganlar hisobga olinsa (2.32) yangidan yozilishi mumkin:

$$Q_{eq.} + Q_b. + Q_{eu.} = Q_{foy.} + Q_{yord.} + Q_{isr.}, \quad (2.33)$$

bu yerda: $Q_{eq.}$, $Q_b.$, $Q_{eu.}$ –elektr qizdirgichlar, biologik obyektlar va elektr uskunalarni issiqlik energiyasi; $Q_{foy.}$ –foydali sarflanadigan energiya; $Q_{yord.}$ –yordamchi uskunalarni qizdiradigan energiya; $Q_{isr.}$ –issiqlik isroflar energiyasi. Hammasida Q Dj, yahni Vt·s birlikda o'lchanadi, yoki kDj, MDj, Vt·soat.

To'g'ridan to'g'ri qizdiruvchi elektrotermik qurilmalar

Elektr bilan qizdirish usullari va elektrotermik qurilmalarni tasniflanishi. Ishlatish soxalari. Elektrik xarakteristikalar. Metall zagotovkani to'g'ridan-to'g'ri qizdiruvchi qurilma. Oziq-ovqat sanoatida qo'llanilishi. Elektroplazmoliz. To'g'ridan-to'g'ri qizdiruvchi elektr pechlari.

Elektr bilan qizdirish usullari va elektrotermik qurilmalarni tasniflanishi. Elektrotermik qurilmalarni konstruksiyalarini juda ko'p turlari mavjud. Ular qizdirish turi, o'lchamlari va quvvati bo'yicha ajratiladi, ammo tasniflash ancha murakkab.

Elektr energiyasini issiqlikga aylantirish usuliga qarab elektrotermik qurilmalarni shartli ravishda 8 guruhga bulish mumkin:

1. Qarshilik bilan qizdirish.
2. Elektr yoy bilan qizdirish.
3. Induktsion qizdirish.
4. Dielektrik qizdirish.
5. Termoelektrik qizdirish.
6. Elektron qizdirish.
7. Nur bilan (lazerli) qizdirish.
8. Konbinatsiyalangan usullar.

Har bir guruhga har xil printsipda ishlaydigan, tuzilish va vazifasi ham har xil qurilmalar kiritiladi. Masalan, qarshilik bilan qizdirish qurilmalari bevosita va bilvosita qizdiradiganlardan iborat.

Bevosita qizdiruvchi elektrotermik qurilmalarda qizdiriladigan tok o'tkazuvchi buyum (material) elektr zanjirga to'g'ridan-to'g'ri yoki pasaytiruvchi transformator orqali ulanadi.

qizdirilayotgan buyumdan tok o'tganda (uning qarshiligi 0-emas) elektr energiya issiqlik energiyasiga aylanadi. Joulg'-Lents qonuniga binoan tok o'tganda ajraydigan issiqlik

$$Q = I^2 R T, \quad ()$$


bu yerda **I**-tok, A; **R**-qarshilik, Om; **T**-vaqt, s; **Q**-issiqlik, joulg'da o'lchanadi.

Ishlatish soxalari. Bevosita qizdirish qurilmalari shtamplash va shakl berish, qator buyumlarni mustahkamlash, sim va lenta ishlab chiqarishda, bahzi yuqori haroratli kimyo termik jarayonlarda (ko'mir elektrodnlarni grafitlash, karborund ishlab chiqish), oziq-ovqat, shisha pishirish sanoatlarida, muzlagan trubalarni eritishda va boshqalarda keng qo'llaniladi. Bevosita qizdirish qurilmalariga isitish va qaynoq suv bilan tahminlashga xizmat qiladigan elektrodli suv isitish va par hosil qilish qozonlari kiradi.

Elektrik xarakteristikalar. Odatda bevosita qizdiriluvchi buyumni qarshiligi oz shuning uchun kerakli quvvatni ($P = U^2/R$) nisbatan past kuchlanishlarda – birlardan o'nlargacha V-larda olish mumkin. Undan tashqari ishlov olayotgan buyumlar va materiallarni elektr qarshiligi tashqi sharoit, shakl va geometrik o'lchamlarga bog'liq bo'lishi mumkin. SHu sababli bevosita qizdirish qurilmalarida o'zgaruvchan tok va transformatorlar qo'llaniladi. Bu bilan ikkilamchi kuchlanishni rostlash diapazoni keng bo'ladi. Bunday

transformatorlarni ikkilamchi chulg'amlari katta toklar tufayli bitta o'ram shaklida bo'lishi mumkin.

Metall zagotovkani to'g'ridan-to'g'ri qizdiruvchi qurilma. Rasmdagi bevosita qizdirish sxemasida qizdirilayotgan zagotovka 3 qisuvchi qurilma yordamida 2 kontaktlarga ulanadi, ular esa transformator 1-ga ulangan. Kontaktlar yuqori o'tkazuvchanlikka va mustahkamlikka ega materialdan og'ir vaznli qilib



Rasm 26. Metall zagotovkani to'g'ridan-to'g'ri qizdiruvchi qurilmani printsiptial elektr sxemasi.

tayerlanadi. Ko'pincha ularni ichini bo'sh qilinadi va suv bilan sovutiladi.

To'g'ridan-to'g'ri qizdiruvchi jihozlarni afzalliklari quyidagilar: zagotovkani tezda (bir necha yoki o'nlar sekundda) qizdirilishi tahminlanadi, bu esa yuqori unumdorlikni, issiqlikni oz sarflarini va katta **FIK**-ni tahminlaydi ($\eta = 70-75\%$);

metallni deyarli oksid plyonkaga sarflanmasligi;

qurilmani kichik gabaritlari va ish sharoitini yaxshilanishi.

qurilmalar kamchiliklariga murakkab shaklli detallarni har xil kesimlarda tok zichligi bir xil bo'lmaganligi sababli bir xil qizdirilishini tahminlab bo'lmashini kiritish mumkin.

O'tkazgichni kesimidagi tok zichligi sirt effekti, yahni tokni sirt qatlamlariga chiqazib yuborilishi tufayli o'zgarib turadi. Bu issiqlikni tekis ajramasligiga va zagotovka materialini aktiv qarshiligini o'zgarishiga olib keladi. Metallni sirt qatlamida singish chuqurligi δ_e -ga teng qalinlikda energiyani 86,8%-zi ajraydi. Taxminiy hisoblarda issiqlikni hammasi sirt (aktiv) qatlamda ajraydi deb hisoblanadi. SHularni hisobga olib, qiziydigan qalinlikni taxminiy ifodadan topiladi:

$$\delta_e = 503 \sqrt{\rho \mu_r f} \quad (12)$$

bu yerda μ_r -zagotovka materialni nisbiy magnit singdiruvchanligi; ρ -solishtirma qarshilik, Om.m; f -tok chastotasi, Gts.

Oziq-ovqat sanoatida qo'llanilishi. Bevosita qizdirish usuli oziq-ovqat sanoatida non pishirishda, xamirni isitishda, muzlagan mayda baliqni muzini eritishda va boshqalarda ishlatiladi.


Xamir va boshqa suv bilan un aralashmalari yarim dispers tarkibida bo'ladilar va ionli o'tkazuvchanlikka egadirlar. Bu aralashmalardan o'zgaruvchan tok o'tkazilsa, aralashma tekis qiziydi, bu esa massani hammasini bir jinsli bo'lishini tahminlaydi, tepa qatlamlarni o'ta qizishiga va qotgan qismlarni hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

Elektr kontakt usulida non pishirishda elektr toki dielektrik qolipga metall plastinkani elektrodlar orqali keltiriladi. Elektrodlar qolipni yon sirtidir, tok o'tganda xamirda issiqlik ajraydi va uning hajmi tez va tekis qiziydi. Bu non pishirishni elektr kontakt usulini asosiy afzalligidir. Non yuqori sifatli, silliq kuydirilmagan, uzilish va ajunglarsiz chiqadi, yumshoq elastik va tekis

taqsimlangan havo pufakchalari va namlik bilan chiqadi. Pishirish vaqti bir necha marta kamayadi, 127 V kuchlanishda yaqin 10 minutni tashkil qiladi. Non vaznini kamayishi ancha kichiklashadi. Elektr kontakt usul issiqlik rejimini oson va aniq sozlashga va jarayonni tula avtomatlashtirishga imkon beradi. Elektr energiyani solishtirma sarfi non pishirish usulini qizdirishni anhanaviy radiatsion-konvektiv usuliga qaraganda 2-2,5 marta oz. Kamchiligi - non sirtlarida qotgan qatlam yo'qligidir. SHuning uchun elektr kontakt usul biskvitlar, suxarilar tayyorlash va qotgan qatlamli non pishirish uchun ishlatiladi. Bu kamchilik pishirishni kombinatsiyalangan usulida bartaraf etilishi mumkin.

CHastotasi 50 Gts-li o'zgaruvchan tok bilan bevosita qizdirish baliqni qayta ishlash korxonalarida muzlatilgan mayda baliqni bloklarini muzdan tushirish uchun ishlatiladi. Elektr kontakt usuli bilan sanoat korxonalarida meva va sabzavotlarni konservalashda ishlov berish (elektroplazmoliz) uchun ishlatiladi. *Elektroplazmoliz*. Elektroplazmoliz jarayoni oziq-ovqatlarni tez aylanayotgan elektrodlar orasidagi oraliqdan o'tqazishdan iborat. Elektrodarga 100 V o'zgaruvchan kuchlanish berilgan bo'ladi.

Bu usulda maxsulotlarni hujayralari buziladi va sharbatni chiqishi ko'payadi. *Bevosita qizdirish elektr pechlari*. Bevosita qizdirish elektr pechlari har xil texnologik jarayonlar uchun ishlatiladi: sortli va maxsus shisha massalarini qaynatish, ko'mir buyumlarni grafitlash, karborund ishlab chiqarish va boshqalar.



Rasm 27. SHisha qaynatuvchi elektr pechni sxemasi. SHisha qaynatish pech (rasm 27) ichi yuqori glinozyomlik, magnezitlik yoki boshqa o'tga qarshi materiallardan tayyorlangan bloklar bilan qoplangan va

bir necha bo'limlardan iborat vannadir. Bo'limlar shixtani eritish uchun, shishani qo'shilmalar bilan qaynatish uchun va tayyor massa uchun bo'linadi. SHisha massasidan o'zgaruvchan tok o'tganda ajraydigan issiqlik hisobiga har bir bo'limda belgilangan harorat ushlab turiladi. Tok devor yonidagi va vannaning past qismidagi elektrodlar 2 orqali keltiriladi. SHishani sortiga qarab elektrodlar temirdan, molibdendan yoki grafitdan tsilindir simon, to'g'ri burchak shaklida yoki plastinka shaklida tayyorlanadi. Elektrodarga energiya pasaytiruvchi bir va uch fazali ikkilamchi kuchlanishi rostlanadigan (50-200 V) transformatorlardan keltiriladi. Elektrodlar bir yoki uch fazali guruhlarni tashkil qilishadi. Transformatorlarni quvvati bir necha ming kilovolg'tamperga yetishi mumkin.

Gazda qizdiriladiganlarga qaraganda elektr bilan bevosita qizdiriluvchi shisha pishiruvchi pechlar quyidagi afzalliklarga ega:

- shisha massasini yonilg'ini yonib bo'lgan qoldiqlari bilan o'zaro tahsirini yo'qligi, bu shishani sifatini ancha oshiradi;
- pishirishni jarayoni tezlashadi va pechni termik **FIK**-i ko'tariladi;
- pechni o'lchamlari kichrayadi va ish joyini sanitariya-gigiena sharoitlari yaxshilanadi.

Nazorat savollari:

1. Elektrotermik qurilma nima?
2. Elektrotermiya deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday jarayonlar elektrotermik jarayonlar toifasiga kiradi?
4. Qanday qurilmalar elektrotermik qurilmalar deb ataladi?
5. Elektrotermik qurilmalarni anhanaviy qizdirish qurilmalardan afzalliklari nimada?
6. Birinchi va ikkinchi turdagi o'tkazgichlar nima bilan farqlanadi?

5-Mavzu Elektro'lazmoliz. To'g'ridan-to'g'ri qizdiruvchi elektr pechlari.

Reja

1. Bilvosita qarshilikda qizdiruvchi elektr pechlari. Tasniflash. Kamerali pech. SHaxtali pech.
2. pechlarni elektr uskunalari.
3. pechlardagi xaroratni, quvvatni rostlash.

Bilvosita qarshilikda qizdiruvchi elektr pechlari. Tasniflash. Kamerali pech. SHaxtali pech. Pechlarni elektr uskunalari. Pechlardagi haroratni, quvvatni rostlash.

Bilvosita qarshilikda qizdiruvchi elektr pechlari.

Bilvosita qizdiriluvchi elektr pechlarda elektr energiyasi maxsus qizdiruvchi elementlarda issiqlikka aylanadi. Ulardan esa issiqlik qizdirilayotgan materialga konvektsiya, nurlanish va issiqlik o'tkazuvchanligi yo'li bilan uzatiladi. SHuning uchun ishlov olayotgan materialni elektr xususiyatlari qurilmani ishiga tahsir qilmaydi.

Bilvosita qizdirish elektr pechlar va vannalarda (tuzli, moyli, selitra, qo'rg'oshin to'ldirilgan va boshqalar), elektr kaloriferlarda, suv isitgichlarda va boshqalarda eng ko'p qo'llaniladi.

Tasniflash. Bilvosita qizdirish elektr pechlari eng ko'p tarqagan elektrotermik qurilmalardir va ular bo'linadi:

qizdirish usuliga qarab - davriy yoki uzluksiz ishlaydiganlarga;

texnologik vazifa bo'yicha - metallarga, shishaga, maxsulotlarga, keramikaga, plastmassalarga va boshqa materiallarga termik ishlov berish uchun, erituvchi, qurituvchi va boshqalarga;

harorat rejimi bo'yicha - past haroratli (700°S -gacha), o'rta haroratli (1250°S -gacha) va yuqori haroratli (1250°S -dan yuqori).

Davriy ishlaydigan pechlar kamerali, ajrab chiquvchi listli, shaxtali va qalpoqli bo'ladi. Ular metallarga termik va kimyo-termik ishlov berish uchun, qattiq kavsharlar bilan kavsharlash uchun, korxona laboratoriyalarida (mufelg' pechlar, vakuumli qurituvchi shkaflar, termostatlar va boshqalar) quritish, oziq-ovqat maxsulotlarini pasterlash, non va konditer maxsulotlarini pishirish uchun ishlatiladi. Ular tuzilishi bo'yicha oddiy va ixchamdir. Bu pechlarni xususiyati

shuki, qizdirilayotgan buyum yoki material pechda ishlov berish jarayonida harakatsizdir.


Ommaviy konveyerli ishlab chiqarishda uzluksiz ishlaydigan pechlar qo'llaniladi va ishlov olayotgan buyumlar harorat zonalariga ilgarilama-bo'ylab siljitib turiladi. Siljitish mexanizmini turiga qarab konveyer pechlari (buyum pech ichida konveyer lentasida siljiriladi), suruvchi (detallar surgich bilan siljiriladi), karuselli, barabanli (buyumlar vintli bo'shliqqa ega issiq bardosh barabanga qo'yiladi), tortiluvchi (ishlov olaetgan sim yoki lenta o'raluvchi yoki yechiluvchi jihozlar yordamida siljiriladi) va hokazo.

Uzluksiz ishlaydigan pechlar juda unumdor va termik tsexlarda detallarni urib shakllash, shtamplash yoki termik ishlov berish uchun va kimeviy, shisha ishlab chiqarish, non pishirish, konditer tsexlar va boshqa korxonalarda qo'llaniladi.

Ko'p texnologik jarayonlarda pechni ishchi zonasida vakuum hosil qilish yoki uni inert gaz bilan to'ldirish kerak bo'ladi. SHunga qarab qarshilikli pechlar vakuumli, gaz to'ldirilgan yoki vakuum kompressli deyiladi.

Elektr pechlarda issiqlik almashuv jarayoni katta miqdorda ishchi haroratga bog'liq. Past haroratli pechlarda asosiy rolg' konvektiv usuldagi issiq almashuvda bo'ladi. SHuning uchun ularni nomi konvektiv pechlar. O'rta va yuqori haroratli pechlarda nurli issiq almashuv bo'ladi va ular radiatsion deyiladi.

Futerlangan kamera bo'lgan *kamerali elektr pech* tuzilishi rasm 28-da ko'rsatilgan. Kamera devorlari issiq bardosh g'isht 2 bilan va issiqlik izolyatsiyasi 3 bilan qoplangan, tashqaridan esa listli yoki profillangan po'latdan yasalgan qapqoq 4 bilan yopilgan.




Rasm 28. Kamerali pechni tuzilishi.

Kamerani ichki sirtlarida qizdiruvchi element 1-lar o'rnatilgan. Ular issiq bardosh, katta qarshilikka ega aralashmalardan simli spiralg' yoki lentali to'lqinlar shaklida tayerlanadi. Buyumlar eshikcha orqali kiritiladi va chiqariladi. Kichik pechlarni eshikchalari pedalli yoki pnevmatik, katta pechlarniki

esa elektromexanik yuritmaga ega.

Bu pechlarni asosiy kamchiligi - ishlov beriladigan buyumlarni kiritib-chiqarilishini qiyinligi. Bu operatsiyani mexanizatsiyalash uchun pechlar tagiga pod deyiladigan maxsus futerlangan, buyumni pechga kirituvchi chiqaruvchi aravachalar qo'yiladi, bunday pechlar harakatlanuvchi podli yoki elevatorli pechlar deyiladi. Ularda aravachalar pech kamerasiga gidravlik yoki elektromexanik yuritmali maxsus ko'taruvchi stol yordamida ko'tariladi.



SHaxtali pechlar (rasm 29) o'lchovi uzun, katta gabaritli hamda

Rasm 29. SHaxtali elektropechni sxematik kesimi: 1-korpus; 2-issiqlik izolyatsiyasi; 3-isitgichlar; 4-ishlov berilayotgan buyum.

korzinalardagi mayda buyumlarga termoishlov berish uchun qo'llaniladi. SHaxtasi doira yoki kvadrat kesimli bo'lib, ish zonasi turli o'lchamli va turli haroratda ishlashga mo'ljallanadi. Buyumlarni tushirib-chiqarish pech tepasidagi qapqoq orqali kran yoki telg'fer bilan bajariladi. qapqoq pnevmatik yoki elektromexanik yuritma bilan ochiladi.


Pechlarni elektr uskunalari. Pechlarni elektr jihozlari texnologik vazifa va quvvatga bog'liq. Ularni konstruksiyalari xilma-xil. Kichik quvvatli lari odatda bir fazali qilinadi, o'rta va katta quvvatli lari - uch fazali qilinib, to'g'ridan-to'g'ri 220/380 V tarmog'iga ulanadi yoki maxsus pasaytiruvchi va ikkilamchi kuchlanishi keng diapazonda rostlanadigan elektropechli transformatorlardan energiya oladilar. Toklar katta bo'lgani uchun simlarda sarf katta bo'ladi, shuning uchun transformatorlar pech yaqiniga o'rnatiladi.

Elektr pechlarni boshqarish uchun: isitgichlarni distantsion yoqish, issiqlik zonasini haroratini nazorat qilish va rostlash uchun mo'ljallangan bir zonali maxsus boshqaruv shchitlari chiqariladi.

Boshqaruv shchitlari kuchli zanjirdagi tok kuchi (kommutatsiya apparatlari), issiqlik nazorati asbobini turi va qo'shimcha apparaturani mavjudligi bilan farq qiladi.


SHchitni kuchli jihozlari (rasm 30) uch qutbli avtomatik o'chirgich **QF** va uch qutbli kuchli kontaktor **KM1**-dan iborat. **QF** qisqa tutashtirish toklaridan ximoya qiladigan elektromagnitli ajratuvchi va o'ta yuklanishdan himoya qiluvchi issiqlik ajratuvchisiga ega. SHchitni nazorat rostlovchi qismi quyidagilardan iborat: issiqlik nazorati asbobi (shtrix punktir chiziq bilan ajratilgan), avtomatik yoki noavtomatik ish rejimiga isitgichlarni ulaydigan universal qayta ulagich **SM**, boshqaruv zanjirlarini avtomatik o'chiruvchi **SF** va signal lampalari (**HL1**-sariq rangli, **NL2**-qizil, **NL3**-yashil).

Issiqlik nazorati asbobi (**PTK** yoki **INA**) ikki xolatli rostlagich bo'lib, harorat berilgan (τ_n) miqdordan pasayganda o'rta xolatli kontaktor **KM2**-ni



Rasm 30. Pech zonasini boshqarish sxemasi: a-yordamchi zanjirlar; b-kuchli zanjirlar.

ulaydi va pechdagi harorat (τ_v) yuqori qiymatga yetganda –o’chiradi (rasm 31, v). O’rta xolatli kontaktor kuchli



Rasm 31. Ikki pozitsiyali harorat rostlovchisini sxemasi (a) va pechni ulash grafigi (b).

kontaktor **KM1**-ni boshqa-radi, u esa pechni isituvchi elementlarni ulaydi yoki o’chiradi.

Pechni o’rta quvvati (rasm 31, b) ish rejimiga, berilgan haroratga, qizdirilayotgan materialni massasiga, issiqlik ishlovni davomiyligiga, kiritib-chiqarish vaqtiga va boshqa faktorlarga bog’liq. Ikki xolatli rostlashda bu - kerakli haroratni ushlab turish uchun kerak quvvat deb tushuniladi.

O’lchov asboblari (ampermetrlar) zanjirga tok transformatorlari (TT) orqali ulanadi.

Pechlardagi haroratni, quvvatni rostlash.

Hozirgi zamon issiqlik rostlovchilari juda kichik nosezgirlik zonasiga ega bo’lishlari mumkin- $0,1 \div 0,2^{\circ}\text{S}$ -gacha. Ammo elektr pechlardagi haroratni xaqiqiy o’zgarishlari k o’pincha bu qiymatlardan ko’p marotaba katta bo’ladi, bunga sabab-rostlagich - pech sistemasidagi dinamik kech qolish, chunki datchik-termoparalar inertsiyaga egadirlar. Bu kech qolish qancha katta bo’lsa, elektr pechdagi harorat tebranishlari shunchalik katta bo’ladi. Bundan tashqari, harorat tebranishlari isitgichlarni quvvatini o’rta quvvatdan ancha kattaligi tufayli ham sodir bo’ladi.

Haroratni tebranishlari katta massadagi jinslarga ishlov berish sifatiga deyarli tahsir qilmaydi, chunki massiv jinslar issiqlikni intensiv qabul qilib, uni akkumulyatorlari bo’ladilar. Kichik massali jinslarga ishlov berilayotganda (yupqa lenta, sim, kimyoviy tola, non maxsulotlar), harorat tebranishlari minimal bo’lishi kerak. Tebranishlarni kamaytirish uchun yuqoriroq sezgirli rostlovchi asboblarni quyilishi kerak, datchik inertsiyasini (vaqt doimiysini) kamaytirish kerak va isitgichlarni quvvat bo’yicha zaxirasini ham kamaytirish kerak.

Isitgichlarni quvvatini quyidagicha yo’llar bilan o’zgartirish mumkin:

- pechlarni isitgichlarini har xil kuchlanishlarga o’tkazish imkonini beradigan rostlovchi transformatorlar orqali ozuqalab;

- isituvchi elementlarni ulanish sxemasini o’zgartirib, masalan uchburchakdan yulduzga o’tkazib;


- pech bilan ketma-ket qarshiliklar yoki reaktiv g’altaklar ulab.

Birinchi va ikkinchi usullar quvvatini faqat pog’onalab, qo’pol rostlashga imkon beradi, chunki quvvat kuchlanishni kvadratiga proporsional (masalan, Δ -dan Y -ga o’tkazilganda quvvat uch marta kamayadi). Uchinchi usul esa quvvatni katta sarflari yoki quvvat koeffitsienti **sos ϕ** -ni pasayishi bilan bog’liq.

Eng progressiv rostlash - bu yarim o’tkazgich asboblarni tiristorlar bilan fazaviy rostlash, tiristorlarini ulanish burchagini boshqaruv sistemasi bilan

o'zgartiriladi, bu xolda minimal sarflar bilan quvvatni tekis rostlashga erishiladi. Ammo tiristorli rostlash murakkab va personalni yuqori malakaliligini talab qiladi.

Bir xil gurux isitgichlarni ulash sxemasini o'zgartirish eng oddiy usuldir va har xil pechlardagi haroratni pog'onali rostlashda qo'llaniladi. Masalan, (rasm 32,a)-da Δ -dan Y-ga o'tilsa, nisbati 1:0,33




Rasm 32. Isituvchi elementlarni qayta ulash sxemasi.

bilan quvvat rostlanadi. Y-dan uchburchakka o'tish elektr pechlarda ularni sovuq xolatda ulanganda tokni keskin o'zgarishini oldini olish uchun qo'llaniladi. Buning uchun **KM2** kontaktor ulangan, **KM1** o'chirilgan bo'lishi kerak. Pech qizigandan keyin **KM2** o'chiriladi, keyin **KM1** ulanadi. **KM1** va **KM2**-larni bir yo'la ulanishlarini oldini olish uchun (yahni qisqa tutashuvni oldini olish uchun), kontaktorlarni boshqaruv zanjirlarida albatta blokirovkalar ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.

Nisbati 1:0,75 bilan ikki pog'onali rostlash juft yulduzdan uchburchakka o'tqazishda bajariladi (rasm 32, b). Bu xolda **KM** kontaktor ulangan xolatdiligida isituvchi elementlar juft yulduz usulida 220 V-ga ulangan bo'ladi. Agar **KM**-ni o'zilsa, isituvchi elementlardagi kuchlanish 190 V-ga tushadi.

Bahzi bir elektr pechlarda isitish elementlarini ko'rilganidan ham



KM1	KM2	KM3	KM4	Номер группы, тип соединения	Мощность %
+			+	I, Y	33
+	+			I+II, Δ	50
+	+	+		I, Y, II, Y	67
+	+	+	+	I, Y, II, Y, III, Y	100

murakkabroq ulanish sxemalari qo'llaniladi va bu bilan quvvatni uch va undan ko'proq pog'ona 1:0,67:0,50:0,33 nisbat bilan rostlash mumkin bo'ladi (rasm 33).

Rasm 33. Isituvchi elementlarni quvvatni to'rt pog'onasiga qayta ulash sxemasi va kontaktorlarni kontaktlarini ulanish jadvali.

Elektr isitgich elementlari. Isitgich elementlarini hisoblash.

Elektr isitgich elementlari. Elektr isitgich elementlari bilvosita qizdiruv qurilmalarida eng muhim jihozlaridir. Talab qilinayotgan texnologik rejimni va pechni ishonchli ishlashini tahminlash ularga bog'liq. Isitgich elementlarga jiddiy talablar qo'yiladi:

-yuqori qizdiruv bardoshlik, oksidlanmaslik, yuqori haroratlarda kesimni, fizik va mexanik hususiyatlarini sezilarli o'zgartirmasdan uzoq muddatlarda ishlash qobiliyati;


-katta solishtirma elektr qarshilik, isitgichlarning uzun bo'lmasligida ham 220/380 V kuchlanishga ulash mumkinligini tahminlash uchun;

-elektr qarshilikni harorat koeffitsientini kichikligi.

Isitgichlar uchun maxsus qizdiruv bardosh aralashmalar (1200°S)-gacha, karborund (kremniy karbiti) 1350°S -gacha haroratda ishlaydigan pechlar uchun, hamda molibden, volg'fram, ko'mir, grafit, molibdenni disilitsitiyuqori haroratli pechlar uchun qo'llaniladi.

Past va o'rta haroratli pechlarni isitgichlari uchun eng ko'p nixromlar (nikel va xrom yoki nikel, xrom va temir aralashmalari) ishlaydi. Eng yaxshi hususiyatlarga 20% xrom va 80% nikelli aralashma ega.

Nikelsiz, alyuminiyli aralashmalar (masalan, **OX23Yu5A**, **OX27105P**) yaxshiroq qizdiruv bardoshlikka ega, ammo ular nixromlarga qaraganda mo'rtroq. Ulardan tayerlangan elektr isitgich elementlari simli spiral (rasm 34, a) va simli yoki lentali to'lqinlar



Rasm 34. Elektr isitgich elementlarini asosiy turlari.

(rasm 34, b) shaklida bo'lib, ochiq, yarim berk va berk bo'lishlari mumkin. Oxirgi xolda isitgich elektr izolyatsiyalovchi va qiyin eruvchi materialdan tayerlangan ekran bilan himoyalangan.

Bilvosita elektr qizdirishda trubkali elektr isitgichlar (rasm 34, v) eng ko'p tarqagan: metall trubka ichida isituvchi spiral bo'ladi. Trubka qizdiruv bardosh dielektrik bilan to'ldiriladi: magniyni eritilgan oksidi (periklaz), kvartsl qum yoki korund. To'ldiruvchi ishonchli izolyatsiyani tahminlaydi va katta issiq o'tqazuvchanlikka ega. Ularni boshqa isitgichlarga qaragandagi afzalliklari: elektr xavfsizlik (trubkani yerga ulab quyilsa), kerakli shakl berib suvga, tuzlarga va press shakllariga qo'yish mumkinligi, ish muddatini kattaligi, tebranishlarda ham ishini ishonchliligi.

Isitgich elementlarini berilgan temperatura rejimida, quvvatda va kuchlanishda **hisoblash** - element tayyorlash uchun materialni tanlash, element uzunligini va uni kesimini topishdan iborat.

Mos materialdan tayyorlangan isitgichni ishini xarorat sharoitlari isitgichni buzmasdan, uning sirtini birligidan olish mumkin bo'lgan quvvat r_{rux} bilan belgilanadi. Bu quvvat isitgichni ruhsat etilgan solishtirma sirtiy quvvati deyiladi

va u isitgichni materialini hususiyatlariga, uning haroratiga va konstruktiv bajarilishiga bog'liq. r_{rux} -ni to'la issiqlik texnikaviy hisob kitobi yetarlicha murakkab va amaliyotda uni qiymatini mahlumotnomalardan olinadi. Ochiq turdagi metalli isitgichlar uchun qiymatlar $r_{\text{rux}} = 1 \div 3 \text{ Vt/cm}^2$.

Isitgich elementini **S** ko'ndalang kesimini sirtini va uning bir bo'yini ikki tenglamani birgalikda yechib topiladi:

$$\epsilon_f = U^2/R = U^2 S / \rho_{\text{ro}} \cdot l, \quad (13)$$

$$R_f = r_{\text{rux}} h l, \quad (14)$$

bu yerda: ρ_{ro} -isitgichni materialini qizigan xolatidagi solishtirma elektr qarshiligi, Om/m ; r_{rux} -ruksat etilgan solishtirma sirtiy quvvat, Vt/m^2 ; h -kesimning perimetri, m ; l -uzunlik, m ; R_f -faza quvvati, Vt ; S -ko'ndalang kesim yuzasi, m^2 .

Bu tenglamalardan $Sh = R^2 \rho_{\text{ro}} / U^2 r_{\text{rux}}$ ko'paytmani topamiz, u har qanday geometrik shakldagi isituvchi element uchun o'zgartirilishi mumkin. Masalan, to'g'ri burchakli kesimga ega isitgich uchun, tomonlarini nisbatini $m = b/a$ belgilab olib, topamiz:

$$a = \sqrt[3]{\frac{P_{\phi}^2 \rho_{\text{en}}}{2m(m+1)U_{\phi}^2 p_{\text{pyx}}}} \quad (15)$$

Odatda lentali isitgichlar uchun chiqarilayotgan lentani sortamentiga bog'liq xolda $m = 5 \div 15$. Lenta yeki sterjenni bir fazaga uzunligi (m):

$$l_f = \frac{R_{ab}}{\rho_{\text{en}}} = \frac{U_{\phi}^2 m a^2}{P_{\phi} \rho_{\text{en}}}, \quad (16)$$

R_{ab} -lentali isituvchi elementning qarshiligi.

Yumaloq kesimli (spiral, simli to'lqin, sterjen) isitgichni hisoblangan diametri (m) quyidagi ifodadan topiladi:

$$d = \sqrt[3]{\frac{4P_{\phi}^2 \rho_{\text{en}}}{\pi^2 U_{\phi}^2 p_{\text{pyx}}}} \quad (17)$$

Sim spiralli isitgichni o'rta diametri mexanik mustahkamlik shartlaridan tanlanadi:

X23Yu5, **X27105T** xromalyuminiyli aralashmalar va **X13Yu4** fexral uchun $D = (4 \div 6)d$;

XN70Yu, **XN60Yu3** nixrom va aralashmalar uchun $D = (7 \div 10)d$.

Spiralning qadami $t_q \geq 2d$ shartga javob berishi kerak, simli to'lqinsimon isitgich uchun esa $t_q \geq 5d$. Lentali to'lqinsimon isitgichni qadami (rasm 34, **b**) mexanik mustahkamlik shartga qarab $t_v \geq 2b$ olish tavsiya etiladi, sirtmoqni balandligi $h_n \leq 100a$.

Nazorat savollar

1. Qanday elektr isitish va elektr qizdirish qurilmalarini bilasiz?
2. Elektrokalofer qanday qurilma, uning belgilanishi va asosiy parametrlarini ayting.

3. Elektr qizdirishni umumiy tenglamasini fizikaviy mazmuni nimada?
4. Qizdirishni vaqti nima bilan belgilanadi?

6-Mavzu:Elektr payvandlash qurilmalari va uni turlari.

Reja

1. payvandlash transformatorlarini sxemalari. Kontaktli payvandlash.
2. To'qnashtirib payvandlash va nuqtali payvandlash.
3. Rolikli (chokli) payvandlash

Payvandlash transformatorlarini sxemalari. O'zgarmas tok payvandlash generatorining misoli. Kontaktli payvandlash. To'qnashtirib payvandlash va nuqtali payvandlash. Rolikli (chokli) payvandlash.


Elektr payvandlash va uni turlari.

Elektr payvandlash-bu metallarni tok o'tqazib erigan yoki yumshagan xolatga keltirib bir-biriga biriktirish jarayonidir.


Yoyli va kontaktli payvandlashlar mavjud.

Yoyli payvandlashda asosiy metall va erib ketadigan metall elektrod orasida paydo bo'ladigan yoy issiqlik manbasidir. Payvandlash yoyini harorati 5000-8000⁰K-gacha bo'lishi mumkin.

44-ncchi rasmda (egri chiziq 1) havoda yonayotgan elektr yoyni statik xarakteristikasi ko'rsatilgan.



Rasm 44. Ochiq (1) va himoyalangan (2) yoyni statik volg't-ampere xarakteristikalari.



Tokning qiymatlari kichikligida yoy kuchlanishi keskin pasayadi. Tok ko'tarilgan sari (taxminan 1000 A-gacha) xarakteristika tokka bog'liq bo'lmay qattiq bo'lib qoladi. Tokning qiymati kattaligida yoy kuchlanishi ko'payadi. Himoyalangan yoy (rasm 44-dagi chiziq 2) tokni ancha kichik qiymatlarida ko'tarilayotgan xarakteristikaga ega, bunga sabab – noavtomatik payvandlashdagi elektrodlarni qoplamasi va avtomatik va yarim avtomatik yoyli payvandlashdagi flyuslardan foydalanish. Elektrod qoplamasi va flyuslarda ionlanish potentsiali kichik bo'lgan elementlar mavjud, bu yoyni turg'un yonishiga yordam beradi, ayniqsa o'zgaruvchan tokda.

Har bir manba payvandlash tokini nominal qiymati va uni rostlanish diapazoni, salt ishlash va yukdagi kuchlanish, **FIK**, quvvat koeffitsienti, ulanish davomiyligi va tashqi xarakteristika bilan xarakterlanadi. Yoy turg'un yonishi uchun manbani tashqi xarakteristikasini shakli yoyni statik xarakteristikasini shakliga to'g'ri kelishi kerak. Manbani tashqi xarakteristikasi shunday bo'lishi


kerakki, yoyni uzunligi o'zgarganda tok qiymati ruxsat etilgan chegaradan chiqmasligi kerak.

Payvandlash o'zgaras yeki o'zgaruvchan tokda bajarilishi mumkin. O'zgaruvchan tok manbasi – payvandlash transformatori, arzon, oddiy va tejamkor, shuning uchun u amalda keng qo'llaniladi.

Payvandlash transformatorlarini sxemalari.

Payvandlash transformatorini ikkita sxemasi mavjud:

- 1) ko'paytirilgan magnit tarqatishli – transformatorni magnit o'tqazuvchisida harakatlanuvchi magnitli shunt bo'ladi (vintlar yordamida siljiriladi), yoki shuntning qo'shimcha magnitlaydigan chulg'am mavjud, yoki harakatlanuvchi chulg'amlar mavjud bo'ladi;
- 2) normal magnit tarqaluvchili va qo'shimcha reaktiv g'altakli-rostlovchi drosselli, u transformatorlardan tashqarida bo'ladi va yoy zanjiriga ketma-ket ulanadi yoki transformator ichida bo'lishi mumkin. Transformatorlarni bir korpusli bajarilishida po'lat sarfi pasayadi, **FIK** va quvvat koef-fitsienti ko'tariladi. Drossel transformatorlarni ichiga joylashganda (rasm 45) payvand tokini tekis rostlash uchun magnit o'tqazuvchini havoli oraliq'i δ o'zgartiriladi. δ -ni nolligida payvand toki minimum, chunki reaktiv chulg'amni magnit oqimi va hosil bo'lgan o'zinduksiya **EYuK**-si maksimal bo'ladi. δ maksimal-ligida tok ham maksimal qiymatga yetadi.



Rasm 45. Ichiga qurilgan drosselli payvandlash transformatorini printsiptial elektr sxemasi: 1-o'zak; 2-birlamchi chulg'am; 3-drosselni ikkilamchi chulg'ami; 4-drosselni birlamchi chulg'ami; 5-payvandlanayotgan detallar; 6-drosselni harakatlanuvchi qismi.

Elektrodlardan birida issiqlikning katta miqdorini ajralish kerakligida, masalan, qalin listlar payvandlashda yoki metallni eritib biriktirishda, o'zgaras tokdagi payvandlash qo'llaniladi. O'zgaras tok yoyni turg'unroq yonishini tahminlaydi. Energiya manbasi sifatida to'g'rilagichlar va o'zgaras tok generatorlari ishlatiladi. Payvandlash to'g'rilagichlari unifikatsiyalashtirilgan va ikkita asosiy elementlardan iborat: rostlovchi jihozli transformatorlar va ventillar bloki. Transformatorlarni konstruksiyasi oldin ko'rilganga o'xshash, ammo asosan uch fazalidir. Payvandlash to'g'rilagichlari asosan uch fazali Larionov ko'priki sxemasida yig'iladi. Ventil-lar selenli yoki kremniyli bo'ladi, oxirgilari qim-matroq, ammo **FIK** kattaroq.

qo'lda ushlab payvandlashda selenli yoki kremniyli to'g'rilagichlar ishlatiladi, avtomatik payvand-lashda kremniyli to'g'rilagichlar ishlaydi. To'g'rilash uskunasi energiya manbasi, stabillashtirish bloki (drossel va transformator) va boshqaruv elementlardan iborat (qayta ulagichlar, kontaktorlar).

Avtomatik, yarim avtomatik va qo'lda payvandlashga mo'ljallangan universal to'g'rilagichlar mavjud. Uskuna to'g'rilash bloki, uch fazali pasaytiruvchi transformator va tuyintirish drosseliga ega. Drossel energiya manbasini tashqi xarakteristikasini shakllashga imkon beradi.


Himoyalovchi gazlarda mexanizatsiyalashtirilgan payvandlashda, flyus qatlami ostida, kukunli simda, ochiq yoyda hamda qo'lda payvandlashda **VD** va **VDU** tiristorlardagi to'g'rilagichlar keng qo'llaniladi.

O'zgarmas tok payvandlash generatorining misoli.

Tashqi xarakteristika shakliga qarab o'zgarmas tok payvand generatorlari qiya tushuvchi, qattiq va qiyaligi kichik xarakteristikalariga ajratiladi.

qiya tushuvchi xarakteristikali generatorlar qo'lda, yarim avtomatik va avtoiatik usulda, flyus ostida payvandlash uchun mo'ljallangan. Uyg'otish usuli va tashqi xarakteristikalarini shakllash usullariga qarab payvandlash uchun mo'ljallangan o'zgarmas tok generatorlari ketma-ket magnitsizlovchi chulg'amli, parallel magnitlovchi va ketma-ket magnitsizlovchi chulg'amli, bo'lingan qutbli va ko'ndalang maydonli mustaqil uyg'otiluvchi generatorlarga bo'linadi.


Misol sifatida rasm 46,a-da ketma-ket magnitsizlovchi chulg'amli mustaqil uyg'otiluvchi generatorni printsiipial elektr sxemasi keltirilgan.



Rasm 46. Mustaqil uyg'otiluvchi generatorni printsiipial elektr sxemasi va tashqi xarakteristikalar: 1-reostat to'la chiqarilganda, 2-reostat to'la kiritilganda, 3-reostat qisman kiritilganda.

Mustaqil uyg'otuvchi chulg'am yarim o'tkazgich to'g'rilagichiga ulangan, chulg'am toki reostat bilan rostlanuvchi F_n oqimni uyg'otadi. Magnitsizlovchi chulg'am payvandlash zanjiriga ketma-ket ulangan, uning payvandlash toki I -ga proporsional bo'lgan F_r oqimi F_n oqimga qarshi yo'nalgan. Yoydagi kuchlanish $U_{yo} = s(F_n - F_r) - IR_{ya}$; salt rejimda $I = 0$, $F_r = 0$ va $U_{yo} = s F_n$. Payvandlashda $I > 0$ va $F_r > 0$, shuning uchun yoydagi kuchlanish kamayadi (rasm 46, b). qisqa tutashuv toki I_{qt} magnitsizlovchi chulg'amni o'ramlar sonini o'zgartirib rostlanadi.

qattiq va qiya xarakteristikali generatorlar ko'pincha ko'p postli manbalar sifatida ishlatiladi (rasm 47). Bunday generator aralash uyg'otishli o'z-



Rasm 47. Ballastli reostatlarga ega ko'p postli payvandlash qurilmasini sxemasi.


garmas tok mashinasidir. Bitta payvandlash postini ikkinchisiga tahsirini yo'qotish uchun generatorni tashqi xarakteristikasi yuklanishni diapazonida qattiq bo'lishi kerak.

SHuning uchun parallel 3 va ketma-ket 1 uyg'otish chulg'amlarni magnit oqimlari bir xil yo'nalganlar. Salt ish kuchlanishi reostat 2 yordamida o'rnatiladi. Har bir post mashinaga ballastli reostat 4 orqali ulanadi, u payvandlash rejimini keng miqyosda rostlashga imkon beradi.

Tashqi xarakteristikalari rostlanuvchi universal payvand generatorlari ham mavjud. Masalan, aralash uyg'otish sxemasida bajarilgan generatorda tushuvchi xarakteristikadan qattig'iga ketma-ket chulg'amni qarshi ulanishdan bir yo'nalishda ulanishga o'tkazish va uning o'ram sonlarini o'zgartirish bilan o'tkaziladi; zanjirdagi drossel kerakli dinamik xususiyatlarni olishga imkon beradi.

Kontaktli payvandlash payvandlashni plastik turiga qaraydi va bosim bilan bajariladi. Kontaktli pay-vandlashda issiqlik energiya elementlar kontaktlangan joyda kontsentratsiyalanadi, bosim tufayli esa biri-kishni mustahkamligi va to'laligi tahminlanadi. Kontaktli payvandlashni ulanuvchi, nuqtali va rolikli (chokli)lari bo'ladi.

Ulanishli payvandlashda (rasm 48, a) detallar kontaktlangan sirt bo'yicha to'la payvandlanadi. Pay-




Rasm 48. Kontaktli payvandlashni turlari.

vandlashni bu turi, o'z navbatida, qarshilik bilan payvandlash va birgalikda eritish bilan payvandlashga bo'linishi mumkin. Qarshilik bilan payvandlashda mahkam qisilgan detallarni uchlari tok bilan eritmay qizdiriladi, keyin esa plastikli deformatsiyalanadi va payvandlanadi. Birgalikda eritib payvandlashda detallar sekin kontaktlanguncha yaqinlashtiriladi (transformatorni ulangan xolatida), ammo payvandlanayotgan qismlar bir biriga bosim bilan biriktirilmaydi. Katta qarshilikli kontakt hosil bo'ladi va u yerda ko'p miqdorda issiqlik ajraydi. Metallni erishi sodir bo'ladi. Yeterli qizishidan keyin detallar o'q bo'ylab F kuch bilan qisiladi, metall deformatsiyalanadi va payvandlanadi.

Nuqtali payvandlashda (rasm 48, b) detallar kontaktlangan sirtini kerakli nuqtalarida payvandlanadi. Payvandlash bir, ikki va ko'p nuqtali bo'lishi mumkin.

Rolikli (chokli) payvandlashda (rasm 48, v) detallar uzluksiz yoki uziluvchi chok bilan biriktirilib, aylanuvchi roliklar orqali keltirilayotgan tok o'tishi natijasida bajariladi.

Kontaktli payvandlash qurilmalarini sxemalari deyarli bir xildir (rasm 49). Transformatorni



Rasm 49. Kontaktli payvandlash qurilmasini sxemasi.

birlamchi chulg'ami 4 sektsiyalangan va kuchlanishi 380 V tarmoqqa ulanadi. SHina sim 2-ni bir tomoni tok o'tkazuvchi 3 orqali transformatorni ikkilamchi o'rami bilan ulanadi, ikkinchi tomoni mis va qisuvchi elektrodlar 1 yeki roliklar bilan ulanadi. Odatda elektr zanjirni qattiq elementlari (1, 2) mis prokatdan tayerlanadi. Egiluvchan qismlar (3) mis folg'ga yeki ko'p sonli ingichka simlardan tishkil topgan egiluvchan simlardan tayerlanadi. Ikkilamchi konturni o'lchamlari va konstruksiyasi texnologik imkoniyatlar va payvandlash apparatini energetik ko'rsatkichlari bilan belgilanadi.

Kontaktli payvandlash impulg's toki bilan ba-jariladi, impulg'sni davomiyligi sekundani qism-la-ridan bir necha sekundlargacha o'zgarishi mumkin. SHu-ning uchun ikkilamchi o'ramlar ko'pincha oqar suv bilan sovutiladi. qurilma dasturlashtirilgan vaqt rostlovchisi tomonidan boshqariladigan kontaktor bilan yoqiladi hamda elektromagnit (kichik tokli), ignitron va tiristorli kontaktorlar bilan ham yoqiladi.

Nazorat savollari:

1. Elektr bilan payvandlash mazmunini tushuntiring.
2. Qanday payvandlash turlarini bilasiz?
3. Payvandlash jihozlarining qanday ish rejimlarini bilasiz?
4. Eritmay va eritib payvandlash jarayonlarini qanday tushunasiz?
5. Yoyli payvandlash nima?

7-Mavzu: Induksion qizdirish qurilmalari.

Reja

- 1.Induksion qizdirish qurilmalari. Sanoat chastotasida ishlaydigan qurilmalar.
- 2.O'rta chastotali qurilmalar. Yuqori chastotali qurilmalar.
- 3.Termoishlovdagi qizdirish induktorlari.

Induksion qizdirish qurilmalari

Sanoat chastotasida ishlaydigan qurilmalar. O'rta chastotali qurilmalar. Yuqori chastotali qurilmalar. Termoishlovdagi qizdirish induktorlari.

Induksion qizdirish qurilmalari. Ish printsipi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri bevosita qizdirish qurilmalarga qaraydi. Bu yerda elektr energiyasi magnit maydon energiyasiga aylantiriladi, keyin esa qizdiriladigan jismga uzatiladi va unda issiqlik sifatida ajraydi. Energiyani qizdiriluvchi obhektga uzatish uchun kontaktlanuvchi jihozlarni keragi yo'q. Bu qizdiruvchilarni konstruksiyasini soddalashtiradi, qurilmani kompaktligini oshiradi va texnologik jarayonni avtomatlashtirishga imkon beradi. Odatda, in-duksion qizdirishda unumdorlik oshadi, buyumlarni sifati yaxshilanadi va ishlab chiqarishni sanitariya gigiena sharoitlari yaxshilanadi.

O'zgaruvchan magnit oqim qizdirilayotgan metallda **EYuK** hosil qiladi.

$$E = 4,44w\mathbf{f}\mathbf{F}_0 \cdot 10^{-8}, \quad (34)$$

bu yerda w -induktorni o'ramlarini soni; f -induktor tokini chastotasi; F_0 -induktorni magnit oqimi, Vb.

EYuK uyurma tok **I**-ni hosil qiladi, tok esa materi-alni qizdiradi. Metallda issiqlikka aylanayotgan quvvat:

$$\mathbf{R} = \mathbf{I}^2 \mathbf{R}_m, \quad (35)$$

bu yerda $\mathbf{R}_m$ -metall qarshiligi, Om.

Ikki tenglamani solishtirsak, ko'ramizki, materialda ajralayotgan quvvat tok chastotasi va magnit oqimga bog'liq.

O'zgaruvchan tok manbaasiga ulangan induktorda o'zgaruvchan magnit maydon hosil qilinadi. Siqib chiqarish effekti tufayli tok zichligi qizdirilayotgan jins kesimida bir xil emas: sirt qatlamda kattaroq, ichida kichikroq. Tokni qizdirilayotgan detalni qalinligiga singish darajasi (demak, elektromagnit to'liqinni) singish chuqurligi bilan xarakterlanadi

$$\Delta = \sqrt{2\rho/\omega\mu_a} = 503 \sqrt{\rho/\mu_r f}, \quad (36)$$

bu yerda ρ -materialni solishtirma qarshiligi, Om/m; $\mu_a = \mu_0\mu_r$ -magnit singdiruvchanlik; $\mu_0 = 0,4\pi \cdot 10^{-6}$ Gn/m-magnit doimiysi; μ_r -metallning nisbiy magnit sing-diruvchanligi; $\omega = 2\pi f$ -burchak chastotasi.

Metallni sirtidan Δ masofada elektromagnit ener-giyani **86,5%** ajraydi. Amalda esa energiyani hammasi Δ qalinlikdagi qatlamda ajraydi deb hisoblanadi.

Energiya manbaasi quvvatini, qizdirish chastotasi va vaqtini o'zgartirib, kerakli haroratgacha detalni hammasini yoki mahlum qalinlikdagi qatlamni qizdirish mumkin. qizdirish chastotasi qurilmani konst-ruktsiyasini belgilaydi. Induksion qurilmalar konstruktsiyasiga qarab sanoat, o'rta va yuqori chastotalilarga bo'linadi.

Sanoat chastotasidagi qurilmalar detallarni prokatkada, shakl berishda, shtamplashda, presslashda, qalaylash uchun, detallarni har xil maqsadlar bilan qizdirish uchun va hokazolar uchun qo'llaniladi. Bu qurilmalarda tokni chastotasi elektromagnit energiyani qizdirilayotgan qatlamga maksimal singdirish shartidan topiladi. Po'lat tsilindrsimon zagotovka uchun:

$$\mathbf{f} = 3 \cdot 10^6 / \mathbf{d}^2, \quad (37)$$

$\mathbf{d}$ -zagotovkani diametri, mm.

Po'lat zagotovkalarni diametri 150 mm-dan kam bo'l-maganda sanoat chastotasi 50 Gts-ni ishlatish mumkin. Bu xolda qurilmada chastota o'zgartirgichi bo'lmaydi. Faqat almashtiriluvchi induktorlarga ega induksion isitgich kerak xolos.

Mustahkamlovchi qurilmalarni tokini chastotasi mustahkamlash kerak bo'lgan qalinlikni chuqurligiga qarab tanlanadi. O'rta uglerodli po'latdan yasalgan de-tallarda Δ_m (mm) qalinlikda mustahkamlanadigan qat-lam olish uchun optimal chastota (Gts) quyidagi empirik formulalardan topilishi mumkin: $\mathbf{f} = (3 \div 5) \cdot 10^4 / \Delta_m^2$; murakkab shaklli detallar uchun $\mathbf{f} \approx 5 \cdot 10^5 / \Delta_m^2$.


Vazifasi bo'yicha induksion qurilmalar erituvchi pechlar, mikserlar va qizdiruvchi qurilmalarga bo'linadi. Induksion pechlar qora va rangli metallar va aralashmalarni eritishga xizmat qiladi. Mikserlar - metallni quyish haroratigacha isitish va kerakli haroratni tarkibni tekislash maqsadida ushlab turish uchun ishlatiladi. qizdiruvchi induksion qurilmalar detallarni issiq xolatda ishlov berish

haroratigacha yoki metallni qizdirib deformatsiyalash, yahni metallni erish haroratidan kamroq haroratgacha qizdiradi.

Kichik va o'rta quvvatli induksion qurilmalar odatda kuchlanishi 380 V manbaadan energiya oladilar. Tarmoqqa to'g'ri ulanish imkoniyati yo'qligida va is-tehmol qilinayotgan quvvatni rostlash zarurligida pog'onalari qayta ulanadigan elektrotechli transformatorlar yoki tiristorli o'zgartirgichlar ishlatiladi.

Sanoat chastotadagi induksion pechlar (kanalli, katta tigelli) sifatli po'latlar va rangli metallar olish uchun keng ishlatiladi. O'zaksiz induksion tigelli pechni tuzilishi rasm 50, a-da ko'rsatilgan.

Pechni ish printsipti erigan metall 2 tomonidan elektromagnit energiyani yutishga asoslangan, tigelg' 3 induktor 1 hosil qiladigan o'zgaruvchan magnit maydonga qo'yilgan. Pechlarni induktorlari suv bilan sovutiladigan mis trubkadan yoki havo



bilan sovutiladigan mis simdan tayerlanadi. Magnit oqim havo oraliq, kojuxni metall konstruksiyalari va metall yuklama (shixta) orqali o'tadi. SHixtada

Rasm 50. O'zaksiz induksion tigel pechi.

indutsirlangan tok metallni qizdirib eritadi. Sirt effekt tufayli shixtani tashqi qatlamlari eng intensiv qiziydilar. SHixtadagi toklar induktor toki bilan o'zaro tahsirda bo'lib, natijada elektrodinamik kuchlar hosil bo'ladi. Bu kuchlarni yo'nalishlari qarama-qarshidir. Natijada erigan metall chekkadan o'rtaga o'tadi va intensiv aralashadi va uning sirti ko'pchiydi.

Sanoat chastotadagi induksion pechni ulanishini printsiptial sxemasi (rasm 50, b) transformator 4, kontaktor 5, drossel 6, kondensator batareyalari 7 va 7a, bir fazali pech 8, pechni engishtirish uchun ishlaydigan gidro- yoki elektr yuritma mexanizmi 9, boshqaruv shkafi 10 va induktorni sovutish qurilmasi 11-dan iborat. Drossel va batareya 7 tarmoqni 3 ta fazasini yukini balansirovkalash uchun xizmat qiladi.


Katta magnit tarqatish tufayli tigel pechlarni quvvat koeffitsienti juda past ($0,05 \div 0,25$). SHuning uchun remktiv quvvatni kompensatsiyalash uchun hamma tigel pechlarga sig'imi rostlanadigan kondensator batareyalari 7a o'rnatiladi.

O'rta chastotali qurilmalar detallarni toblash, zagotovkalarni bosim bilan ishlovdan oldin va zago-tovkani kichik qismlarini (masalan, trubani egish uchun) isitish, lak bo'yoq qoplamalarni quritish, metall listlarni payvandlash va boshqalar uchun ishlatiladi. Bu qurilmalar o'rta (yuqori) chastota o'zgartirgichi, generator va induktor orasidagi pasaytiruvchi trans-formator, induktorli induksion qizdiruvchi, kondensatorlar batareyasi, suv bilan sovitish tizimi, buyumlarni yuklash va tushirish mexanizmi, shchitlar, pulg'tlar va boshqaruv shkaflaridan iborat bo'ladi. O'rta chastota manbasi sifatida oddiy qutblari yaqqol ko'rinmaydigan sinxron mashinalar xizmat qiladi (500 Gts-gacha). Katta chastotalarda (10000 Gts) induktor turdagi generatorlar xizmat qiladi. Ularni ish chulg'ami va uyg'otish chulg'ami statorida bo'ladi. Tishli rotor aylanib, asosiy magnit oqimni pulg'slanishini hosil qiladi. Pulg'slanish esa ish chulg'amida chastotasi

$$f = \frac{zn}{60} \quad (38)$$

bo'lgan **EYuK**-ni hosil qiladi, bunda **z**-rotorni tishlarining soni; **n**-aylanish chastotasi, min⁻¹.

Tiristorli o'zgartirgich yuqori **FIK**-ga ega, kuchlanish va chastotani tekis rostdlashga imkon beradi, shuning uchun chastotasi yuqoriroq induksion qurilmalarda keng qo'llaniladi. Rasm 51-da tiristorli chastota o'zgartirgichga ega induksion qurilmani printsiptial sxemasi keltirilgan. **SCHI** va **TPCH** turdagi




Rasm 51. CHastotani tiristorli o'zgartirgichga ega induksion qurilmani printsiptial elektr sxemasi.

tiristorli ulash jixozi 2-ga ega tiristorli o'zgartirgichlar ishlab chiqiladi. To'g'rilash bloki 1-dan keyin to'g'rilangan tok tekislovchi reaktor 3-da te-kislanadi. Invertor 4 o'zgar mas tok energiyasini ke-rakli chastotadagi o'zgaruvchan tok energiyasiga aylantiradi. Bu xolda chiqish chastotasi yuklangan tebranuvchi kontur 5 chastotasi bilan belgilanadi. Kontur qiz-diruvchi induktor va parallel ulangan kondensatorlar batareyasidan iborat, batareya tiristorlarni kommutatsiyalash va quvvat koeffitsientini oshirish uchun xizmat qiladi.

Metallni ichki qatlamlarini qovushqoqligini saqlab, detalning sirt qatlamida maksimal quvvat ajratish zarurligida yuqori chastotali qurilmalar ishlatiladi (chastota 10 kGts-dan yuqori). Ularni qizdirish va eritish (kichik hajmdagi o'zaksiz pechlar), trubalari payvandlash, kichik diametrdagi ko'p sonli detallarni sirtini mustahkamlash, past haroratli plazma olish uchun va boshqa maqsadlarda ishlatiladi.

Yuqori chastotali qurilmalar maxsus, quvvati 600 kVt-gacha yetadigan lampali generatorlardan energiya oladi (rasm 52). Ularni asosiy elementlari: kuchlanishni 380 V-dan 7,5-10 kV-gacha ko'taradigan uch fazali anod transformatori 1; o'zgaruvchan tokni o'z- gar mas tokka aylantiradigan to'g'rilash bloki 2; o'zgar mas tok energiyasini yuqori chastotali o'zgaruvchan tok

Rasm 52. Lampali generatorni printsiptial elektr sxemasi.




energiyasiga aylantiruvchi uch elektrodli lampalardan iborat generator bloki 3; kondensatorlar batareyasi S_k va qizdiruvchi induktor L_k -ga ega transformatoridan iborat tebranish konturi 4. Generatorlarning sanoat namunalari odatda o'z o'zini uyg'otish sxemasida yig'iladi, sxemaga generatorni uyg'otishga va uning ishini boshqarishga qarashli elementlar kiradi: teskari aloqa konturi; qizdirish kuchlanishini stabilizatori; drossellar L , ajratuvchi kondensatorlar S_a . qizdiruvchi induktor, qoidadek, past kuchlanishga (15-120 V) mo'ljallanadi. Sovutish uchun qurilma lampalarni va induktorni suv bilan sovitish sistemasi bilan tahminlanadi.

qizdiruvchi induksion qurilmalar detallarni sirtini mustahkamlash uchun tezda qizdirish kerak-ligida, toblab, qo'yib yuborishda, mashinalar yig'ishdagi qizdirib o'tqazishda va boshqalarda eng ko'p tarqalgan. Termik ishlov berish jarayoni bunda gaz pechlarda, qarshilik pechlarida yoki tuzli vannalarda qizdirishga nisbatan 10-lab marta tezlashadi. Bunda energiya ma'lum uzunlik va chuqurlikdagi qatlamda kontsentratsiyalanadi, bu esa o'z-o'zini qo'yib yuborish xodisasini detallardagi ichki haroratli kuchlanishlarni olib tashlash uchun ishlatishga imkon beradi.

Termoishlovdagi qizdirish induktorlari. Termik ishlovdagi har xil induksion qizdirish induktorlarni eskizlari rasm 53-da ko'rsatilgan.

Induktorlarni shakli detal sirtini shakliga bog'liq. Ular o'zakli ajraluvchi (**FIK**-ni yaxshilash uchun), ko'p o'rinli (bir necha detalni joylashtirish uchun) va hokazo bo'lishi mumkin. Detailarni to'g'ri burchakli kesimdagi sirt osti toblash uchun induktor o'ramlari detal shakliga moslab tayyorlanadi, yassi detallarni qizdirishda o'ramlar yassi yoki to'g'ri burchakli spiral shakliga egiladi. Detailarni sovitish uchun ko'pincha suvli dush yoki sovituvchi suyuqlikli vanna



Rasm 53. Termik ishlovdagi qizdirish induktorlarini eskizlari: a-navbatli sirtiyl toblash; b-detailni siljitib uzluksiz-ketma-ket toblash; v-oldingiday, faqat induktorni siljitib; g-yassi detalni qizdirish; d-podshipnikni o'tqazish uchun qizdirish; 1-detail; 2-induktor; 3-suv bilan sovitish.

ishlatiladi. Toblash uchun qizdirishdagi tokni chastotasi detal diametriga bog'liq va taxminan $f \approx (1-2) \cdot 10^7 / d$ ifodadan topiladi, mustahkamlangan qatlam chuqurligi z esa $(0,007 \div 0,15)d$ chegaralarda belgilanadi, bu yerda d -detal diametri, mm.

Induksion qurilmalar katta energiya istehmolchilaridir, shuning uchun ularni **FIK**-i muhim xarakteristikalaridan biri. Induktorni to'la **FIK**-i $\eta_i = \eta_e \eta_t$, bu yerda η_e -induktorning elektr **FIK**-i; η_t -termik **FIK**.

Induktorni elektr **FIK**-i

$$\eta_e = R_2 / (R_2 + \Delta R_i), \quad (39)$$

bu yerda: R_2 -zagotovkada ajraydigan to'la quvvat; ΔR_i -induktirlovchi simdagi sarflar.

Termik **FIK**

$$\eta_t = R_t / (R_t + \Delta R_t), \quad (40)$$

bu yerda: R_t -zagotovkada bitta tsikl qizdirishda ajraydigan foydali quvvatni o'rta qiymati; ΔR_t -atrof muxitga o'tadigan issiqlik sarfi.

Agar oraliq issiqlik izolyatsiyasi bilan to'ldirilgan bo'lsa, oralik qatlam kengayishi bilan elektr **FIK** pasayadi, termik **FIK** esa ko'payadi.

Tajriba ko'rsatadiki, maksimal to'la **FIK**-ga $D_1/D_2 = 1,332$ nisbatda erishiladi, bunda D_1 -induk-torni ichki diametri; D_2 -detal diametri.

SHamotli izolyatsiyaga ega tsilindrsimon induk-torlarni issiqlik isroflari (kilovatt) quyidagi ifodadan topiladi:

$$\Delta R_t = 3,74 \frac{a_1}{\lg(D_1 / D_3)}, \quad (41)$$

bu yerda: a_1 -induktorni uzunligi, m; D_3 -issiqlik izolyatsiyasini ichki diametri.

$f = 3 \cdot 10^6 / d^2$ ifodadan yetarli darajadagi yuqori elektr **FIK** olish mumkin bo'lgan va energiyani isroflari kamayadigan eng kichik chastotani topish mumkin: $f_{\min} = 6 \cdot 10^8 \rho / (d^2 \mu_a)$.


Nazorat savollari:

1. Induksion qizdirish printsiplari nimalardan iborat?
2. Induksion qizdirishni afzalliklari.
3. Induksion qizdirishda tahminlovchi tok chastotalarni qaysi diapazonida ishlatiladi?
4. Induksion qizdirishni nazariyasi – qanday qilib elektromagnit maydon energiyasi qizdirilayotgan materialga uzatiladi?
5. Elektromagnit maydonni qaysi parametrlari uni qizdirilayotgan materialga singish xarakterini belgilaydi?

Yuqori chastotali dielektrik qizdirishni qurilmalari

Dielektrik qizdirish. Dielektrik qizdirish uskunalari tasniflash. Yuqori chastotali generatorni sxemasini misoli. Yuqori chastotali dielektrik qizdirishni qo'llash soxalari.

Dielektrik qizdirish. Dielektriklar tokni yomon o'tkazuvchilaridir, shuning uchun o'tkazuvchanlik toklaridan chiqadigan sarflar ularda kam. Ammo, dielektrikni metall plastinalar orasiga qo'yib, unga o'zgaruvchan kuchlanish ulansa, siljish jarayonlari natijasida dielektrik isroflar hosil bo'ladi. Bunday sarflar va o'tkazuvchanlikni kichik toklarini sarflari dielektrikni qizdiradi. Bu xodisa sanoatda nometall materiallarni qizdirish uchun qo'llaniladi (rasm 54). qizdiriladigan material 1 kondensatorni metall qatlamlari 2 orasiga qo'yiladi (ishchi kondensator hosil bo'ladi) va tebranish konturini sig'imi shaxobchasiga ulanadi. Eslatamiz, induksion qizdirishda qizdirilayotgan detal induktor bilan konturni induktiv shaxobchasiga kiradi. (Ekvivalent elektr sxemalarida ishchi kondensator rezistor bilan ketma-ket



Rasm 54. qizdiriladigan materialni joylashtirish variantlari. ulangan kondensator ko'rinishida ko'rsatiladi.)

Yassi parallel elektrodli ishchi kondensatorda ajraydigan quvvat

$$R = UI \cos \varphi = U^2 \cdot 2\pi f C \cos \varphi, \quad (42)$$

C-ishchi kondensator sig'imi, F; f-yuqori chastotali generatorni chastotasi, Gts.

Dielektrik qizdirish qurilmalarda kuchlanish va tok orasida faza siljish burchagi $\pi/2$ -ga yaqin, shuning uchun $\cos \varphi \approx \operatorname{tg} \delta$ deb hisoblash mumkin, δ - φ burchakni $\pi/2$ -gacha to'ldiradigan dielektrik isroflar burchagi. Natijada ifoda o'zgaradi:

$$P = 2\pi f C U^2 \operatorname{tg} \delta = 2\pi f U^2 \epsilon_a (S/l) \operatorname{tg} \delta, \quad (43)$$

$\epsilon_a = \epsilon_0 \epsilon$ -qizdirilayotgan materialni absolyut dielektrik singdiruvchanligi, F/m; S-ishchi kondensatorni qatlamlarini sirti, m^2 ; l-kondensator plastinalari orasidagi masofa, m; $\epsilon_0 = 8,86 \cdot 10^{-12}$ F/m-elektr doimiysi; ϵ -qizdirilaetgan materialni nisbiy dielektrik singdiruvchanligi.

Dielektrik (kondensator)-ni hajm birligida ajrayatgan quvvat (kVt/m^3) quyidagi ifodadan topilishi mumkin:

$$P_0 = 5,55 \epsilon_a f E^2 \operatorname{tg} \delta, \quad (44)$$

bunda $E = U/l$ -kondensatordagi elektr maydonni kuchlanganligi, kV/m.

Agar $K = \epsilon_a \operatorname{tg} \delta$ belgilansa va bu kattalik material hususiyatlariga bog'liqligini hisobga olinsa, solishtirma quvvat $P_{col} = A U^2 K f$, A- doimiy.

Kuchlanish tanlashda ikki omilni hisobga olish kerak bo'ladi: kuchlanishni ko'paytirilishi, bir tomondan, kattaroq solishtirma quvvatlarni (qizdirish tezligini), ikkinchi tomondan teshilishga va ishdan chiqishga olib keladi. Tahkidlash joizki, faqat bir jinsli materialda (r. 54, a) qizdirish hajmni hammasida bir tekisda kechadi. Agarda material bir jinsli bo'lmasa, yahni har xil ϵ va $\operatorname{tg} \delta$ -larga ega hududlar mavjudligida, undagi qizish bir xil bo'lmaydi. Bu hususiyatdan tanlab qizdirishda foydalaniladi.

Ikki xodisani ko'rib chiqamiz. Birinchisida (rasm 54, b) ϵ va $\text{tg}\delta$ -lari har xil materiallarni ajralish chegarasi elektr maydonni kuch chiziqlari bo'ylab o'tadi. Solishtirma quvvatlar nisbati:

$$\frac{p_{1\text{con}}}{p_{2\text{con}}} = \frac{\epsilon_1 U_1^2 \text{tg}\delta_1}{\epsilon_2 U_2^2 \text{tg}\delta_2} = \frac{K_1 U_1^2}{K_2 U_2^2}, \quad (45)$$

bu yerda: U_1 va U_2 -birinchi va ikkinchi materiallarni kondensatorlarini kuchlanishlari; K_1, K_2 -doimiy kattaliklar.

$U_1 = U_2$ bo'lgani uchun $r_{1\text{sol}}/r_{2\text{sol}} = K_1/K_2$, ya'ni solishtirma quvvatlar sarflar faktorlariga to'g'ri proportsional taqsimlanadi.

Ikkinchi xodisada (rasm 54, v) $\text{tg}\delta < 0,5$ -ligida $U_1/U_2 \approx \epsilon_2/\epsilon_1$ deb hisoblash mumkin, shuning uchun:

$$\frac{p_{1\text{con}}}{p_{2\text{con}}} = \frac{U_1^2 \epsilon_1 \text{tg}\delta_1}{U_2^2 \epsilon_2 \text{tg}\delta_2} \approx \frac{\epsilon_2 \text{tg}\delta_1}{\epsilon_1 \text{tg}\delta_2}, \quad (46)$$

ya'ni solishtirma quvvatlarni nisbati dielektrik sarflarni burchaklarini tangenslarini nisbatiga to'g'ri proportsional va dielektrik singdiruvchanliklarni nisbatiga teskari proportsional.

qator xollarda buyumni shakli yoki materialni tarkibi sababli ishchi kondensatorni qatlamlari bilan jips kontakt yaratish iloji bo'lmaydi (masalan, quyma sterjenlar, murakkab shaklli yog'och buyumlar, o'ralgan pryaja, press-poroshok). SHuning uchun, kondensatorni qatlamlarini orasida havo bo'shliq paydo bo'ladi. Havoli bo'shliqni mavjudligi (rasm 54, g) ishchi kondensatorni kuchlanishini yangidan taqsimlanishiga olib keladi. Havoli bo'shliqni dielektrik singdiruvchanligi $\epsilon_v = 1$ -ligini hisobga olsak, $U_v/U_m = \epsilon_m$ va material qatlamidagi kuchlanish U_m ishchi kondensatorni qatlamlarini orasidagi kuchlanish U -dan kichik, shuning uchun:

$$U_m = U/(1 + \epsilon_m), \quad (47)$$

bunda ϵ_m -materialni dielektrik singdiruvchanligi. Material qatlamidagi kuchlanishni pasayishi solishtirma quvvatni kamayishiga olib keladi. Sarflar faktorini chastotaga qattiq bog'liqligini ham ko'rsatish kerak. Har bir dielektrik uchun sarflar faktori eng katta bo'ladigan chastota mavjud.

Dielektrik qizdirish uskunalarini tasniflash.

Tokni chastotasiga bog'liq xolda dielektrik qiz-dirishni quyidagi qurilmalarini ajratiladi.


1. O'rta to'lqin diapazondagi qurilmalar ($f = 0,3 \div 3$ MGts), ularni **FIK**-i 0,5-0,6. Sarflar faktori katta, yuqori namlikli va nisbatan katta massaga ega bo'lgan materiallar uchun qo'llaniladi. Bunday materiallarni qizish vaqti bir necha soat, solishtirma quvvat - bir kub sm-ga vattni qismlari, kuchlanish esa-15 kV-gacha.
2. qisqa to'lqin diapazondagi qurilmalar ($f = 3 \div 30$ MGts), ularni **FIK**-i 0,55-0,4. O'rta to'lqin diapazonidagi qurilmalardagiga qaraganda sarflar faktori kichikroq, ishchi kondensatorni qatlamlari orasidagi materialni massasi ham kichikroq (o'nlar kub detsimetr) materiallarni qizdirish uchun qo'llaniladi. Ammo, qisqa diapazondagi qo'rilmalarda qizdirish tezligi yuqoriroq, solishtirma quvvat esa bir kub sm-ga o'nlar vattni tashkil qiladi. Bunda qizdirishni konveyer usuli qo'llanilishi mumkin.

3. Ultraqisqa diapazondagi qurilmalar ($f = 30 \div 300$ MGts), ularni **FIK**-i 0,4-0,3. Ular sarfi oz materiallarni qizdirish uchun ishlatiladi. qizdirish tezliklari solishtirma quvvat bir kub **sm**-ga kilovattlarligida bir necha sekunddir.

Materialga termoishlov berish jarayonida, uning sarflar faktori o'zgaradi, shuning uchun ish kondensatorini sig'imi o'zgaradi va demak, tebranish konturini ish rejimi va generatorni chastotasi o'zgaradi. Konturni qarshiligini stabilligini tahminlash uchun maxsus kelishtirish sxemalari qo'llaniladi.

Yuqori chastotali generatorni sxemasini misoli. Rasm 55-da dielektrik qizdirish uchun ishlatiladigan yuqori chastotali generatorni sxemalaridan biri keltirilgan, u asosan metall buyumlarni induktsion qizdiradigan lampali yoki tranzistorli generatorlarni elementlaridan tashkil topgan.

Farqi shundaki, yuk bu yerda ishchi kondensator, uning qatlamlarini orasiga qizdirilayotgan material



Rasm 55. Dielektrik qizdirish uchun (a) yuqori chastotali generatorni printsiplial elektr sxemasi va yuk konturini o'rindosh sxemasi (b): L_r -ajratuvchi drossel; S_r -ajratuvchi kondensator; L_n -aloqa g'altagi; S_n -ishchi kondensator.

konturini chastotasini (Gts) ifodasi:

$$f \approx 1/2\pi \sqrt{LC_n} \quad (48)$$

Rasm 55-da keltirilgan sxema bir konturli deyiladi. Bir konturli sxemalar, odatda, chastotasi 1 MGts-gacha bo'lgan tebranishlarni hosil qilish uchun ishlatiladi. Yuqoriroq chastotalar olish uchun avtoge-neratorlarni ko'p konturli sxemalari ishlatiladi, ular keng chegaralarda tebranish konturini ekvivalent qarshiligini rostlashga - yukni kelishtirishga imkon beradilar. Ishchi kondensator odatda generatorga koaksial kabelg' yordamida ulanadi.

Yuqori chastotali dielektrik qizdirishni qo'llash soxalari. Yuqori chastotali dielektrik qizdirishni qo'llash soxalari va usulini imkoniyatlari juda keng. Dielektrik qizdirishni yuqori chastotali qurilmalari quyma sterjenlar va shakllovchilarni, yog'och tolali massalarni, junni, qog'ozni va boshqa materiallarni quritish uchun, yog'och va plastmassa buyumlarni, qobiqllovchilarni, fanerani, kartonni yopishtirish uchun va hokazo ishlatiladi.

Oziq-ovqat sanoatida bu qurilmalar maxsulotlarni yuqori sifatli va tez quritish uchun, baliqni, go'shtni, sabzavotlarni, mevalarni va boshqalarni muzdan tushirish uchun ishlatiladi. Texnologik jarayon uchun kerak vaqt ko'p emas (odatdagi ishlov berish usullaridagi vaqtga qaraganda). qizdirishni bir tekisligi tahminlanadi va maxsulotni sirti buzilmaydi. qurilmalar har xil oziq-ovqat maxsulotlarini sterillashtirish, pastershtirish, konservalash va dezinfektsiyalash uchun ishlatilishi mumkin. Oziq-ovqatlar o'zlarini tabiiy tahm sifatlarini va vitaminlarini saqlaydilar. Masalan, bir necha minut mobaynida yuqori chastotali toklar maydonida pishirilgan non rangi tiniq, tekis va yumshoq xolda pishgan va yoqimli

hidga ega bo'ladi. Ovqatni pishirish va isitish uchun yuqori chastotali pech ishlab chiqilgan. Tayyorlash tezligi minutlardan iborat, pech qizigan sirtlarga ega emas, bu esa ishlovchilarni ish sharoitlarini ancha yengillashtiradi.

Yuqori chastotali qizdirish qurilmalari termo plastmassalarni va boshqa materiallarni payvandlash uchun (plastmassalardan detallar tayyorlashda, plastmassadan o'rovchilar tayyorlashda, truba ishlab chiqishda, kauchukni vulkanizatsiyalashda va boshqalarda) mashinasozlikda, farmatsevtik, poligraf, tikuvchilik, yengil va sanoatni boshqa soxalarida ishlatiladi.

Yuqori chastotali qizdirish usulini yaqqol afzalliklari (asosiy materiallarni tejalishi, bu-yumlarni sifati yaxshilanishi, unumdorlikni va foydalanish muddatini oshishi, maxsulotni tannarxini pasayishi, mehnat sharoiti yaxshilanishi, ishlarni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash va boshqalar) bilan birga kamchilik ham mavjud: qurilmaning **FIK**-i pastligi, demak energiyani sarfini kattaligi. Bu usulni qo'llanilishini foydaliligi aniq texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar natijasida topiladi. qurilmani ishini tejamkorligini ko'tarish uchun, birinchi navbatda, lampali generatorni **FIK**-ini ko'paytirish kerak, chunki u qurilmani **FIK**-ini belgilaydi. Lampali generatorni **FIK**-i chastotaga bog'liqligi uchun chastota tanlashda pastroq chastota ishlatish mumkinligini ko'rib chiqish kerak. Sarflanadigan energiyani narxini kamaytirishni ikkinchi yo'li-qizdirishni oddiy usullarini (energiyani narxi past) yuqori chastotali bilan kombinatsiyalashdir.

Nazorat savollari:

1. Dielektrik qizdirish printsipi nimadan iborat?
2. Dielektrlarni **Dqq**-larda qizdirish mohiyatini qanday tushunasiz?
3. Dielektrik qizdirishda tahminlovchi tok chastotalarni qaysi diapazonida ishlatiladi?
4. Qizdirish jarayonida materialni elektrofizik xususiyatlari o'zgaruvchan tok elektr maydonida chastotaga qanday bog'liq?

Asosiy adabiyotlar

1. Bolotov A.P., SHepelg' G.A. Elektrotexnologicheskie ustanovki. M. Vqsshaya shkola, 1988.
2. Evtyukova I.P. i dr. Elektrotexnologicheskie promo'shlenno'e ustanovki. M. Energoizdat, 1982.
3. Popilov D.Ya. Elektrofizicheskaya i elektroximicheskaya obrabotka materialov. M. Mashinostroenie, 1982.
4. Fomichev Ye.P. Elektrotexnologicheskie promo'shlenno'e ustanovki. Kiev: Vqsshaya shkola, 1979.
5. Elektrotexnologicheskie promo'shlenno'e ustanovki. Pod. red. A.D. Svenchanskogo. M. Energoizdat, 1982.
6. Yastrebov P.P. Ekspluatatsiya elektrooborudovaniya zernopererabato'v vayuhix i xlebpriemno'x predpriyatiy. M. Kolosov, 1979.
7. Donskoy A.V., Keller O.G., Krato'sh G.S. Ultrazvukovo'e elektrotexnologicheskie ustanovki. L. Energoizdat, 1982.

8. Livshits A.L., Otto M.A. Impulg'snaya elektrotexnika. L. Energoizdat, 1983.
9. P.P.Yastrebov, I.P.Smirnov. Elektrooborudovanie. Elektrotexnologiya.-M.: Vqsshaya shkola, 1987.
- 10.M.M. Matboboev. Elektrotexnologik qurilmalar Farg'ona, Far.PI, 1999 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ivanov A.A. Elektrooborudovanie pihevo'x predpriyatiy.-Kiev: Texnika, 1969.
2. Basov A.M. i dr. Elektrotexnologiya. M. Agropromizdat, 1985.

O'ZBEKISTON RES'UBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUXANDISLIK
QURILISH INSTITUTI
«ENERGETIKA» KAFEDRASI



«ELEKTROTEXNOLOGIYA VA UNING QURILMALARI»

fanidan amaliy ishlarni bajarish buyicha uslubiy ko`rsatmalar

NAMANGAN-2019

Elektrotexnologiya va uning qurilmalari fanidan amaliy ishlarini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar. Ushbu uslubiy ko'rsatma 5310200-elektr energetika yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar: o'q. D. Rahmanov

Taqrizchi: dots. S.Boydedayev

Ushbu uslubiy ko'rsatmalar «Energetika» kafedrasini umumiy yig'ilishida muxokama kilingan va foydalanishga tavsiya etilgan.
____-majlis bayoni ____ yil.

Ushbu uslubiy ko'rsatmalar institut ilmiy-uslubiy kengashining____sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va cho' etishga tavsiya etilgan ____-majlis bayoni ____ yil.

KIRISH

Elektrotexnologiya – elektr energiyasidan bevosita yoki dastlabki tarzda boshqa turlarga aylantirib ishlab chiqarish jarayonlarida foydalanish yo'llari, usullari va vositalarining qo'llanilishini o'rganadigan fan va texnika sohasidir.

Elektr energiyasini issiqlikga aylantirish va undan foydalanish bilan bog'liq texnologik jarayonlar “elektrotermiya”, elektr energiyasidan bevosita yoki dastlabki tarzda mexanik yoki kimyoviy energiyaga aylantirib, foydalaniladigan jarayonlar esa “materiallarga elektrofizik va elektrokimyoviy usullar bilan ishlov berish” tushunchalar bilan ifodalanadilar.

Ko'lab zamonoviy texnologik jarayonlar elektrotexnologik usullar tufayli yuzaga keldi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda elektr to'siqlar, chorvachilik va boshqa binolar xavosini sunhiy ionlashtirgichlar, urug'lik va don se'aratorlar, xavo elektrofilg'rlari, suvga va qishloq xo'jalik maxsulotlariga elektr toki va im'ulg'slar, ultratovush bilan ishlov beruvchi va boshqa uskunalar ishlab chiqilgan.

“Elektrotexnologiya va uning qurilmalari” fanidan amaliy mashg'ulotlarni uchun metodik qo'llanmaga fan bo'yicha masalalar kiritilgan. Qo'llanma 9 bo'limdan iborat: elektr qizitish uskunalarni issiqlik xisobi; qarshilik bilan bevosita qizdirish, kontaktli qizdirish; suv qizdirgichlarni va bug' qozonlarini elektrodlar sistemalarni xisobi elementli qizdirgichlarni xisoblari; elementli qizdirgichlarni taxminiy xisoblari; induksion qizdirgichlarni xisobi; elektr tok bilan ishlov berish; parrandalarga elektroaerozol ishlov berish jarayonini va uskunalarni parametrlarini xisoblash; kuchli elektr maydonlaridan texnologik jarayonlarida foydalanish. Qo'llanmaga 3 nazorat ishlar kiritilgan. Har bir nazorat ishlariga 25 variantlar bo'yicha vazifalar ishlab chiqilgan.

1-Amaliy ish

Elektr qizitish uskunalarni issiqlik xisobi.

1 masala. Sig'imi $0,4 \text{ m}^3$ oqar suvli suv qizdirgichni o'timal geometrik o'lchamlarini, qulay issiqlik izolyatsiyani qalinligini, f.i.k. va quvvatini aniqlang. Suv qizdirgichni unumdorligi $\eta = 0,1 \text{ m}^3/\text{soat}$. Suvni boshlangich xarorati $t_1 = 5^\circ\text{S}$, qizitish xarorati esa - $t_2 = 85^\circ\text{S}$. Issiqlik izolyatsiyasini issiqlik o'tkazuvchanligi $\lambda_i = 0,04 \text{ Vt/m}$. Yillik tahmirlash ajratmalari 12% . Issiqlik izolyatsiyasining baxosi $S_i = 2500 \text{ so}^2\text{m/m}^3$. Elektr energiyasining baxosi $r = 40 \text{ sum/kVt.soat}$. Zaxira koeffitsienti –

$R_3 = 1$. Suv qizdirgich o'rnatilgan xonadagi xarorat - $t_x = 15^\circ\text{S}$.

Suv qizdirgichni tashqi sirtidan issiqlikni tarqatish koeffitsienti-

$\alpha = 10 \text{ Vt/m}^2 \text{ }^\circ\text{S}$.

Masalani yechimi.

Suv qizdirgichning bakini o'timal geometrik o'lchamlarini yon sirtini minimal shartidan aniqlanadi ($D=H$)

$$D = H = (4 V / \pi)^{1/3} = (4 \cdot 0,4 / 3,14)^{1/3} = 0,8 \text{ m},$$

bunda D - bakni diametri, m;

H - bakni balandligi, m,

V – bakni sig'imi.

Issiqlik izolatsiyani qalinligini aniqlaganimizda quyidagi shartlarni xisobga olamiz. Qizdirgichni tubi izolyatsiyasiz bajariladi, chunki bunda suvni xarorati $t_1 = 5^\circ\text{S}$ va issiqlik yo'qolmaydi. Bakni yon sirtini issiqlik izolyatsiyasini qalinligini suvni o'rta xarorati bo'yicha aniqlaymiz

$$t_{o'rt} = (t_1 + t_2) / 2 = (5 + 85) / 2 = 45^\circ\text{S}$$

Bakni qa'qog'ini izolatsiyasi maksimal bo'lishi kerak, chunki suvni xarorati qa'qog'ini yonida $t_{qo'q} = t_2 = 85^\circ\text{S}$.

Bakni yon sirtidagi issiqlik izolyatsiyani o'timal qalinligini aniqlaymiz.

$$\sigma_i^b = \{[\tau_y S_e \lambda_i (t_{o'rt} - t_x)] / [10 S_i (r + Y_{en})]\}^{1/2} - \lambda_i / t_x =$$

$$\{[1500 \cdot 0,01 \cdot 0,04(45 - 15)] / [10 \cdot 50(12 + 15)]\}^{1/2} - 0,03 / 10 = 0,0335 \text{ m}$$

bunda: $\tau_y = 1500$ soat - uskunani bir yilda ishlash vaqti;

$Ye_n = 15\%$ - iqtisodiy samaradorlikni normativ koeffitsienti.

$\sigma_i^b = 0,03 \text{ m}$ qabul qilamiz.

Qa'qok izolyatsiyasini o'timal qalinligini xisoblaymiz

$$\sigma_i^k = \{[\tau_y S_e \lambda_i(t_2 - t_x)] / [10 S_i(r + Ye_n)]\}^{1/2} - \lambda_i / t_x =$$

$$\{[1500 \cdot 0,01 \cdot 0,04(85 - 15)] / [10 \cdot 50(12 + 15)]\}^{1/2} - 0,03 / 10 = 0,0528 \text{ m.}$$

$\sigma_i^k = 0,05 \text{ m}$ qabul qilamiz.

Bakni tagini va qa'qog'ini xisobiy sirtini aniqlaymiz

$$A_t = A_k = (\pi D^2) / 4 = (3,14 \cdot 0,8^2) / 4 = 0,5 \text{ m}^2.$$

Xonani xavosiga suv qizdirgichni tagidan tushadigan issiqlik oqimini aniqlaymiz

$$F_{tag} = (t_n - t_1) / \{[\sigma_d / (\lambda_d A_t)] + [(\alpha_{tash} A_t)]\} =$$

$$(15 - 5) / \{[0,003 / (40 \cdot 0,5)] + [1 / (10 \cdot 0,5)]\} = 50 \text{ Vt,}$$

bunda $\sigma_d = 0,003 \text{ m}$ - bak metallini qalinligi.

$\lambda_d = 40 \text{ Vt/(m}^{\circ}\text{S)}$ - metallni issiqlik o'tkazuvchanligi.

Bakni yon sirtidan yo'qotiladigan issiqlik oqimini aniqlaymiz

$$F_{yon} = [\pi H (t_{ur} - t_t)] / \{[1/2\lambda_i \ln(D + 2\sigma_i^b)/D] + [1/\alpha_{tash} (D + 2\sigma_i^b)]\} =$$

$$= [3,14 \cdot 0,8(45 - 15)] / \{[1/2 \cdot 0,04 \ln(0,8 + 2 \cdot 0,03)/0,8] + [1/10(0,8 + 2 \cdot 0,03)]\} = 74 \text{ Vt.}$$

Qizdirgichni qo'qog'idan yo'qoladigan issiqlik oqimini aniqlaymiz

$$F_q = (t_2 - t_x) / [(\sigma_i^k / \lambda_i A_k) + (1 / \alpha_{tash} A_k)] =$$

$$(85 - 15) / [(0,05 / 0,04 \cdot 0,5) + (1 / 10 \cdot 0,5)] = 26 \text{ Vt.}$$

Suv qizdirgichni umumiy issiqlik yo'qotishini aniqlaymiz

$$F_{yuk} = F_{yon} + F_q - F_{tag} = 74 + 26 - 50 = 50 \text{ Vt.}$$

Suv qizdirgichni foydali quvvatini aniqlaymiz

$$R_{\text{foy}} = [s \cdot V \rho (t_2 - t_1)] / 3600 = [4,19 \cdot 0,1 \cdot 10^3 (85-5)] / 3600 = 9,3 \text{ kVt},$$

bunda $\rho = 10^3 \text{ kg/m}^3$ - suvni zichligi.

Suv qizdirgichni o`rnatilgan quvvatini aniqlaymiz

$$R_{\text{urn}} = R_{\text{foy}} + F_{\text{yuk}} = 9300 + 50 = 9350 \text{ Vt}.$$

Suv qizdirgichni f.i.k.

$$\eta = R_{\text{foy}} / R_{\text{urn}} = 9300 / 9350 = 0,99.$$

2 masala. Isitilgan xolda pechkaning foydali quvvati $R_f = 15 \text{ kVt}$. Uning shakli kubli. pechkaning ichki sirtini xarorati $t_{\text{ich}} = 500^\circ\text{S}$, tashqi

Sirtining xarorati $t_{\text{sir}} = 50^\circ\text{S}$. pechkaning ichki o`lchamlari  $0,8 \times 0,8 \times 0,8 \text{ m}$ . Issiqlik izolyatsiyasi ikki qatlamli. Birinchi qatlamni qalinligi  $\sigma_{\text{sh}} = 0,1 \text{ m}$ , shamotli g`ishtdan yasalgan. Ikkinchi qatlam vermikulitli ko`kat bilan to`ldirilgan. Qatlamlar chegarasida xarorat va vermikulitni qalinligini (σ_v) aniqlab bering. Isitilgan pechkani f.i.k. 75%.

Masalani yechimi

Isitilgan pechkadan yo`qoladigan quvvatni xisoblaymiz

$$R_{\text{yuk}} = R_f / \eta - R_f = 15 / 0,75 - 15 = 5 \text{ kVt}$$

Taxmin qilib qatlamlarni chegarasidagi xaroratni $t_{\text{cheg}} = 400^\circ\text{S}$ qabul qilamiz. Bunda shamotni o`rtacha xarorati

$$t_{\text{sh, urt}} = (t_{\text{cheg}} + t_{\text{ich}}) / 2 = (500 + 400) / 2 = 450^\circ\text{S}.$$

450°S xaroratda shamotni issiqlik o`tkazuvchanligi (1)

$$\lambda_{\text{sh}} = 0,7 - 0,64 \cdot 10^{-3} t_{\text{sh, urt}} = 0,7 - 0,64 \cdot 10^{-3} \cdot 450 = 0,988 \text{ Vt/(m }^\circ\text{S)}.$$

Shamotni ichki yuzasini sirtini aniqlaymiz

$$A_{\text{sh.ich}} = 6 \cdot 0,8^2 = 3,84 \text{ m}^2.$$

Shamotni tashqi yuzasini sirtini aniqlaymiz

